



DUNDAR ALP
SHARQNING
ENG BUYUK
HUKMDORI

JAHON ADABIYATI TURKUMIDAN

[illegible]

Dundar
ing büyük
laahı:
yonlar
e.





JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

DUNDAR ALP

SHARQNING ENG BUYUK HUKMDORI

Roman



ZIYO NASHR

Toshkent
2020



ulkan
axloq,
ulkan
moni-
miziy,
, Abu
uddin
ugna-
iddin
rimiz
kirlar
iyati,
ozim.
hayot
adga
afak-
imiy
otgan
nasi
'qib,
idan
lari,
qo'l
mu-
ptayi

ako-
shda
miz,
imli

hti-
hga
yuz

UO'K: 821.512.161-31

KBK 84(5Tuk)

A 54

Tahrir hay'ati:


**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy Jabborov,
Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimonlar:

Tohir QAHHOR, Sobir SAYXON

Qo'lingizdagi to'plam buyuk sarkarda Amir Temur haqida. Roman turk yozuvchisi Dunder Alp qalamiga mansub. Ushbu asar 1912-yilda Istanbulda nashr etilgan. Romanda sohibqiron bobomizning insonparvarligi va bag'rikengligi, o'z maqsadiga erishish yo'lida chekkan zahmatlari ko'rsatib berilgan.

Asarni o'qir ekanmiz, jasurlik, sadoqat va saxiylik xislatlariga ega bo'lgan betakror iste'dod sohibining erishgan yutuqlaridan quvonamiz. Shunday ajdodlarimiz borligidan faxrlanish tuyg'usi siz-u bizni hamisha ezgulikka chorlab turishiga ishonamiz.



© Tohir Qahhor, Sobir Sayxon (tarj.).

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqmiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkins, L.N.Tolstoy, A. Dyuma, N.V.Gogol, O.de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Dundar Alp, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar o'giran asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijodi namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

SO‘ZBOSHI

Bir necha kun muqaddam „Sharq“ teatrusinda „Temurlang“ nomli bir pyesaning tomoshaga qo‘yilishini eshitishim bilanoq, men ham tarixini, o‘tmishini bu sahnalardan axtargan vatandoshlarim kabi o‘sha yoqqa oshiqdim.

Buyuk xoqon Temur bilan hashamatli Yildirim Boyazid orasidagi arziyas kelishmovchilik bois chiqqan urush va uning oqibatlarini betarafona muhokama etadigan bir sahna o‘yinini kutardim. Biroq, yanglish yozilgan tarixiy voqealarning yanglish talqinlari ko‘rsatildi. Menimcha, bu xato, muallif biryoqlama bitilgan tarixni qabul qilgan va uni kengaytirib ko‘rsatishni istagan bir shaxsdir.

Bu ikki daho orasidagi mag‘lubiyat tarixlaridan, ya‘ni vujudini qorason qoplagan muazzam usmonlilar imperatorligini qutqarmoq uchun taqdirning sanchgan nishtari achchig‘i bilan yozilgan tarixlarimizdan betaraflikni kutmoq o‘rinsizdir, zotan, ular muqoyasa etilmasdan bitilganidir. Ammo men yigirmanchi asrda yashab turib bundayin muhokamasiz, bo‘htonli tarixlarni, talqinlarni qabul qilolmayman, albatta.

Temurning Yildirim Boyazidga yozgan xatida turklar birligi borasidagi shohona taklif bo‘lganligini va sulton Yildirimning, aytib o‘tganimizdek, kichik bir anglashilmovchilik yuzasidan unga yuborgan maktubidagi xitobida „daydi it“ degan balandparvozona ibora qo‘llagani oraga nifoq solganini nazarga olsak, bor haqiqat o‘rtaga chiqadi.

Shuncha yillardir ikki turkiy sulolaning chiqisholmasligiga, qardoshlarning kelisholmasligiga yagona sabab – ana shu kichik haqiqatning katta-katta bo‘htonlarga, mag‘lubiyat alami bilan so‘ylangan achchiq-achchiq haqoratlarga yo‘l ochgani emasmikin?

Temur va Yildirimning – biri g‘olib, biri mag‘lub bo‘lsa ham – usmonlilar saltanatiga ko‘rsatgan xizmatlari siyosatchilar nazdida inkorsiz bir haqiqatdir.

Temur usmonlilar saltanatini bir xasta kabi jarrohliq taxtasiga yotqizdi. Biroq uni o‘ldirmak uchun emas, balki qutqarmoq uchun bir qo‘linigina kesdi.

Temur usmonlilar badanidan anchagina qonlar oqizdi, biroq bu qorasonga yo‘liqqan vujuddan jarrohlik jarayoni-da to‘kilgan qon va yiringdan boshqa narsa emasdi.

Temur usmonlilar ko‘ksidan bir necha yara ochdi, faqat bu ishni u usmonlilar jallodi bo‘lmoq uchun emas, balki uning muhtasham hayotini, muqaddas mavjudiyatini qutqarmoq uchun bajardi. Vazifasi-da bir jarrohlik edi.

Butun tarixlarda istakli yo istaksiz o‘laroq yozilganidek, Temurning maqsadi, fikri-zikri turkiylar birligiga xizmatdan iborat edi. Ana shuning uchun u bunchalar qonlar to‘ktirdi, ana shuning uchun u buyuk va qutlug‘ bir qardoshi Yildirim Boyazid bilan urushga kirdi, ana shuning uchun u Osiyoni boshdan oyoq otda bosib o‘tdi va shu yo‘lda uning nomi qonxo‘rga chiqdi, juda ko‘p qiyinchiliklarga, yo‘qotishlarga chidadi.

Bu yo‘lda hech bir monelik, hech bir qudrat uni bu muqaddas azmidan qaytorolmadi, qaytarishga muvaffaq bo‘lolmadi...

Voajab! Ne buyuk zot emish bu Temur! Vatani uchun, millati uchun chidab bo‘lmas qiyinchiliklarga chidagan, fidokorliklar ko‘rsatgan ulug‘ inson! Faqat millatini yuksaltmoq uchun qardoshi Yildirimni ham ayamagan qo‘mondon!

Bu, Onasi uchun – Vatani uchun shunchalar fidokorliklar qilgan buyuk Temurga shu muhtaram Onaning avlodlari ko'rsatgan ehtirom shumi? Uning xizmatlariga munosabat, shukrona hadiyasi shumi?

Bu qanday qadrshunoslikki, Onasini qutqarmoqqa o'zini bag'ishlagan bir xaloskorni tuhmatlarga, haqoratlarga ko'mib tashlasalar...

Bu qanday ko'r ehtiros-u intilishki, ikki xonadon orasida kichik bir tushunmovchilik natijasida vujudga kelgan kelishmovchilikni mangu davom ettirmoq istarlar...

* * *

Ro'monimizning g'oyasi Temurning hayoti va tutgan siyosatini ko'rsatmoqdir. Ana shu maqsadda qo'lga qalam olarkanmiz, bildirilajak e'tirozlar xayolga toldirdi va ikkilantirdi, biroq asardagi voqealar haqiqiy tarixiy hodisalarga mos ekanligini o'ylarkanmiz, kitobxondagi shubhalar ham quyosh taftidan erib bitgan muz parchalariday yo'qolishiga qanoat hosil qildik-da, ishga kirishdik.

Temur haqidagi e'tirozlarning eng kattasi uning qonxo'r, zolim bo'lganligidir. Ammo bu o'sha zamonda, u yashagan o'rta asrlarda tabiiy hol ekanligini esdan chiqarmaslik kerak. Aslida, ayrim g'arazkor tarixlarda yozilgani kabi bema'ni, sababsiz zolimlikni Temurda topa olmasligingizga imonimiz komildir.

Endi ayting-chi, qaysi jahongir qonlar to'kmagan, qaysi jangovar jonlarni o'tda yoqmagan? Bugun eng madaniyatli deb tanilgan mamlakatlarda barcha zamonlarda ham ko'kka ko'tarilgan Napoleonlarga, Ikkinchi Frederiklarga, Dali Pyotrlar-u Haniballarga to'kkan qonlari uchun qandayin ma'zuriyat ko'rsata olurlar? Sulton Yovuzning Eronga yurishini muhaqqaq va siyosat taqozosi deya e'tirof qilgan tarixchilar, ajabo, ne uchun Temurga e'tiroz etaveradilar?

Deyishingiz mumkinki, Sulton Yovuz Eronga safari bilan usmonlining manfaatlarini qo‘riqladi, faqat Temur... g‘oyayi a‘moli turkiylarning birligi ekan, nechun bunga erisholmagan va nechun siyosati natijalarini kamoli muvaffaqiyat-la tarixga muhrlay olmagan?..

Ma‘lumdirki, g‘oya va muvaffaqiyat boshqa-boshqa narsalardir.

Sulton Yovuzning islom birligi g‘oyasi bayrog‘i ostida Misrga yurish uyushtirganini, qaysi yo‘llar bilan qanday siyosiy natijalarga erishganini tarixdan bilamiz. Yovuzni, tutgan siyosatini yanada shuhratli qilgan uning Shahboldagi muvaffaqiyatidir. Shuning uchun Yovuzni dunyoning eng buyuk podshohi deyishadi.

Endi bir o‘ylab ko‘raylik: Napoleon Mo‘sqo‘vni oldi, Prussiya qirolligini mahv etdi, Italiyaga qo‘shin tortdi – g‘oyasi, maqsadi – lotin birligini vujudga keltirish emish.

Buni bajara olmagani holda qancha-qancha qon to‘kkanini, Mo‘sqo‘vga yengilganini, qancha-qancha insonni qurbon berganini ro‘kach qilib, nechun Napoleonni qonxo‘r deyishmaydi, tahqirlashmaydi – buni ham o‘ylab ko‘raylik.

Fransuzlar ham va yoxud Napoleondan yomonlik ko‘rgan boshqa jabrdiyda qavmlar ham nega tarixlarda uni la‘natlamaydi-da, usmonlilar o‘z tarixlarida Temurni nechun bunchalar qutqulashadi? Bu ham yetmagandek, nechun teatr-u sahnalarida Temur qilmagan ishlarni qildi derlar, nechun Temur umrining hech bir davrida boshidan kechirmagan, ko‘rmagan xayoliy voqealarni hayotiy deya g‘addorlik eturlar.

Yo‘q! Muhtaram o‘quvchilarim, Osiyoda yashab o‘tgan, siyosat maydonida javlon urgan hukmdorlarni ko‘z o‘ngimizdan o‘tkazganimizda, Temur ham Sulton Yovuz kabi obidayi harbiyadir – qahramonlik haykalidir!

Yildirim Boyazid bilan kurashga kirishiga sabab

Temurning o'zi emas, qismatdir, bu urush qazoyi qadar-ning bir hukmidir. Bu hukmga Yildirim-u Temur, tatar-u turk birgalikda bosh egishga majbur bo'ldilar.

Temur hukumat hayotini muhofaza etmak uchun shundayin asoslar yaratgan va shundayin mustahkam bir davlat binosini vujudga keltirgan edikim, agar undan keyin kelganlar o'sha yo'lda xizmat etsalardi, u dohiyning tamalini qo'yimish u siyosat, u davlat abadiyan yashardi.

Davlatni boshqarish nuqtayi nazaridan Temur buyuk bir boshlang'ichdir, hikmati hukumat bulog'idir. Jahon xalqlari o'z qirollarini, xonlari va podshohlarini Tangri yo'lidagi bir manzil yoki Ollohning yerdagi soyasi deb bilgan bir zamonlarda Temur o'zini boshqacha tutgan, insonlarni o'ziga sajda ettirishga qodir bo'la turib bu ishni qilmagan, faqat davlatni o'ylagan. Keyingi davrlarda dunyoda shakllanayotgan milliy hokimiyatni o'z davrida u kashf etgan; tuzuklari, siyosiy tutumlari bilan ulusiga qonun hukmronligini ko'rsatmoqqa intilgan. Temur dahosining yodgori bo'lmish qurultoy (majlisi ma'buson – deputatlar kengashi) uning qiymatini, buyukligini ko'rsatuvchi bir tarixiy haqiqatdir. Temurning kimligini anglamak uchun birgina o'sha shoh asarni – qurultoyini bilmak ham yetarlidir.

* * *

Temur hayoti aks etgan voqealar ro'monimizni o'qishga kirishgan o'quvchilar ko'z oldilarida jonlanarkan, bundan ruhiy lazzat tuyushlari shubhasizdir. Qo'limizdan kelgan-cha tarixiy haqiqatlarni yoritishga va kitobxonni mamnun etishga intildik.

*Dundar ALP,
18-avgust, hijriy 1328-yil,
Qiztoshi, Istanbul.*

I. NOMA'LUM OTLIQ

Milodiy 1350-yil. Turklarning asl vatani Movaroun-nahrda va uning tegrasida aholiga taskin beruvchi, tinchlikka chorlovchi bir ruh hukmron. Quyosh Turkiston sahrolarini qizdirib-qovurarkan, yorug' kengliklarda yurgan arslon yurakli jangovarlarning nayzalari uchida jilvalangan nurlar ular manglayidagi sharaf nishoni kabi yarqiraydi.

Husayn Kurtning bosh ko'tarishidan g'azablangan, tomirlarida qoni qaynagan barcha qahramonlar oyoqqa qalqishdi, urushqoqlik hislari jo'sh urib, maydonga to'planihdi. Ular jaloyir xonadoni dong'ini yuksaltirgan ulug' vazir Qizg'inning choparini kutishmoqda.

Nihoyat, quyoshning yoquvchi yog'dulari ostida kumush tug'ini yaltillatib kelayotgan otliq – xabarini qichqirib bildirayotgan chopar ham ko'rindi. Uning hayqirig'i vaziyatning nozikligini tasdiqlardi:

— Husayn Kurt yurtimizga bostirib kirdi! Onasini suygan qahramonlar, Tangrisini tanigan jangovarlar, mil-latini qutqarmoq istagan arslonlar, qurollaning! Ulug'imiz Qizg'in barcha turkiy xonlarini o'z jangchilarini to'plab, vatanni qutqarmoq uchun urushga kirishini buyuradir!.. Qani, barcha qo'liga qurol olsin!

Xalq orasida alg'ov-dalg'ov yuz berdi. Choparning tovushini eshitgan har kishi o'z uyiga borishga, qurollanmoqqa oshiqdi. Jarchi ilgarilar ekan, har o'n odimda xaba-

rini takrorlardi. Uni eshitgan botirlar o'z makonlariga qarab yugurishar, chodirlari ustuniga osig'liq o'q-yoylarini, mayzalarini olib, urush kiyimlarini kiyishib, otlariga sakrab mingancha, yig'noq maydoniga chopishar edi.

Ulus to'plandi. El va beklar kengashdilar, vaziyatni muhokama qildilar. Yurtga bostirib kirgan Husayn Kurtga qarshi urushmoqqa qaror berildi.

Aslida-ku, urush boshlangandi.

Davlatining ichki tizimida o'zgarish, islohot o'tkazishga kirishgan Qizg'in o'z boshlagan ishi bilan mashg'ul ekan, o'lkadagi boshqaruvning kuchsizlanganini gumon etgan Husayn Kurt fursatni qo'ldan chiqarmaslikka tirishdi.

Yurtga to'satdan bostirib kirgan Husayn Kurt zafar qozonishga qattiq umid bog'lagandi. Zotan, Qizg'inning o'z idoriy ishlari bilan ovora ekaniga, shuning uchun unchalik qarshilik ko'rsata olmasligiga ham inonardi. Shu bois paytdan foydalanib, kuchiga kuch qo'shib, birdaniga zarba bera turib, turklar o'lkasini tamomiyla egallab olishga qaror qilgandi.

Uning bu harakati mamlakatda kuchli aks sado berdi: xalq barcha ishini tashladi, qo'liga qurol olib, vatan mudofaa-siga otlandi. Jangovar turklarning bosqinchi Husayn Kurtga nafrati kuchli edi, shuning uchun qarshi hujumlari ham dahshatli bo'ldi. Shoqollar iniga suqilib kirganida qahrilgan arslonlar kabi turklarning ham g'azabi qaynagandi. Ular birlashib shunday urush qilishdiki, yov bunga chiday olmasdan chekindi va tirqirab qochib qoldi. Ularni Xurosongacha quvlab borishdi. Movarounnahr askari Xuroson ko'ksiga o'tkir o'qday sanchildi. Turk qo'shini Husayn Kurt qo'shinini yanchib tashladi, zafar qozondi.

Biroq bu g'oliblik osongina qo'lga kirmadi. O'rdudagi har bir botir jonini tikib urushdi, ko'plari to'qnashuv-

larda shahid bo'ldi. Qizg'inning qo'shini Turkistondagi turli turkiy urug'lardan tuzilgandi. Ular orasida barloslardan chiqqan yosh, jasur bir jangchi ham bor. U Abu Tarag'ayning o'g'li Temur edi.

* * *

Turkiylarning Xurosonga kirib borishidan uch kun oldin, erta tongda, katta Xuroson yo'lida bir otliq ko'ringdi. Suvoriy qushday uchib kelardi. Bomdod vaqtida ham u otdan tushishni, biroz tin olishni o'ylamasdan, hamon arg'umog'ini yeldirib borardi... U chaqmoqdek shiddat bilan yo'l bosarkan, vohalarni, cho'llarni, qir-u tepalarni, tog'larni otining tuyog'i ostiga to'plaganday o'zini qudratli sezardi.

Keng dunyo uning to'riq oti oyoqlari tagida kichkina bir maydonga aylangandi go'yo. U qanotlangan sahobaday uchardi, uchardi, uchardi...

Ot chiqargan chang-to'zon o'tmishlarni pardalab, kelajakning porloq sahifalarini ko'rsatmoqchi bo'lganday moviy kengliklarga yuksalar, otliq esa hamon olg'a intilar edi.

Kun yorisharkan, kimligi noma'lum bu otliq Xurosonga yetib bordi. Shahar chang va tutun bilan qoplangan, atrof yaxshi ko'rinmas, ufqni qora bulutlar egallagan edi. Husayn Kurtning odamlari bu otliqni payqashmadi, barcha o'z ishi bilan mashg'ul edi. Bundan foydalangan noma'lum kishi bir uyga kirib o'rnashdi. So'ngra bozorga chiqib, xurosonliklar kiyadigan kiyim-kechaklardan sotib oldi. Ularni kiyib, posbonga uchrashdi. Posbonning qashshoq bir oiladan ekanligini u oldindan so'rab-surishtirib, bilib olgandi.

Qorovullar to'planadigan choyxonaga kirgach, u o'zini tanitmoq uchun ataylab haligi posbonning qarshisiga borib

o'tirdi. Unga sinchiklab boqarkan, samimiy suhbatlashdi va orada uni sinab ko'rdi. Oxirida uning ko'zlaridan, so'zlaridan ochko'z kishi ekanligini, arziyasini bir sovg'a bilan bir qancha ishlarni bitirib olish mumkinligini angladi. O'zini tanitmasdan, yana o'tirgan yerida so'rab-surishtirishni davom ettirdi.

Noma'lum yigit kulimsiragancha suhbatlashib o'tirarkan, tevarakdagilarni kuzatar, vaziyat haqidagi tasavvurini yanada to'ldirishga tirishar edi. Bir payt posbon baland ovozda san'atni yomonlab, yoqasini oliftalarcha silkib, ig'vo qozonini qizdirib, o'sha kuni yuz bergan bir voqeani so'ylay boshladi. Tegradagilar unga shundaymi, degan ma'noda qiziqsinib qarab, tinglashar edi. Noma'lum yigit ham uning so'zlariga jon qulog'ini tutayotgandek, yanada yaqinroq surildi. Qorovul eski suhbatdoshini topib olganday sevinib, zavq bilan gapni ko'pirtirar, unga qarab xitob qilar edi.

Noma'lum kishi suhbat asnosida qorovulni choy va qahva bilan siyladi. Bu unga moyday yoqdi. Oxiri posbon noma'lum yigitning qo'lini qo'lga olib, eski do'stday dardlasha boshladi, unga butun hayot hikoyasini aytib berdi. Qorovul uning e'tiborini tortish uchun bor hunarini ko'rsatmoqda edi. Ko'p so'zlagan – ko'p chalg'iydi, degan otalar so'zi bor. Bu odam, laqmaligi yetmaganday, biroz ahmoqroq ham edi. Suhbat so'ngida qorovul tamoman yumshab, gapga unaydigan holga keldi. Shunda noma'lum kishi:

– Modomiki lutf etib menga shunchalar qiymat berib... – deya kulimsirab, sinchkovlik bilan uning yuziga boqdi. Ko'z ko'zga tushgan asnoda „faqat...“ deya taraddudlandi. Oldindan tayyorlab qo'yilgan bir xalta aqchani unga berkitiqcha tutqazdi. Qorovul yeng ichida uzatilgan

qizil xaltacha taftini tuyarkan, aqcha isidan mast bo'lib, so'zini yo'qotib qo'ydi. Birozdan keyin o'ziga kelib:

— Shu, men sal naridagi dalamda kechgacha ishlab, charchab qolaman, deng. Yo'qchilik, yetishmovchilik yomon. Shunaqa paytlar bo'ladiki, ishdan kech qolmaslik uchun umrimning eng qimmatli damlaridan ham voz kechishga to'g'ri keladi... — deya chaynaldi.

— E yashang! — dedi kulimsiragancha noma'lum yigit. — Modomiki siz umringizning eng aziz onlarini shunaqa ishlarga bag'ishlarkansiz, eng muhimi, shundayin bir soxovatli inson bo'laturib, nechun mendan yaxshiligingizni ayaysiz?

— Astag'furilloh, taqsir, unchalik emas-ov! Faqat boshimdan... — deya g'udrandi, „Boshimdan ajralib qolishdan qo'rqaman“, — deya olmadi.

— E Xudoyim-ey, qiziq odam ekansiz-ku, nima, menga ishonmaysizmi? — dedi noma'lum kishi, orada yashirincha yana nimadir uzatdi.

— Kechirasiz, taqsim... — deya taraddudlandi qorovul va so'zi kesildi. Chunki uning ko'zi noma'lum yigit qo'lidagi qizil xaltachaga tushib qolgandi. Sevinchdan qorovulning yuragi o'ynab ketdi. Shoshilib: — Sizdayin saxiy va oliyhimmat zotning so'zini ikki qilib bo'larkanmi, bu insofdan emas! — deya xitob etdi. — Neni istasangiz, barchasi bosh ustiga! Qachonki qal'a devori yoniga kelib, pastdan turib men g'arib-faqirni chaqirsangiz kifoya, darvoza kalitini burjdan tashlab yuboraman. Ichkariga kirib olgach, kalitni menga qaytarib berasiz, — dedi sirli qilib.

— Ko'p yaxshi! — dedi noma'lum yigit.

Shu bilan suhbat tugaganday bo'ldi. Ikkovlon kechki paytda ko'rishmoqqa kelishib, o'rinlaridan turishdi va ayrilishdi.

Noma'lum yigit turgan uyiga qaytgach, o'z yurtini, sevgilisini o'ylab, yuragi siqildi. Hayajonini, og'ir xayollar to'ldinini bosish uchun yolg'izlikni ixtiyor etib, anchagacha o'ylanib o'tirdi. Butun ruhini ishq o'ti qoplab olgan, bu o'tda yigitning borlig'i yonar, uning bu qayg'uli holati g'amga berilib, yerda cho'zilib qolgan arslonni eslatar edi.

Uning keng va haybatli ko'ksi nafas olishiga mos tarzda ko'tarilib tushar, ma'yus yuzida jasur qalbining shiddatli tuyg'ulari aks etar, bu ko'rinishi bilan u ertaklardagi oshiq qahramonlarga o'xshab ketar edi. Yigit chindan ham oshiq edi. Ruhidagi ishq iztirobi shunchalik to'ldirilgan ediki, ingrayotganini o'zi ham sezmasdi. Bu achchiq va totli ishq ingroqlari nariroqda uxlab yotgan musofirlarni uyg'otib yuborishi mumkinligi ham xayoliga kelmasdi.

U ancha paytgacha o'ylanib, „uf“ tortib, ixtiyorsiz ingranib yotdi va nihoyat, yarim kechasi uxlab qoldi.

II. TUTQUNLIK

Ertasi kun erta tongda Xuroson qal'asidan bir to'p kishi tashqariga chiqdi. Ular orasida haligi noma'lum yigit ham bor edi. U ot ustida savlat to'kib o'tirar, jasur ko'rki bilan barchadan ajralib turardi.

Yigit qal'a darvozasi qorovullari yoniga, burchakka yaqinlasharkan, o'zini kutayotgan posbonga duch keldi. Salomlashib o'tib ketmoqchi edi, kecha olgan sariq oltinlari totidan haligacha yayrayotgan qorovul unga yelimday yopishib oldi.

– Taqsir, kechqurun qaysi soatlarda qaytasiz? – dedi u yaltoqlanib.

– Ko'ramiz. Hozircha aniq emas, biroz kech qolsam kerak, – dedi yigit.

– Shu yaqinda, huv anavi yerda dalasi, bog'i bor muhtaram Saidali oqshom to'rtlarda tashrif buyurmoqchi edilar-da... – deya chaynaldi qorovul sirli qilib.

– U zot kim o'zi? – deya so'radi yigit.

– Kechqurun unga sizdan gap ochgan edim, qal'aga kirishlariga faqatgina men yo'l ochib berolaman, dedi... – qorovul fikrini to'la aytolmay qoldi, chunki yigit uning so'zini bo'lib:

– Men biroz kech qaytaman, – dedi-da, bu yerda ko'p turib qolish xavfli ekanini tuyib, qorovul oldidan tezroq o'tib ketish uchun otini niqtadi.

Shu kuni oqshomgacha atrofga tarqalgan qo'shini ni qidirdi, ammo askarlar izini topolmadi. U qattiq o'yga botgan, fikr-u xayolini bir chigal o'rab olgandi. Bu chigal kechqurun soat to'rtida kelib, kalitni unga beradigan Saidali bilan bog'liq edi. U Saidalining qo'lidan kalitni olmoqchi; biroq o'zini unga ham, qorovulga ham tanitmoqchi emas edi. Hamma gap shunda. Agarda Saidali kalitni bermasa, u bilan talashishi kerak... Ish janjalga borib yetsa, sir ochilib qolmasligi uchun, uni albatta o'ldirishi lozim... Yigit shu qarorda to'xtab, qal'aning pana bir yeriga kelib berkindi.

Bir payt qarshidan yaxshigina kiyingan kishi ko'rindi. Har holda bu o'sha bo'lishi kerak, deya ko'nglidan kechirdi yigit. U o'z otini panada qoldirib, oldindagi otliq ortidan yurdi. Osmon bulutli, atrof qorong'i, qo'rqinchli edi. Xurosonliklar ustiga bir balo yog'ilayotganday, tevarak va himali tumanga burkangan, g'amgin tusda edi. Qorong'ida borayotgan bu ikki qo'rqinchli kishidan orqadagisi o'ljasini kuzatayotgan usta ovchiga o'xshardi. U otliqni kuzatib ilgarilarkan, ko'zlari porlar, bu o'lja qo'lidan qochib qutulolmasligini o'ylab, ichida sevinib qo'yardi.

Otliq burchakda to'xtab, pastdan yuqoriga – qorovulga qarata ovoz berdi.

Bu orada noma'lum yigit o'zini ularga tanitmaslik uchun ust-boshini yechib, teskari kiyib oldi. So'ngra burchakka yaqinlashdi.

Tepadagi qorovul kalitni haligi odamga otdi. Buni ko'riboq yigit unga yaqinlashdi va:

– Kechirasiz... – dedi. – Ruxsat bersangiz, men ham ichkariga kirsam...

– Yo'-'o'q! – dedi haligi odim. – Bunday soatda qal'aga hech kim kirolmaydi! Kirish huquqi yolg'iz menga berilgan.

– Kirish huquqidan men ham foydalanmoqchiman, – dedi yigit pinagini buzmay.

– Qanday foydalanmoqchisiz?! – dedi otliq achchig'i chiqib.

Yigit unga talpindi va kalitni olmoqqa intilib:

– Ochqichni sizdan tortib olish yo'li bilan! – dedi.

Biroq qarshidagi kishi yigitdan ham epchilroq ekan, kalitni avaylab cho'ntagiga soldi-da, chaqqonlik bilan qilichini qinidan sug'urdi. Yigit ham o'q tezligida harakat qilib, arslonday ko'ksini kerib, qilichini yalang'ochladi. Uniki qilich emas, xuddi chaqmoqday, momaqaldiroqday gurullab tovush chiqardi. Ikkisi o'rtasida olishuv boshlanib ketdi. Yigit dushmanini yaralamoqqa, qarshidagi kishi esa uni o'ldirmoqqa shaylangan edi. U hujumni tobora kuchaytirarkan, yigit o'zini himoyalashga intilar, hujumga uncha e'tibor bermayotgan edi. Kurash rosa qizidi, chidash qiyinlashdi. Kalitli kishi yaralandi, yara alami va jon qo'rquvida yigitga tashlandi. Biroq u birinchi hujumida tirsagidan, ikkinchi zarbasida oyog'idan va uchinchisida boshidan yaralandi. Yigit raqibini yerga ag'dardi, kalitni qo'lga kiritib, bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Yigit panada qoldirgan otiga sakrab mindi-da, yelday uchira ketdi. Bir muddat yo'l yurgach, tepasiga boqdi, ko'kda bir qora bulut ko'zga chalindi. Tong yorisha bosh-

lagandi. Ufq oqararkan, yer-u ko'kdagi har narsa aniq-tiniq ko'rinib qoldi.

Kutilmaganda, bir to'p otliq qiy-chuv solib o'tdi. Ular vazir Qizg'inning ayg'oqchilari edi. Otliqlar yigitni ko'rishlari bilanoq ortidan quvlashdi. Yigitga yaqinlashisharkan, birisi kamand otdi. Jasur otliq qo'lga olindi. Boshi tuzoqqa tushganini anglagan yigit o'zini mudofaa qilishni to'xtatdi.

Otliqlar orasida shundayin tortishuv bo'lib o'tdi:

– Shubhasizki, bu – urushqoq, mard kishi! Men o'zimni shuncha jangchidan buningchalik himoya qilolmasdim, – dedi biri.

– Qo'ysang-chi, – dedi boshqasi. – Bunaqalarni ko'p ko'rdik. Bu birorta jangchi bo'lsa kerak. Yo turkiymikan?

– Turkiy bo'lmasa kerak, – dedi boshqa biri. – Turkiy bo'lsa, judayam jangovarlik, jangarilik ko'rsatardi. Kim ekan-a?

– Kim deydi-ya! E, ana, ko'zingni katta ochib qara, kiyimidan ko'rinib turibdi-ku, bu bir xurosonlik!..

Ular mana shunday tortishaturib asirni bog'lashdi. So'ngra xon huzuriga olib borishdi.

Ichkariga kirar-kirmas, yigit bo'sh qolgan qo'li bilan cho'ntagini kavlab, Xuroson darvozasi kalitini chiqardi-da, Qizg'inga topshirmoqchi bo'ldi. Jangchilar esa yigit yonidan xanjarini sug'urmoqchi, degan qo'rquv bilan tutqunining ustiga yopirilishdi, qo'lidagini olmoqqa intilishdi. Yigit to'satdan:

– Qizg'in janoblari! Yetar endi!.. – deya baqirdi.

Vazir Qizg'in uning tovushini eshitishi bilanoq o'rni-dan sapchib turdi. Askarlarga:

– Tagma! – deya buyurdi.

So'ngra kalitga ishora qilib:

– U nima? – deya so‘radi.
– Xurosonning kaliti, – dedi yigit.
– Sen kimsan? – deya so‘roqni davom ettirdi Qizg‘in.
– Oldin meni kamanddan bo‘shatishsin, – dedi yigit. –
Keyin kimligimni bilib olaverasizlar.

Uni bog‘loqdan bo‘shatishdi. So‘ngra u hammani hayratga solib ustidagi xurosoncha kiyimini yechdi. O‘z urug‘iga – barloslarga xos belgini ko‘rsatdi. Shunda barcha hayratdan baqirib yubordi:

– Amir Tarag‘ayning o‘g‘li Temur!..

* * *

Temurning qo‘shin askarlari joylashgan yerdan chiqib ketishi ham boshqacha bo‘lgandi. Vazir Qizg‘inning qizi O‘ljay Turkanni olishga intilgan kishilar o‘zaro kurashib, bir-birovlaridan qizni qizg‘anishib, o‘chakishib, ba‘zida janjal ham chiqarishar edi. Bir kuni, o‘rdu askarlari Xuroson yurishiga tayyorgarlik ko‘rayotgan paytda, xushtorlar o‘rtasida yana to‘qnashuv yuz berdi. Ish shungacha borib yetdiki, bir yigit o‘ldirildi. Shunda achchiqlangan vazir Qizg‘in vahshiy oshiqlar o‘rtasiga tushib:

– Nima bo‘lyapti o‘zi? – deya baqirib berdi. So‘ngra: – Bir shartim bor, – dedi. – Hozir Xuroson safariga yo‘nalmoqdamiz. U yerga borganimizda, kimki Xuroson kalitini olib kelsa, qizim o‘shaniki...

Bu shart O‘ljayning barcha shaydolariga yoqib tushdi. Bari Xuroson safarini ko‘zi to‘rt bo‘lib kuta boshladi.

O‘ljay Turkanni anchadan beri sevib yurgan Temur uning kimgadir tegishini aqliga sig‘dirolmasdi, albatta, u biror chora istar, o‘ylab o‘yiga yetolmasdi. Ishq faryodi namlagan porloq ko‘zlari tolib xayolga botar, biroq dardiga davo topolmasdi. Zotan, u hali yosh edi. Yigirma yoshlar-

dagi bu qahramon qanchalar sheryurak bo'lmasin, tajribasizlik uning eng katta kamchiligi, tadbirsizlik esa afv etilmas zaifligi hisoblanardi.

To'g'ri, Temur hali tajribasiz, issiq-sovuqni ko'p ko'rmagan yigit, ammo uning bir fazilati shu ediki, u kek-salar so'zini ikki qilmas, ularning o'gitiga quloq tutardi...

Barloslar ichida tanilgan, O'g'uz Arslon degan bir xizmatchi bor edi. Temur doimo u bilan maslahatlashar, tajribasidan foydalanardi. Uning tavsiyalariga ko'ra ish tutganida, mudom muvaffaqiyatga erishardi.

Biroq boshiga ishq savdosi tusharkan, dono chol bilan maslahatlashishni qanchalar istasa ham, uning yoniga bormadi. Axir yigirma yoshli yigit ishqiy his-tuyg'ularini keksa odamga qanday qilib tushuntirardi...

Urushlarda arslon bo'lib tanilgan yosh qahramonning oshiqlik ko'chasiga kirib, bundayin chorasiz qiynalishlari ham Yaratganning bir mo'jizasidir, balki.

Ishq, ishq! U qandayin quvvatki, eng metin ruhlarni ham sarosimaga soladi, eng kuchli vujudlarni ham zabun-u xor eta oladi.

Eng ulug' loqaydlarga qarab tabassum etgan, eng kichik savdoyilarning otashin bo'zlashlariga parvo ham qilmasdan doimo, doimo qo'rqinchli va sovuq yuz bilan boqqan bu ishq, birorta ham kishanlangan osiy qutulolmaydigan bu silsilayi samoviy naqadar buyukdir, yo Rabbim!..

Mast-u mustag'riq zarbalari bilan ruhning eng teran nuqtalarini-da ezib-zadalagan, qalbning eng hassos torlarini nozik chertkisi bilan cherta-cherta uzib parchalagan bir ishqqa bo'ysunmaslik... — oh, bu osonmi? Xususan, yosh bir yigit uchun-a... Yo'q. Ana, Temur ham bu beomon gurzining zarbalari ostida ezilib, bo'yni bukilib, dunyo ko'rgan, tajribali O'g'uz Arslon qarshisida zir-zir titrab turibdi...

Ruhining eng yarali nuqtasini ochishi kerak...

Bu yarani teshmoq esa ishq iztiroblarining abadiylashtirib qolish xavfi va qo'rquvini tug'dirmoqdaki, bu Temurga ma'qul emas. Shu bois u ne deyishini bilmas, unsiz turardi...

– Nima bo'ldi o'zi, bolam? – deya chol undan so'radi.

– E, hech...

– Tuzukmisan o'zi? Juda tashvishli, qiynalgan ko'rinasan? Boshingga bir ish tushgan, shekilli. Qanchalar qo'rqmas, kuchli, arslonyurak bo'lsang ham, tajriba va tadbirsiz muammolarni hal qilish qiyin. Qani, nima darding bor, menga ochiq aytaver, bolam.

– To'g'ri, ehtimol, meni tajribasizligim ezayotgandir. Meni qiynab, ichimni yeb bitirayotgan dardni sizga albatta aytishim kerak...

– Yasha, bo'tam, qani, ayt. Tajriba turli jumboqlarni yechishda sarflanadigan kuch-quvvatdan ham muhimroqdir.

– O'tgan kungi janjalni eshitdingizmi? Anavi, vazir Qizg'inning qizi O'ljay Turkan tufayli chiqqan urush... Ulug' vazir bir shart qo'ydi, Xuroson kalitini kim unga keltirib bersa, qizi o'shaniki emish. Endi allaqancha yigitlar Xurosonga yaqinlashuvimizni kutishmoqda, men ham... Shu ishni hal qilishning yo'li bormikin? Agarda mendan oldin boshqa birov kalitni vazirga keltirib bersa, u holda o'lganim yaxshiroq...

– Bolam, bu dardning ikki chorasi bor: biri – bu ishqdan voz kechish, ikkinchisi – kalitni qo'lga kiritish. Bilaman va aminmanki, ishqdan voz kechib, so'ngra uning alamiga chidash juda qiyin. Demak, bu yo'l ma'qul emas. Undan ko'ra ikkinchi choraga bosh urmoq uyg'undir. Bu ish tajribali odam ko'zi bilan qaraganda oson ko'rinsa ham, aslida, ancha mushkuldir...

– Osonmi, qiyinmi, menga baribir. Axir alamdanda og‘ir emasdir, otaxon, yo‘lini ayting!

– Bu ishini bajarish uchun, birinchidan, bu yerdan tezda yo‘lga chiqish va qo‘shindan oldin Xurosonga yetib borish kerak. Ketganingni hech kim bilmasligi uchun men seni kasal bo‘lib qoldi, deya gap tarqataman. Sen Xurosonga yetiboq, darvoza qorovuli kunda-shundasiga aylangan choyxonaga borasan. Qorovul laqma, mag‘zava odam. Oldiniga uning ezmaligiga chidab, gapini eshitib o‘tiraverasan – bu unga yog‘day yoqadi. So‘ngra choy, qandqurs bilan siylab, u bilan yaqinlashib olasan. Bir necha kun o‘tgach, Saidali degan bir odamga tepadan turib kalit tashlagin, deya qo‘liga oltin to‘la hamyonni qistirasan. Keyin Saidalining qal‘aga kelishini va kalitni olishini kutib, berkinib turasan. Saidali qorovuldan kalitni olgach, uni o‘ldirasan va kalitni egallab, qo‘shinga qarab otingni uchi-rasan... Qani, bir ko‘rayin-chi, arslon bolam, sen kim ekan-san? – deya maslahat berdi chol.

– Men barlos yigitman! – dedi Temur.

* * *

Saidalini bitta kalit deya o‘ldirishni Temur o‘z qahramonlik ruhiga singdirolmadi; uni olishuvda mag‘lub etib, kalitni oldi-da, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Hushsiz yiqilgan Saidali qal‘a devori tagidagi bir burchakda uzoq yotdi.

Tepada kalitni kuta-kuta toqatsizlangan qorovul pastga tushdi va boshqa kalit bilan darvozani ochib, burchakda yotgan Saidaliga ko‘zi tushdi. Hushsiz yotgan yaralangan Saidali anchagina qon yo‘qotgandi.

Qorovul uni quchoqlab ko‘tardi-da, ichkariga olib kirib, o‘z xonasiga yotqizdi. Uning yarasini yuvib, bog‘lash

uchun xotinidan ko'mak istadi. U titrab-qaqshar, qal'a kaliti yo'qolganini anglaboq, esi chiqib ketgandi.

Kalitni topishi shart. Shuning uchun ham Saidalini joniday asraydi, hech kimga ishonmaydi endi. U o'ziga kelishi bilan kalit qayerdaligini, nima bo'lganini so'raydi. Voqeani sir tutishni, hech kimsaga og'iz ochmaslikni tayinlaydi...

Saidali hamon boshidan o'tgan dahshatli holat ta'sirida edi. Rosa toliqqandi. Yarasi ham bita boshladi. Ammo hech o'ziga kelolmayotgandi. Ko'zi uyquga ilindi deguncha tush ko'rar, tushida qorong'ida o'ziga hujum qilgan kimsaning tovushini takror tuyar, u: „Men darvozadan kirishim kerak!“ – deya uni qo'rqitardi.

Xullas, kutilmaganda boshiga kelgan o'sha kulfat va siqilishlar tufayli Saidali hech o'nglana olmayotgandi. Ruhsizligi uchunmi, yarasi ham bitay demasdi...

Turli dori-darmon va davolashlardan keyin, nihoyat, u biroz o'ziga keldi. Qorovul darhol undan:

- Kalit qani? – deb so'radi.
- Bilmayman. Men qayerdaman o'zi?... – dedi kasal.
- Senga nima bo'lganini bilmaysanmi hali?
- Yo'q.
- Men seni qal'a darvozasi yonidan topdim. Burchakda yotgan ekansan... Eslaysanmi?
- Ha, men... E, kalit qani? – dedi Saidali dovdirab.
- Sen mendan kalitni so'raganding, to'g'rimi? – dedi qorovul.
- To'g'ri.
- Men senga kalitni tepadan tashlagandim...
- Ha, kalitni olganimni eslayapman... O'shanda yonimga bittasi keldi... Men bilan birga ichkariga kiraman, dedi...
- Keyin-chi?

– Men ko‘nmadim. Kalitlarni tortib olmoqchiydi, bermadim...

– Juda yaxshi! Keyin nima bo‘lganini eslaysanmi?

– U kiyinishidan o‘g‘riga o‘xshagan, qaroqchisifat kimsa edi... U birdan tashlanib qoldi, men ham qilichimni sug‘urdim...

– Yaxshi... Attang, nega menga xabar qilmading, axir odam degan hech qursa tepaga qarab baqiradi-da!.. E, mayli, bo‘lar ish bo‘pti, keyin nima qilding?

– U ham qilichini yalang‘ochladi, olisha ketdik. Juda o‘tkir qilichboz ekan. Meni oldiniga qo‘limdan... keyin sonimdan, so‘ngra boshimdan yaraladi. Hushimni yo‘qotibman, keyin nima bo‘lganini eslay olmayman.

– Men bu yerda seni kutdim, kelavermading. Baqirdim, chaqirdim, hech kimsa javob bermadi. Oxiri darvozani ochdim, qarasam, burchakda yotgan ekansan. Ichkariga olib kirdim...

– Atrofni qidirmadingmi, haligi odam biror narsa tushirib qoldirmaptimi? – deya so‘radi Saidali.

– Yo‘q, qaramadim. Ertaga tekshiraman, – dedi qorovul. – Ha, u ichkariga kirmadimikin? Husayn Kurt qal’a kalitlarining yo‘qolganini eshitsa bormi, meni o‘ldi deyaver!.. Ertaga vaqtli turib tevarakni bir tintib chiqaman. Ha, u kimsa yurak yutib ichkariga kirolmas-ov...

– Juda to‘g‘ri!..

– U holda, demak, agarda kalit yo‘qolgan bo‘lsa, buni mendan boshqa faqat siz bilasiz. Holbuki, sizni deb men shu jinoiy ishga qo‘l urgandim. Ikkimiz ham aybdormiz. Berilishi taqiqlangan narsaning olinishi ham jinoyatdir. Bu voqeani hech bir kimsaga bildirmang! Men u kalit o‘rniga yangi bir kalit yasattiraman, yopig‘liq qozon yopig‘lig‘icha qolaveradi. Shunday qilib, men ham yeb turgan nonimdan

ajralmayman, sizning jinoyat qilganingizni ham kimsa bilmaydi. Kasalligingizga biror jo'yali bahona o'ylab toparman. Kelishdikmi?

– Kelishdik. Gap bitta!

– Bo'ldi, ko'nglimning tinchishi uchun shu so'zingiz yetarli. Endi qalaysiz?

– Yaxshiman, Xudoga shukr.

– Boshingizdagi jarohat og'irmi?

– Ha, shunaqa shekilli, boshqa yaralarimga qaraganda qattiqroq og'riyapti.

– Ha, boshqa yaralaringiz unchalik emas...

– Ha, endi peshana ekan-da...

– Qayg'uravermang, ikki-uch kunda tuzalib ketasiz.

– Inshoolloh.

– Xudoyi taolodan bitta tilagim bor – shu kalit topilsaydi, ishqilib.

– Xudo xohlasa, topilib qolar.

– Haligi o'g'ri urib ketgan bo'lsa, qanday topamiz axir! – deya yana qorovulning fig'oni falakka chiqdi.

– E, qo'ysangiz-chi, biz yangisini yasattiramiz.

– Zotan, shunga qaror qildik-ku.

– To'g'ri, to'g'ri!..

Qorovul erta tongda atrofni tintib chiqdi. To'kilgan qonlarni yuvdi, qirtishladi, izlarni yo'qotdi. Ammo kalit topilmadi.

Ertasiga tong otishi bilanoq ikkovi hayajonli suhbatga berilishdi.

– Atrofni turklar o'rab olganmish...

– Qanday qilib, nega?

– Husayn Kurt hazratlari ularning yurtiga bostirib borgan edi-ku...

– E, ha, shungami?

- Ha, ular ham endi Xurosonni bosib olisharmish.
- Ey-voh, kunim bitibdi!
- E, qo‘ysangiz-chi, vahima qilmang.
- Bilmaysizmi, turklar xastalarga tegmaydi, bu ularning eng muhim odatlaridan. Qari-qartang, xotin, bola-chaqalarga ham.
- Ha-a-a. Men-chi, urushmay yotaveramanmi?
- O‘z joningizni o‘ylasangiz-chi, urush bo‘lsa, tuzalganingizdan keyin ham qochmas.
- O‘h-h! Yo rabbiy!..
- Ha-ha, ishlar shunaqa. Sen, men va xotinimga qi-yin. Chunki sen kasal, men qari, anavi xotin kishi bo‘lgani sababli vatanimiz uchun urushmoqdan mahrummiz, ey-voh... – dedi qorovul.
- Afsus, afsus... – deya kasal ham qayg‘urib qo‘ydi.
- E, mana shuning uchun ko‘p xafaman-da.
- Qo‘y, ezilaverma. Ha, turklar bunda nima qilarkan o‘zi, bilmaysanmi?
- Yo‘-o‘q, sen aytmasang men qaydan bilay.
- Bu yerda to‘y qilarmishlar-ku?
- Shu yerda-ya, ichkari kirib, shuncha mol-holni talab olganlaridan, shuncha odamni qirg‘in qilgandan keyin, a?
- Aytdim-ku axir, ular o‘zlariga qarshi chiqmaganlarga tegishmaydi.
- Qarshi chiqqanlarni nima qilishadi?
- Boshini kesadilar.
- Qanaqa to‘y qilisharmish o‘zi?
- Qiz chiqarisharkan.
- Kimni?
- Ulug‘ vazir Qizg‘inning qizi O‘ljayni.
- Kimga berishyapti?
- Temurga!..

III. DAHSHATLI HUKM

Oradan uch kun o'tdi. Xurosonning pastqam ko'chalaridan biridagi vayrona, xarob uyda bir necha kimsa to'plangan. Tashqaridan turklarning sevinchli na'ralariga, valine'matlari vazir Qizg'in bergan to'y nash'asi bilan bir ovozdan qiyqirishlariga qarama-qarshi o'laroq bu yerda yig'ilganlar ruhidagi g'ayirlik, kin-u adovat, ko'zlaridagi o'ch diqqatni jalb etardi.

Temurning shartni bajarishi, to'y-u bayrami kimlardir uchun motamga aylangandi. Bu xursandchilikdan raqiblar noxush edi, ular intiqom o'tida yonib, bu yerto'landa jamlanishgandi. Ichlaridagi hirs va hasad tomirlarini yorib chiqib, zaharli nayrang yiringlariga aylanib o'rtaga to'kilmoqda edi.

Haqqa va haqiqatga rozilik ko'rsatish o'rniga unga qarshi turishmoqda, hatto uni yo'q qilish uchun birikishib, guruh tuzishmoqda, voajab!

Yig'ilganlarning har biri foydasiz intiqom otashida qovurilardi. Ruhlari jahannam zaboniylari kabi g'addor, qalblari shaytoni rajimday zolim va o'zlari haq-u haqiqat nurlariga qarshi bosh ko'targan osiylar edi.

Yuzlariga boqilsa, mirshablar basharasidagi sovuq dahshatdan boshqa narsa ko'rinmasdi. Faqat badnafslilikning – nafsi ammoraning tajassumiga aylangan bir timsoli mal'uniya ko'lkasi bor. Qalblaridagi iymon ilohiy qudrat tarafidan olib qo'yilganmikin, deb o'ylaysiz. Ko'zlarida zarracha shafqat hissi, ong-u tushunchalarida urvoqcha hamiyat tuyg'usi, so'zlarida zig'ircha bo'lsa ham adolat fikri sezilmasdi...

Yig'ilish o'tayotgan yer binoning yerto'lasini bo'lib, qorong'i va rutubatli edi. Yerto'laning ko'chaga qaragan

tomonida ham, boshqa taraflarida ham deraza yo tuynuksimon biror teshik yo'q. Qop-qorong'i xonadagi bir xontaxta tegrasiga cho'kkan fitnachilarning hasad va hirs to'la yuzko'zlari xira sham yog'dularida arang-arang ko'rinardi.

Bu zulmat va zax oxirda o'tirganlarning ajin bosgan tirish yuzlarida ruhlariga azob bergan hasad-u kin xastaligining tasviri muhrlanganday. Shaytanat egallagan dillari-da nadomat yo pushaymonlik hislariga o'rin qolmagan. Iblisona qiyofalaridagi qo'pollik va shafqatsizlik shundoqqina ko'zga tashlanib turardi.

Barchalari Noqis nomli amirlari buyrug'iga qat'iy bo'ysungan holda bu yerda majburan o'tirganlarini pisan-da qilayotganday g'o'ddayishgan; qilt etmasdan uning so'zlariga quloq solishmoqda. O'zlarini uning har qanday buyrug'ini so'zsiz bajarishga bag'ishlaganlaridanmi, ixtiyorsizlikdan ruhlari ezilgan, yelkalari cho'kib, qahrdan qunishib o'tirishardi.

Intiqom alamiga to'la ko'zlaridagi hiddat va vahshat otashi hech so'nmaydiganday jonlarini o'rtab-kuydirmoqda, yongan jonlarining o'tli parchalari go'yo atrofga dahshat bo'lib sochilmoqda edi.

Bu yoniq dahshat parchalari qorong'ilikda xuddi mushukning ko'zlari kabi yiltillab ko'rinardi; ammo, ming afsuski, bu shaytoniy yiltillashlar ularning ruhidagi ulkan zulmatni yorita olmaydigan darajada kichik va zaif edi.

Bu majlisning ahvoli ruhiyasi shundayin tuban, dahshatli, iblisona fitnaga to'la. Qo'rqinchli, sovuq sukunatni buzib, ilk bor so'z boshlagan kimsa shunday dedi:

– Xo'p, modomiki u g'olib keldi, bo'lar ish bo'ldi. Ammo biz nechun undan o'ch olmasligimiz kerak?

– Iye, og'ayni, uning nima aybi bor? Biror yomon ish qildimi yo? – dedi boshqa biri. – Agarda u emas, oramiz-

dagilardan biri g'olib chiqsaydi, u ham bizga o'xshab o'ch olishni o'ylarmidi?

— U holda, menimcha, o'lishi kerak bo'lgan boshqa kimsadir! Ayb oluvchida emas, beruvchidadir.

— Yo'q! Menga qolsa, bu vaziyatda ayb oluvchida ham, beruvchida ham emas. Asl gunoh berishga mahkum etgan quvvatdadir...

— U holda?..

— U holda, hukm etgan u ekan, demak, jazosini tortadigan mal'un ham o'shadir!

— To'g'ri!

— To'ppa-to'g'ri!..

— Unda kengashni davom ettiramiz va asosiy ishni hal qilaylik.

— Qani, qani...

— Uni biz chekkan amlarning eng og'iriga bostirib o'ldirish kerak! Bizni yondirgan alamning eng zaharli o'tida kuydirib o'ldirish lozim! Qani, ayting, qanday jazo beraylik?

— Oldiniga uni bir qoziqqa bog'lab, qulog'ini, bir kun oralatib burnini, qo'llarini, oyoqlarini kesish va och qo'yish kerak!..

— E, bunaqasi ketmaydi, mumkin emas!

— Nega?

— Buning uchun avvalo uni qo'lga tushirish, ya'ni yashirincha olib qochish kerak, biroq bu ish imkonsiz...

— To'g'ri... bu imkonsiz, bunday qilib bo'lmaydi.

— Unda o'zingiz aytib qo'ya qoling...

— Menimcha, eng ma'qul yo'l shu: kechasi chodirini bosib, uni o'ldirib, bilintirmay qochib qolish kerak.

— Ko'p yaxshi! Faqat biz istardikki, tez o'lib qutulmasin-da, qiynalib o'lsin!

– Qo‘ysangiz-chi, do‘stim, qiynab-piynab o‘tiradimi, o‘lsin-yo‘qolsin-e!

– Yo‘-o‘q, gapimiz gap: u qiynalib o‘lishi kerak! Axir biz u tufayli jahannam azobini tortdik-ku, ungayam to‘qqiz do‘zaxni ko‘rsatib qo‘yish kerak!..

– Unda odamlarimiz bilan uni bosib, tutaylik-da, maydonga olib chiqib, rosa azoblab o‘ldiraylik!

– Hay-hay, o‘zingizni bosing! Buning hech iloji yo‘q! Hozircha isyon boshlaganimizni sir saqlashimiz lozim. Deylikki, uni tuta olmadik va sirimiz ochilib qoldi – unda boshimiz ketadi-ku axir!.. Shuning uchun, yaxshisi, har ishni imi-jimida bitira qolaylik.

– Ma‘qul, unda bu ishni bajara oladigan kishini tanlashimiz darkor. Kimning qo‘lidan keladi, qani? Ichimizdan kim bu ishni bo‘yniga oladi?

– Men yuzma-yuz urushaveraman-u, shu, xanjar urishda mashqim pastroq...

– Men ham shunaqa...

– Sen-chi?

– E, nima qilamiz? Bu ishni birimiz bajarib, boshqamiz qarab tursak, bunaqasi ketmaydi!

– Ha, men bir narsani o‘ylab topdim. Baringizga yoqadi bu. Anavi devorni mo‘ljallab o‘q otamiz, kim nishonga urolmasa, bu ishni o‘shanga topshiramiz. Bo‘ladimi?

– E, yashavor, bo‘ldi! Agarda ikki-uch kishi mo‘ljalga urolmasa, o‘zaro yana sinashadilar.

– Hech kim nishonga tekkizolmasa-chi?..

– Sinash takrorlanadi.

– Bo‘ldi, kelishdik.

Shu qarorga kelingach, yig‘ilganlarning bari o‘rnidan turdi. Yoylariga o‘q joylab, devorga qarata mashq sifatida bir-bir ota boshlashdi...

Barchani hayajon bosgandi. Boshida og'iz ko'pirtirib so'zlagan qahramonlar endi tulki kabi pisib qolgandilar. O'zlarining yaxshi o'qotar ekanliklariga ishonsalar ham, mabodo falokat bosib nishonga urolmasam-u, shu ish menga qolsa nima qilarkinman, degan qo'rquv ko'ngil-larga oralagandi va birinchi bo'lib boshlashga hech kim shoshilmayotgandi.

Nihoyat, bir yigit o'rtaga chiqdi, barcha uni olqish-ladi. U yoyini kerib, qo'yib yubordi, o'q nishonga tegdi. O'qchi g'alaba na'rasini otarkan, qalbidan toshgan sevinch to'qinlarini bosish uchun chetroqqa o'tdi.

Ikkinchi... uchinchi... navbati bilan o'q uzish davom etmoqda edi.

Oxiri ulardan bittasi – juda quturib, gunohkorni rosa qiynab o'ldirish kerak, deyayotgan yigit mo'ljaldan yang-lishdi. Undan keyin barcha o'q otganlar nishonga urdi.

Shunday qilib, fitna majlisi ham tugadi, bo'lajak qo-til ham aniqlandi. Endi qanday o'ldirishga kelishilsa, bas. Yig'ilganlar yana kengasha boshlashdi.

Bo'lajak qotil esa ularga aralashmas, bir chetda so'ppayib, qotib qolgan, qon qochgan sarg'imtir yuzi qay-g'uga botgan edi...

Ishning asosiy qismi hal etilgani uchun yelkalaridagi og'ir yukdan qutulgan yigitlar mamnun holda masalani muhokama qila ketishdi.

– Bu ish qachon bo'lgani ma'qul?

– Qaytish paytida...

– Endi qaror qabul qilindi, faqat, majlisimiz boshida aytilganidek, bu ish juda og'ir, qaqshatqich o'lim bilan yakunlanishi kerak!

– Menga qolsa, buning hech keragi yo'q, undan o'chimizni olaylik-da, kifoyalanaylik...

- Iye, unda qarorimiz qaror emasmi?
- Qaror...
- Bunda necha kishimiz?
- Sakkiz kishi.
- Barimiz shu qarorni sir saqlashga ont ichamiz, ro-zimisizlar? Uni o'ldiradigan og'aynimizdan boshqa ham-ma qasam ichsin!
- Qasam ichamiz!
- Shunday qilib, so'nggi qaror ham qabul qilindi.
- Yaxshi, endi tarqalaylik... – dedi fitnaboshi.
- Shu vazir Qizg'in go'rga kirgandan keyin uning kuyovi nima bo'larkin, qani ko'ramiz... – deya biri tishini g'ijirlatib qo'ydi.
- Ha, fitnachilar tomonidan ikkinchi o'ldirilajak shaxs Temur edi.

IV. QAL'A ICHIDAN ZABT ETILADI

Turkiylarning Xuroson qal'asini o'rab olganlari ha-qida qorovul bilan xasta Saidali so'ylashib o'tirganla-rida, aslida, u ichidan egallanib bo'layozgandi. Chunki o'ttitztacha askar qal'aga kirib, o'z ishlarini bajarishayot-gan edi...

Ularning qal'aga kirishi shunday yuz bergandi. Temur kalitni vazir Qizg'inga topshirgan kuni ertalab undan qabul qilishini so'radi, izn olgach, borib u bilan ko'rishdi. Xuro-sonni egallash rejasi tuzildi.

– Ulug' vazir! – dedi Temur Qizg'inga. – Ruksat etsa-ngiz, avvalo qulingiz o'ttiz askarim bilan qo'shından ajral-sam-da, o'qday uchib Xurosonga yetib borsam...

– Ma'qul. Ammo sizning borishingizdan turklarning kelayotganini sezib qolgan Husayn Kurt tarafdorlari ke-rakli tayyorlikni ko'rib, bizga to'siq bo'lmasmikin?

– Ulug‘ vazir, izn bersangiz yetarli, bu askarlar bilan men kecha qorong‘isida, hech kimsaga bildirmasdan Xurosonga kirib boraman va ularni qal‘aga joylashtiraman...

– Keyin-chi?

– Ertasigayoq qo‘shinga qaytib kelaman va hujumni boshlaymiz...

– Ichkariga kirib olganlar nima qiladi?

– Ular kiyimlarini o‘zgartirib, shaharning har yog‘iga yoyilishadi va turkiylar haqida turli mish-mishlarni tarqatishadi...

– Qanaqa mish-mish?

– Masalan, turkiylar bu yerga kelibdir, ammo ular o‘zlariga tegmaganlarga hech qanaqa yomonlik qilmas emish va zotan, odatlari shunaqa emish, – deya gap tarqatishadi. Yoki: turkiylar Xurosonda qilinadigan bir to‘yga tayyorgarlik ko‘rishayotganmish, to‘y kayfiyatida bo‘lganlari uchun, hech kimning burnini qonatishmoqchi emas-mish, deya ommaning qulog‘ini qizdirishadi...

– Balli! So‘ngra?

– Avomni goh vahimaga soluvchi, goh sevintiruvchi shunaqa gaplar bilan ovutib, laqillatib turishadi-da...

– Natija nima bo‘ladir?

– Qo‘shinimiz jangga kirishi bilanoq ular ham qilichlarini yalang‘ochlab, qal‘a ichida hujumga o‘tishadi, darvozalarni sindirib-buzib, ochishadi va askarlarimizning ichkariga kirishlari uchun yo‘l tayyorlashadi...

– O‘g‘lim, agar sen ularning boshida turmasang, tartib bilan bir ish qilish qiyin. Yaxshisi, sen qal‘ada turib, bir bayroq vositasida qo‘shinimizga hujum ishorasini bersang, so‘ngra odamlaringga darvozalarni buzishni buyursang, ishimiz yanada silliq bitadi deb o‘ylayman.

– Bunaqa qilsak ham bo‘laveradi, otajon. Faqat, o‘ylashimcha, mening qo‘shin bilan birga yurish qilishim

foydaliroqdir. Siz aytgan ishni boshqa birovga topshirsam bo'ladimi...

– Mayli, o'g'lim, bilganingcha ish tutaver! Rejalaring juda maqbul!..

– Bu yerdagi askarlar juda intizom bilan harakat etishlari lozim...

– Ko'nglingni to'q tut, sen aytganingday bo'ladi...

– Eng muhimi, sizlarga bir otliq yuboraman, u aytgan tartibga ko'ra yurish qilinsa bas...

– Qanaqa tartib?

– Uning qandayligi mening qal'a ichida bajaradigan ba'zi ishlarimga bog'liq, keyin bildiraman...

– Juda yaxshi o'ylabsan, o'g'lim. Ruksat, odamlaringni ol-da, yo'lga tushaver!

– Xo'p bo'ladi, otajon!.. – dedi Temur va ulug' vazirga ta'zim qilib, chodirdan chiqa boshladi. Shu asnoda Qizg'inning ovozi qulog'iga chalindi, u:

– Arslon Temur! Men seni mingboshi qilib tayinladim! – dedi...

Ertasi kechki payt Xurosonda, Husayn Kurt qarorgohi atrofida notanish bir yigit aylanib yurardi.

Bu shaxs g'oyatda ehtiyotkor va juda qo'rqq odamday qadam tashlar, ba'zan to'xtab, tegrasiga quloq solar, mumkin qadar imi-jimida harakat qilishga intilar edi. Yelkasida xurjuni ham bor. Diqqat bilan qaragan kishi uning xurjunidagi yuk tobora ozayib borayotganini sezishi qiyin emas...

Biroz yurgach, notanish yigit xurjunini yerga qo'ydi va egilib, izini yo'qotish niyatidami, qo'llari bilan tuproqni tekislay boshladi...

Anchagacha bu ish bilan mashg'ul bo'ldi va nihoyat, xurjunini yana yelkasiga olib, qal'a darvozasi tarafga yo'naldi. Bir muddat o'tgach, xurjun bo'shadi. Ortiga

qaytarkan, avvalgiday egilib, qo'llari bilan tuproqni aralashtirib, yerni tekislab keldi.

So'ngra xurjunni olib, yaqindagi bir uyga kirib, uni to'latib chiqdi. Yarim qolgan ishini davom ettirib, yana qal'a darvozasi tomonga qarab harakat qildi... Ishini bitirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Anchadan so'ng yashirincha haligi ishlarni qilgan notanish yigit yonida bir otliq bilan qal'a darvozasi yoniga keldi. Qo'lidagi kalit bilan darvozani ochdi. Egilishib, otning tuyoqlariga bog'langan kigizlarni yechishdi. So'ngra notanish yigit otliqqa shivirlab, topshiriqlar bera boshladi:

— Dundar, endi sen bilan ajralishamiz. Shu yerdayoq otga osilgan xurjun tubini pichoq urib teshib qo'yasan...

— Xo'p bo'ladi, mingboshi! Keyin-chi?

— O'ngdagi xurjun bo'shagach, chapdagi xurjun tagini ham teshasan.

— Bosh ustiga, mingboshi!

— Xurjun ichidagi qayerda tugasa, o'sha yerga belgi qo'yasan-da, qo'shinga qarab ot choptirasan...

— So'ng vazir Qizg'inning huzuriga kiraman...

— Shunday! Unga qo'shinga yurish buyrug'ini berishini va o'rduning belgi qo'yilgan maydonga kelib kutishini aytasan.

— Bosh ustiga!

— Qaynotam, muhtaram qo'mondonimizga hurmatimni bildir va aytganlarimni to'la yetkaz!

— Buyrug'ingizni bajaraman! — dedi va otliq xurjunni teshib, yo'lga tushdi.

Notanish yigit qo'lini cho'ntagiga suqib, nimalarnidir oldi va ilgari to'xtagan joyidan otliq jo'nagan yergacha ularni ko'mib, tuproqni izlar bilinmaydigan qilib tekisladi.

Bu shoshilinch ishlar bitgach, endi bu makonda o'zi qiladigan ish qolmagani uchun darvozani berkitib, kalitni qo'yniga soldi-da, yo'liga ketdi.

* * *

Shu voqeaning ertasiga ertalab butun Xurosonga mish-mish tarqalib, aholini hayajon bosdi.

Xuroson bozorlarida, choyxonalarida odamlar urushga tayyorgarlik haqida vahimali so'zlarni aytishar, turli mish-mishlarni takrorlashar edi:

– Voy-bo'y! Turkiylar hamma yerni o'rab olganmish...

– Askari juda ko'p emish, o'zimizni qachongacha himoya qilarkinmiz, a...

– O'lguncha...

– Ular o'ldiraveradilar, o'ldiraveradilar...

– E, o'ldirsa o'ldirsin!

– Bundan senga nima foyda? Kafandan boshqa senga ne tegardi?

– E, bo'lganicha bo'lar.

– Balki, kafan ham tegmas.

– Nega?

– Chunki turklar urushda o'lganlarni kafanlashmaydi.

– Nima bo'lganda ham biz vatanimizni mudofaa qilaveraylik-chi...

– Menga qolsa, mudofaa-pudofaani o'ylamagan yaxshi, o'lishga shoshilish aqldan emas.

– E, og'ayni, hammaning joni ham jon, nima, turklar bizga o'xshagan odam emasmi?

– Bizga o'xshaydi-ku, ammo farqi bor-da: bizlar zaif, ular kuchli.

– Nima bo'пти?

– E, qo'limizdan hech narsa kelmaydi!

— Hech narsa kelmaydi emish! Vatanimiz uchun o'lish ham qo'limizdan kelmaydimi?

— Qanchalar vatanparvarlik qilsang-da, boshqalar ne ham derdi? Seni urg'ochisini qo'ldan chiqarmaslik uchun tirishgan arslonga o'xshatadi, xolos, shu.

— Bu gaplarni qo'y. Xo'sh, turkiylarning bu yerda nima ishi bor deb o'ylaysan?

— Iye, og'ayni, turklarda ne gunoh, axir bizning Husayn Kurt ularga hujum qildi-ku, endi ular ham javobini qaytar-moqda-da.

— Hm-m... Sen mudofaa tarafdorimisan?

— Balki, mudofaa qilish kerakdir, faqat o'lguncha emas.

— To'g'ri aytasan.

— Ana, gaplashganimiz yaxshi bo'ldi. Sen ham menga o'xshab o'ylarkansan.

— Zotan, shunday o'ylashga majburmiz. Ammo urush-ga kirgandan keyin, biror daydi o'q tegib qurbon bo'lsang, bunga ham ko'nish kerak, axir vatan uchun o'limdan qo-chish ayb-da!

— Holbuki, mag'lubiyat muhaqqaq!

— Unda jonga qasd qilmagan ma'qul. O'lib ketishdan kimga foyda axir.

— Avval aytganimday, bu vaziyatda turkiylar haqli: biz-niki ularga hujum qildi, ular javob bermoqda, demak, haq ular tomonda bo'lgach, mag'lubiyatimiz ham aniq!

— Ha, sendan turklar bu yerda nima qilishmoqchi, deb so'ragandim...

— O'ljay Turkanning to'yini o'tkazishar emish.

— Keyin-chi?

— Bilishimcha, keyin qaytib ketadilar...

— Shuncha ovoragarchilikdan nima foyda bor?

– Agarda tutib olishsa, Husayn Kurtning adabini berib qo‘yadilar. Tutilmasa ham, g‘oliblik ularga katta mukofot...

Bular suhbatlashib turisharkan, tushlik payti ham bo‘lib qolgandi. Birdan qal’ada katta to‘polon, shiddatli taraqa-turuq boshlandi, omma iniga cho‘p suqilgan arilar-day har tarafga to‘zg‘ib qochdi, bir zumda shaharda qi-yomat qo‘pdi. Yaralangan, yiqilgan, ezilgan, ingragan, yig‘lagan aholining parishon holidan turklarning qilichi solgan qo‘rquvdan – Xurosonning ruhi singani ko‘rinib turardi.

Bu to‘s-to‘polon qaydan chiqdi, bu vahima qaydan kel-di, bu mahsharni kim keltirdi o‘zi?..

* * *

Temur qal’a ichidagi bir uyni nishonga olib, uni port-latish uchun yer ostidan lahm qazib, uni tashqariga, dar-voza yonigacha kelgan bir nuqtaga tutashtirgan edi. Bu nuqtani esa qo‘mondon Qizg‘in qo‘shini qo‘r to‘kkan maydonga ulagan edi. Bu yashirin portlatish yo‘liga borut to‘kib chiqilgandi. Unga o‘t berilgach, kutilmaganda dar-voza atrofini, qal’a ichkarisini portlash gumburlari qopladi, chaqmoq tushib, uylarni yoqqanday bo‘ldi; Husayn Kurt-ning odamlaridan allaqanchasi o‘ldi.

Temur qal’a kunchiqari burchagidagi bir tepaga chiqib, qo‘lidagi bayroqni hilpiratdi. Bu qo‘mondon Qizg‘in qo‘shiniga bir ishora edi. Shu onda qo‘shin turgan yerdan bir o‘t yonib, ilonday bilanglab, o‘qday uchganicha qal’aga qarab yo‘naldi va bir zumda shaharga tushdi.

Portlash yo‘llarining iplari o‘rgimchak to‘riday sha-harning barcha darvozalariga va ulardan yana cho‘zilib ke-lib maydondagi nishonga bog‘langandi. Maydondagi katta portlash har yoqni ostin-ustun qilib yubordi...

Ha, Xuroson ahlining endi-endi mudofaa tayyorgarligini ko'rayotgan paytda, kutilmaganda yuz bergan bu mudhish voqeaning sababi, aslida, Temurning yarim kechasi hozirlagan portlatish yo'li va unga Qizg'in qo'shini tomonidan o't berilishi edi.

Nima bo'lganini xalq bilmay qoldi, portlash shaharda qiyomat qo'pganday vahima uyg'otdi.

Urush ham bir qiyomat emasmi, aslida? Bir qism gunohkor banda o'zini qutqarolmaydigan darajada ojiz-umag'lub va bir qism zavolli esa – qurollangan va g'olib!.. Mahshar shu emasmi? Bir tarafda mamnun va mas'udlar, bir yoqda esa mahkum va giryonlar!..

Temurning ikkinchi ishorasidan so'ng kamoli shavq-ushiddat bilan qurollarini taqib, otlariga minishib, Xuroson qal'asiga dovulday yopirilgan turkiylar o'zlarining zafar qozonishlariga amin edilar. Ularning o'qiga uchganlar, nayzasi va qilichi zarbidan o'lganlar, otlari tuyoqlari tagida ezilib, yerda yumalab yotgan mag'lublar... Bu taloto'pda esidan ayrilgancha jonini asrash uchun har yoqqa qochayotganlar, jasadlarni bosib, qon kechgancha yugurayotgan falokatzadalar... barchasi tinimsiz yugurmoqda, yo'l-yo'lakay urushmoqda, olishmoqda, yiqilmoqda, o'lmoqda, qochmoqda... Xullas, vahimali bir oh-u faryod, qonli bir dahshat to'la fojiotki, ko'z bilan ko'rish, biror so'z bilan tasvirlash inkonsiz...

Bu paytda darvoza qorovuli bilan yarador Saidali uydan tashqariga chiqmasdan, nima bo'lishini kutib jim o'tirishardi. Bir necha jangchi ularning makoniga ham bostirib kirdi. Ichkarida bir bechora xotin va yaradorni, taslim bo'lgan qorovulni ko'rishdi.

Ularga hujum qilish turkiylar odatiga yotligiga qarag'andan, ba'zi marhamatsiz askarlar bosqin va talon qilish-

di. Uchallasini ham bog'lamoqchi bo'lib turishgandi, shu asnoda orqadan bir tovush eshitildi:

– Turkiylar urush payti kasallar-u xotinlarga, bolalar-u qarilarga tegmaydirlar. Sizlar nima qilmoqdasi?!

Askarlar tovush kelgan yoqqa qarashdi. Barchasi shalvirab, qo'llari yonlariga osilib qoldi va mulzam holda salom berib, unga:

– Kechiring, ulug' mingboshimiz! – deya xitob etdilar.

V. KUNDUZI URUSH, KECHASI TO'Y

O'sha kuni asr payti Xuroson zabt va asir etildi. Shahar tozalandi, tartibga solindi, o'liklar ko'mildi.

Shu kechasi hech kimsa uxlamadi.

Bu tunda vazir Qizg'inni o'ldirishga hukm etgan sakkiz isyonchining qarori amalga oshirilishi kerak.

Bu oqshom Xurosonning ishg'ol etilgan eng ulkan, hashamatli saroylaridan biri to'yxonaga aylantirilgan va ziyofat boshlangan edi. Atrof yop-yorug', ziyoga g'arq; oy yog'dulari go'yo bu to'yni bezamoqda; go'zal, ochiq yuzli mohitob go'yo fol ochib, tolening kulib boqayotgani-ni bildirayotganday, Temurning porloq kelajagidan xabar berayotganday.

O'rtadagi gulxanlar shunchalar chiroyli yonardiki, osmondan qaralsa, yer samoga o'xshab ketardi. Gulxanlarning har biri bir porloq yulduz kabi yonar, to'yxona esa oy misoli yorqin va munavvar edi... Atrofda kuy-qo'shiq yangrar, tantana ohangi, shavq-u tarab, nash'ali ko'klam havosi hukmron edi. Barcha qo'mondonlar vazir Qizg'in-ning qizi kelin bo'lgan bu kechada nihoyatda xursand, qo'ldan kelgancha o'yin-kulgi qilib, to'yni qizdirishga intilishardi. Ularning suhbatlarida, samimiy o'tirishlarida turk xalqining ulug' va sodda tabiati ko'rinib turardi. Ular

orasidagi yaqinlik va samimiyat to'y tufayli yanada jonlanganday, yuksalganday edi.

Temur sevgilisi O'ljay Turkanga qovushgan bu kechada, to'yning surur-u zavqidan ta'sirlanibmi, tonggacha uxlay olmadi. U xayolan bor-yo'g'ini sevikli yoriga baxsh aylar, uning go'zalligi bergan bu purnur, nashidali soatlarining har bir oniga o'z hayotini hadya etar va yana madh-u tavafida judayam ojiz qolgani O'ljay Turkan go'zalligi ko'kiga termila-termila uning porloq yulduzlarini sanamoqqa boshlar va ulardan o'ylarida bir guldasta yasar edi...

Qalbining eng mahram nuqtalaridan to'lib-toshib chiqqan muhabbat tuyg'ularini hayajon bilan suyganiga anglatarkan, bu orada jang-u jadallarni, o'z qahramonliklarini hech tilga olmas, faqat ishqdan, faqat hissiyotdan, val-hosil, yolg'iz o'zidan, ruhidan so'zlar edi.

– O'ljay, – derdi u, – senga bo'lgan sevgimning bergan alami qanchalar ayovsizligini bilasanmi?

– Bilmayman...

O'h-h, bilmaysan, shundaymi?.. Yuragimda saqlagan ishqimni bilishing, his etishing uchun, avvalo, seni undan xabardor etishim kerak edi. Holbuki, men senga buni bildirmadim. Sen meniki, faqat o'zimmiki bo'lganingdan keyin ko'nglimni ochaman, deya o'ylagandim...

– Endi men seniki bo'ldim, to'g'rimi?

– Ha, Turkan, ha! Endi sen faqat menikisan!..

Temur bu so'zlarni aytarkan, jo'shgan ruhining, yong'an qalbining haroratiga chiday olmadi va go'zal malagini quchdi, so'ngra boshini uning tizzasiga qo'yib, yuragini ko'rsatib:

– Men ham seniki! – dedi. – Tongda, shudringli chamanlarda o'tirgan paytlarimda bulbullar sayrarkan, ular sening go'zalligingni kuylayapti, deya rashk qilardim! Of-

tobning maxmur yuzidan oqqan xandali, gulgun yog'dulari sening nozik chehrangga aziyat beradi, deya senga, sening parilarnikidan ham yumshoq va latif badaningga harorati savdosila xiyonat etadir, deya o'rtanib-qizg'onardim!..

Guldagi gulgun latofat sendan o'g'irlangandir, deya oy o'zidagi oydinlig-u soflikni sendan olib aks ettirayotir, deya, bahordagi yangidan jonlanish, tirilish sening diydoringdan hosil bo'lgan deya qizg'anardim...

Bular va butun olam sening go'zalliging tufayli go'zallashayotganini va bundan o'zimning mahrum ekanligimni ko'raturib, ko'p xafa bo'lardim, yig'lardim... Urushdan, g'avg'odan, jang-u jadaldan hech qaytmagan, seskanmagan bu qattiq ko'nglim sening savdoyi ishqing zolimligi qarshisida titrab, ojiz qolaverardi...

Tasavvur etki, tiz cho'kkanicha Tangrisiga yolvorayotgan bir gunohkor vaziyatida edim... Mana shunday, Turkkan, sening uchun, faqat sen uchun men bu alam ostida har kuni ezildim, yillarcha iztirob chekdim... sening yuzingni ko'rolmaslik menga eng og'ir jazo edi. U jazoni chekkan paytlarimda, o'sha azobli hijron zindonida bo'g'ilgan zamonlarimda qalbidagi faryod va iztirob, ruhimdagi afg'on-u og'ular ko'ksimni yoqar, qovurar, o'zligimdan, o'zimdan zarracha bir narsa qolmas va men butunlay senga aylanib qolardim va faqat seni o'ylardim...

— Nega?..

— Nega? O'h-h, jonim, nega, nechun? Qalbm chamani-dagi alamlar, ishqlar, ruhlar tarannum etgan jonim bulbulining pinhona hijronini sening u tovush yetmas qulog'ingga eshittira olmaganim uchun! Ishqim dengizidagi ayriliq to'lqinlarining zarbalari ko'nglimni yaralagan daqiqalarda kimsasiz, umidsiz, imkonsiz qolganim va bechora ruhimdagi qiynalishlarni senga, sening ruhingga sezdira

olmaganim uchun! Borlig'im osmonini qoplagan bulutlar orasida o'rtanarkanman, oydek yiroq yuzingni ko'rmoq ishtiyoqida yig'lagan ko'zlarimdagi hijron dardini senga bildirib olmaganim uchun!..

Nechun deysanmi? Zulmati hijronda ojiz qolganim uchun!

Nechun deysanmi? Bekasligim uchun!

Nechun deysanmi? Sensizligim uchun!

— Mana endi menga ega bo'lding...

— Ha! Senga yetishdim va qalbim chamanidagi ruhim bulbuli o'z sirli qo'shiqlarini senga aytmoqda endi. Xotiralarimni senga so'ylamoqdaman. O'h-h, xiralashgan ko'zlarim visoling nuri bilan to'lib, avvalgiday porlay boshladi endi! Endi yuragimdagi qayg'u o'rnida gullar ochildi. Undan ingroqlar emas, shavq-u surur sadolari yukalmoqda. Ko'zlarimdagi sof ishqning shaffof yog'dulari senga, sening qarashlaringdagi nurlarga borib tutashmoqda... Shunday qilib, oradagi butun hijron azoblari bitdi, visolning yorqin kunlari kelib yetdi! Qalbidagi qora, mazlum bulutlar qolmadi, ruhimdagi jahannamiy otashlar so'ndi, ishqimdagi zindon havolari tarqaldi, ko'ksimdagi savdo zaharlari yo'qoldi va bularning bariga sabab sening porlagan tole oftobing, sening diydori husning...

— Demakki, endi eski g'am-alamlaring yo'q; demakki, bu kecha baxtlisan. U holda, nechun menga o'sha dard-u huzunlaringdan, qorong'iliklaringdan, o'limlaringdan so'yalarsan?

— O'h-h! Ha, O'ljay, ha, endi ular bari o'tdi, endi baxtimiz bilan birga bo'laylik! O'tmish bir tush, kelajak esa qorong'ilik. Shunday ekan, shu hol-u holatni, hozirgi onlarning topilmas zavq-u shavqlarini, sururlarini qandaydir tushga, allaqanday qorong'ilikka fido etib bo'larkanmi! Aslo!..

Ha, juda to'g'ri, O'ljay, juda to'g'ri!..

Ikki sevishgan visol kechasida shundayin suhbatlashib o'tirarkan, tong oqarinqirab, quyoshning zarrin ziyolari ufqni yorita boshladi... Tong go'yo kelajakning porloq sahifalarini, gulgun tabassumlarini va Temur uchun tayyorlangan yorqin istiqbolni ko'rsatmoqchiga o'xshardi... Shu bilan barobar, uning yuzida sarg'imgir bir kulumsish ham bor ediki, bu kecha oqshom bunda to'y qilinarkan, boshqa bir yerda vazir Qizg'inning qatliga qaror qilinganiga, to'lening badbaxtligiga mudhish va samimiy ishorat, shafqat alomati edi...

VI. MASH'UM KECHA

Xurosondan ortga qaytildi... Husayn Kurti yengib, zafar qozongan oqshomda ona tomonidan jaloyirlarga mansub O'ljay bilan Temurning to'yi tantanalarini o'tkazib, so'ngra yurtga ravona bo'lingan edi.

Urush tugashi bilanoq, yoqimsiz qon hididan qutular-qutulmas shoshilinch suratda o'z holiga tashlab ketilgan vataniga qaytgan ulug' vazir Qizg'in hazratlari yo'qligi paytida yuzaga chiqqan masalalarni hal etishga, boshqaruv ishlarini mustahkamlashga kirishdi.

Endi har kuni tong oqargach, o'rnidan turar, quyosh chiqqandan shomgacha hokimiyat idorasi bilan mashg'ul bo'lar, oy botguncha o'ringa yotmas edi.

Qorong'i bir kecha; vazir Qizg'in o'tirgan yerdan nariroqda yuzi-ko'zi o'ralgan bir kimsa sezdirmasdan, sharpa-day kezib yuribdi...

Bolaligidan beri chodirda uxlashga o'rgangan Qizg'in uyquga ketarkan, haligi sharpa tovushsiz yaqinlashib, chodirning orqa tarafiga o'tdi. Asta quloq tutdi, vazirning ux-

layotganiga qanoat hosil qilgach, ichkariga kirish uchun chodir tagidan teshik ochdi.

So'ngra noma'lum kishi atrofga quloq soldi, biror xavf yo'qligini aniqlagach, ohista ichkariga emaklab kirdi va chodir ichini ko'zdan kechira boshladi...

Notanish kimsa ochgan teshik vazir Qizg'in yotgan yerning yonida edi. Qora niyatli shaxs chodirda vazir va o'zidan boshqa hech kim yo'qligiga amin bo'lgach, qorong'ilikda qo'li bilan o'lchab, taxmin etilgan nishonga, vazir Qizg'inning qoq yuragiga xanjarini sanchdi.

Mudhish zarbadan birdan uyg'onib, o'rnidan sapchib turgan vazir qorong'ilikda noma'lum shaxs bilan bo'g'ish ketdi. Qatil ishning pachava bo'lishi mumkinligini o'ylab, g'azabi yanada qaynab-toshib, vazirga ikkinchi bor xanjar urdi...

Ikkinchi zarbani yegan keksa vazir ixtiyorsiz yerga gho'zilib qoldi, biroz ingranib, tipirchilagach:

– Sen... kimsan?.. – deb so'radi.

– Menmi? Sening qotiling! – dedi noma'lum shaxs.

– Nega... meni... o'ldirmoqchisan?..

– Qizingni bermaganing uchun!

– Sening... sheriklaring kim?

– Qizingni istagan necha kishi bo'lsa – barisi!

– Unda... bari... mening amirlarimdan...

– Shunday, bari! Zotan, ertaga har biri o'z odamlari bilan isyon boshlaydir!..

– Ey-voh, yuragim... Kim bor...

– O'l-e!..

Qatil shunday deya vazirga yana bir xanjar urdi.

So'ngra, bu yerda turishga ortiq hojat qolmaganidan, chaqqon emaklab teshikdan o'tdi-da, qorong'ilikda g'oyib bo'ldi.

Noxush tovushdan xavotirlangan Temur va O'ljay shoshilib vazir Qizg'inning chodiriga yetib kelishdi. Qizg'in so'nggi nafasini olarkan, Temurga qarab:

– Meni... o'ldirganlar... ertaga... sendan ayriladilar, – dedi. – O'g'lim, o'zingga... ehtiyot bo'l... Qizim... alvido... O'chimni... o'chimni olingiz!..

Vazirning so'nggi so'zlari bo'g'zidan xirillab chiqdi va qayg'u bilan bosh egib turgan kuyovi Temur bilan qizi O'ljay ko'z o'ngida to'lg'ona-to'lg'ona jon berdi. Bechora cholning boshi yostiqlikda qimirlamay qotib qoldi. O'ljay va Temur shu onda ont ichdilar.

– Otamning o'chini olasan-a, Temur? – dedi O'ljay.

– Ha, o'ch olaman!

– Meni sevasan-a?

– Ha, sevaman!

– Sendan mening boshim uchun otamning o'chini olishingni istayman!

– Ont ichaman: otamizning o'chini olaman!

– Men ham ont ichaman: har doim sen bilan birgaman, har xususda yordamchingman...

– Otamizning o'chini olmasdan qo'ymaymiz! Uni hecham unutmaymiz! Uning intiqomini olguncha faqat uning uchun yashaymiz!

– Ha, Temur, faqat uning uchun yashaymiz!

Ikkovlon ahd-u qaror qilib turgan shu daqiqalarda qo'lida mash'ala tutgan O'ljayning ukasi chodirga kirib keldi va ahvoldan voqif bo'lgach:

– To'g'ri, Temur, faqat o'ch olish uchun yashash kerak, – dedi.

Mash'ala chodir ichini yoritarkan, Temur birdan baqirib yubordi:

– Hah!.. Oллоh gunohkorlarni o'z ayblarini berkitishda

demmo yanglish yo'llarga solmishdir. Ana, qotil shu yerda! Oh... mana, qotil xanjarini otamizning ko'ksida qoldirib ketibdi...

– Nima? Xanjarini-ya?..

– Ha.

Temur vazir Qizg'inning ko'ksidan xanjarni sug'urib oldi, unga sinchiklab qaradi.

– Bu ulug' vazir Sulaymonga tegishli qurol, – dedi.

– Demak, qotil u!..

– Xanjarga va undagi yozuvga qaraganda, qotil u... faqat u yolg'iz emas...

– Yaxshi, sheriklari kim deb o'ylaysan?..

– Bu ishni aniqlashtirishni bizning O'g'uz Arslonga topshirish kerak. Tong otguncha hal qiladi.

– Ont ichamizki, ulardan dahshatli o'ch olurmiz!..

– Ha, mudhish intiqom olurmiz!..

VII. MUDHISH INTIQOM

Ertasi tongdanoq vazir Qizg'inning qatl qilingani saburi yoyilar-yoyilmas qo'shinda shunaqayam sarosima, taloto'p boshlandiki, g'urur va izzat nafslari zadalangan turklar Temurning yoniga yopirilib keldilar va o'ch olishga qasam ichib, uni qasos uchun tashviq va targ'ib etdilar.

Bu chog'da Temurning chodiriga to'plangan beklar, mingboshilar va boshqa ulug'lar qotilning va xoinlarning kimligini aniqlash niyatida O'g'uz Arslon aniqlagan dalillar ustida muhokama yuritishmoqda edi.

– Bolam, – dedi O'g'uz Arslon, – buyrug'ingizni bajarish uchun kiyimlarimni o'zgartirib, boshqa qiyofada jangchilar orasiga bordim...

Hech narsani bilmaganday, atrofni aylanarkanman, qorong'ida, bir katta tosh ortida berkinib turgan noma'lum shaxsning: „Kim u?!“ – deya baqirganini eshitdim.

Uning ovozi titrardi. Darrov hushyor tortdim, bir narsasi bor shuning, deya o'yladim. „Menman“, – dedim-da, sekingina unga yaqinlasharkanman, tanib qolmasligi uchun qorong'iroq tarafga o'tdim.

Qarshisida to'xtab, ko'rdimki, Sulaymon turibdi! „Nima qilding, Sulaymon? Anavi ishni bitirdingmi?..“ – dedim shivirlab.

Shu so'zimdanoq keyin uning ko'ngli tinchib: „Ha! Bitirdim! Ammo mening ham ishim bitdi endi...“ – dedi.

U meni haliyam tanimagandi, o'zining fitnachi sheriklaridan biri deya xayol qilgandi. Yuz-ko'zim belbog' bilan o'ralgani uchun soqolim ko'rinmasdi, chaqqon harakatlarim meni yosh ko'rsatardi.

„Oshnalarimizning xabari bormi?“ – dedim.

„Yo'g'-e, qayoqda. Bu yerga o'zim arang yetib keldim-ku“, – dedi.

„Bu yerda hech kim yo'q, tinch. Ularni ham chaqirsak bo'lmasmikin?“ – dedim.

„Bo'ladi...“ – dedi u.

„Kechqurun yig'ilish bor, deb aytirib yuborishgandi, biroq men borolmadim. Mana shu kuni tunda hukm bajarilishi kerakligini bildirishgandi, shuni o'ylab, agar ish o'ylaganimizday chiqmay qolsa, nima bo'larkin, deya rosa qo'rqdim-a... Shomdan beri shu atrofda daydib yuribman-da. Ammo o'zingam juda chaqqon, har ishni sezdirmay qiladigan ustasan-da, qachon kelganingni bilmay qolibman...“ – dedim.

„Ha, nima demoqchiydim... Unda borib ularni chaqirib kelay. Bugungi yig'ilish qayda?“ – deb so'radi u.

„Qoya Alp chodirida“, – dedim.

U ketdi.

So'ngra men chodirga borib, fitnachilarni ko'rdim...

O'g'uz Arslon so'zini tugatishi bilan Temur undan:

– Ular kimlar ekan? – deya so'radi.

– Ulug'im, siz ularning barini taniysiz...

– Yo'g'-e! Kimlar?

– Bari sizning raqiblaringiz. O'ljay Turkanni istab, quruq qolganlar, anavi g'avg'oda Oqa Kunduzni o'ldirib qo'yib, qo'li qonga belangan sakkiz jinoyatchi... Sulaymon o'shalardan biri emasmi?..

– Ha, endi anglayapman gap nimadaligini... Demak, Qizg'in vazirni qizi uchun o'ldirishgan, shundaymi? U holda qotillarga omon yo'q!.. – dedi Temur.

– Oллоh yo'lingni ochiq qilsin! – dedi O'g'uz Arslon.

Temur o'rnidan qo'zg'algach, O'g'uz Arslon ham uning ortidan ergashdi va chodirdan tashqariga chiqishdi. Askarlar darhol ularni o'rab oldilar.

– Qotildan o'ch olishni istaymiz! – degan tovushlar yungradi.

Bunga javoban Temurning:

– O'ch olingay! Otlaringizni minib, to'planing! – degan haybatli ovozi jarangladi.

Barcha sevinib tarqaldi va oqshomga yaqin urushga tayyor bo'lib to'planishdi. Temurning:

– O'ch olish uchun, vazir Qizg'inning intiqomi uchun olg'a!.. – degan jasurona buyrug'i eshitildi.

Ular ufqqa qarab uchib borisharkan, qarshidan bir otliq ko'rindi va yaqinlashib:

– Temur arslonni ko'rmoqchi edim, – dedi.

Uni Temurning yoniga olib borishdi. Otliq qo'ynidan chiqargan buyruqni Temurga topshirdi. Uni o'qigan

Temur amakisi hoji Sayfiddin Barlos, Boyazid Jaloyiriy, qutbulquttob Zayniddin Abu Bakr va Mirsaid Sharifdan iborat maslahatchilari bilan vaziyatni muhokama qilishga kirishdi. Ikki soatlik kengashdan keyin maslahatchilarini ergashtirib, bir tepalikka chiqdi va askarlarga qarata shunday dedi:

– Arslonlar, qahramonlar! Shu onda orqaga qaytmoq biz uchun muvofiqdir. Bu ishning to‘g‘riligini maslahatchilaring, mamlakatimizning donishmandlari bo‘lgan shu zotlar ham tasdiqlashdiki, bu qarorda hikmat bor, – dedi.

So‘ngra otiga minib, yo‘lga chog‘landi. Garchi bu tarzda qaytish ba‘zilarga yoqmagan, mish-mish chiqargan bo‘lsa ham, barcha askar otlanishib, uning ortidan ergashdilar.

VIII. QOTILLARGA NIMA BO‘LDI

Sulaymon kutilmaganda uchrab qolgan O‘g‘uz Arslonning so‘zlaridan biroz shubhalagandi, faqat o‘sha paytda qotillik iztirobida o‘rtanayotgani va esi unchalar o‘zida emasligi uchun uning kimligini o‘ylab ko‘rolmagandi. Bir muddat kutdi, lekin u tarafdin hech kimning kelmaganini va bu turishda kelmasligini ham anglab yetgach, bu yerda bir gap bor, deb qo‘ydi. Darhol sergak tortib, turgan joyidan zaharli ilon kabi qo‘zg‘alib, boshini har yoqqa burib, tegrasiga iblisona ko‘z tashladi-da, shipillagancha yura ketdi...

Qoya Alpning chodiriga bordi. Eshik yonida turgancha ichkariga quloq tutdi. Chodirda uni kutayotganlar toqatsizlanib, o‘z gaplarini ma’qullashardi:

– Haliyam kelmadi-ya, ishqilib, bir falokat bo‘lmasin-da...

– Qo'ysang-chi, do'stim, har ishda shunaqa kechikish Sulaymonning eski odati-ku! Zotan, qo'lidan nimayam kelardi...

– Iye, o'ylab gapiryapsanmi? Agar u shu paytda bu ishda biror xatoga yo'l qo'ysa, biz juda ko'p narsa yo'qotamiz!..

– E, azizim, bekorga xavotir olyapsiz. Kutaylik, yurgan odam, kelib qolar axir...

Zotan, bir jamiyat qanchalar sobit va mustahkam bo'lmasin, agarda u yomonlik poydevori ustiga tiklangan, haqiqiy to'g'rilik g'oyasiga tayanmasa, uning a'zolari o'rtasida nifoq chiqaveradi. Biri u deydi, biri bu deydi; biri u yoqqa, biri boshqa yoqqa tortadi... Ular doimo bir-birlariga qarshidirlar. Yaxshilikdan muddao yomonlik bilan musobaqaga kirishmoqdir...

Shunday qilib, Sulaymonning qotillik martabasiga erishuvi oshnalariga turlicha ta'sir qilgan, ba'zilar hasad qilib, halitdan uni chaynay boshlashgandi:

– Ko'raylik, qachon kelarkin? Oqshomdan beri kutyapmiz, tong ham oqardi, haliyam „keladi“!..

– Albatta keladi, qayoqqa borardi. Ishqilib, bizga xiyo-nat qilmasa bo'ldi.

– Sen nima deyapsan o'zi? Og'zingga qarab gapir!

– Menimcha, undan har narsani kutish mumkin.

– Bu nima deganing?

– Biz qasam ichgan paytimizda unga diqqat bilan qara-ganmidingiz?

– Ha, esimda, turqi g'oyat sovuq edi.

– Turqini qo'yaver-u, ont ham ichmagandi! Men o'shan-dan beri bu ishning oxiri nima bilan tugarkin, deya bosh qotiraman.

– U holda, tag'in qochib ketgan bo'lmasin?

– Balki, qochgandir, balki, xiyonat qilgandir.

– Yo‘q, o‘rtoqlar, yo‘q, u bunchalikka bormas. Sulaymon, ehtimol, sizlarga xiyonat qilar, biroq oshiqona in-tiqom so‘zidan qaytish hecham qo‘lidan kelmaydi! Undagi ishq jonsiz oltindan boshqa narsa emas: u faqat qilichday kesadi, faqat o‘ldiradi, faqat u ishq buyrug‘ini bajaradir!

Sulaymon chodir yonida turarkan, unga noma‘lum bir odam uchragani va bu yerga u yo‘llaganini aytishga qaror qilgandi, biroq sheriklari uni ko‘rishlari bilanoq, og‘iz ochtirmasdan, so‘roqqa tutishdi:

– Ish bitdimi?

– Ayta qol, nima bo‘ldi?

– Qarshilik ko‘rsatdimi?

– Seni tanidimi?

So‘roq do‘li ostida qolgan Sulaymon, bularning ezma-ligidan, vaqt ziqligidan siqilib:

– Do‘stlarim, – dedi pisandsizlik bilan, – sizlarga ish-ning qanday bo‘lganini aytib berishga hozir vaqtim yo‘q. Qani, turing, hoziroq barimiz otga minib yo‘lga tushamiz!.. Bu yerdan qochishdan boshqa chora qolmadi...

– Nima bo‘ldi o‘zi, tushuntirsang-chi!

– Nima bo‘lardi, dard bo‘ldi! Sizlar bu yerda suhbat-lashayotganingizda, chodir yonida bir sharpa so‘zlaringiz-ni tinglab turganini ko‘rdim. Tabiiyki, sizlar bunda an-cha-muncha so‘zlarni gapirgansiz, u ham bekordan bekorga tinglab turmagandir-ov... Albatta, bir maqsadi bor. Chuvi-miz chiqmasdan otni qamchilaylik! Menimcha, Temur bu ishdan xabardor. Shuning uchun hammamiz Temurning oldiga boraylik, masalani boshqacha tushuntirib, hech-qursa uning g‘azabidan qutulaylik... Zotan, shu ishni qil-ganimdan o‘zim ham pushaymonman, axir uni o‘ldirdim nima-yu o‘ldirmadim nima, hech bir foydasi yo‘q, hech!..

Qoya Alp o‘rtaga otilib, uning so‘zini ma‘qulladi:

– To‘ppa-to‘g‘ri, bundan boshqa chora yo‘q, do‘stlar! Qochaylik, qutulaylik!

Bari chodirdan chiqishib, otlariga sakrab minishdi. Orqalaridan bir necha xizmatchilarini ham ergashtirib, mal‘un bir to‘da holida otlarini uchirtirib, qocha boshladilar.

* * *

Quyoshli bir kun. Samoda, unda-bunda oppoq bulut parchalari kezib yuribdi. Yerda esa nomiga bo‘lsa-da biror ko‘lka degan mo‘jiza ko‘zga tashlanmaydi.

Har yoq quyosh haroratidan yonmoqda, jaziramada qovurilmoqda. O‘rdugohdan yarim kunlik masofa uzoqlikdagi Tug‘luq Temurning poytaxtida esa kamoli azm-u iqbol bilan shodumonlik hukmron.

Tug‘luq Temur samoviy va behishtiylar taxtida o‘tirarkan, allakimni intizor kutayotgani, sabrsizlanayotgani va siqilayotgani ko‘rinib turardi.

Xizmatchilardan biri kelib, uning huzuriga kirmoqchi bo‘lgan ikki-uch kishining muntazir ekanligini bildirdi. U iza berdi. Xizmatchi chiqib ketdi va bir muddatdan so‘ng qaytib:

– Kirsalar bo‘lurmi? – dedi.

– Bunga keltir ularni! – dedi Temur Tug‘luq.

– Bosh ustiga!

Xizmatchi shunday deya tashqari chiqdi va so‘ngra ichkariga Sulaymon, Qoya Alp va boshqa fitnadoshlar kirib ketishdi. Tug‘luq Temur xizmatchilariga:

– Bizni yolg‘iz qo‘ying! – deya buyurdi.

– Bosh ustiga! – deya xizmatchilar tashqariga chiqib ketishdi.

Yolg‘iz qolishgach, Tug‘luq Temur kelganlarni so‘roqqa tutdi:

– Nima bo‘ldi? Nega bunaqa to‘dalanib keldingiz?

Do‘stlari sen bir nima de, deganday Sulaymonga qarashdi.

– Taqsir, – dedi Sulaymon, – biz bilan birga besh yuz kishi keldi, Temurdan qochishga majbur bo‘lib qoldik...

– Nega?

– Temur qilgan ishimizdan xabar topibdir...

– Demak, bu ishda mening ham qo‘lim borligini u biladir?

– Yo‘q, taqsirim! Temur sodda bir yigit. Uning bu ishdan xabardorligi shundaki, uning odamlaridan birisi tasodifan biznikilarning chodirda gaplashib o‘tirganini eshitib qolgan va qotilning bizlardan ekanini sezgan; u borib Temurga shuni bildirgan, xolos.

– Demakki, Temurni men haliyam qo‘g‘irchoqday o‘ynata olaman. U holda, shuni bilaturib, bu yerga kelmog‘ingizdan maqsadingiz – meni ham fosh etmoq, siz bilan birgaligimni ko‘z-ko‘zlamoq, shundog‘mi?

– Yo‘g‘-e, taqsir, biz bu yerga faqat marhamatingizga sig‘inib, sizdan panoh tilab keldik! Tabiiyki, himoyatingizdan umidvormiz...

– Hozircha sizga izn berdim. Men bilan birga bo‘lsangiz (faqat buni hech kim bilmasligi kerak), yaqinda vazir Qizg‘in zamonida sarkashligini boshlagan yerlardagi aholini o‘zimga tobe etmoq, boshqa ba‘zi yerlarni ham itoatimga olmoq va avvalgi qudrat-u shavkatimga erishmoq uchun katta yurishga kirishurman. O‘shanda bizga qo‘shilishga imkoningiz bor.

– Rahmat, taqsir!

– Temurga esa hech bir g‘arazim yo‘q. Faqat, ko‘ramiz, kelajakda davron boshimizga nelarni solgay.

– Taqsir, uning sizga qarshi isyon ko‘tarishi aniq...

– O‘shanda ko‘ramiz!

Tug'luq Temur shunday deya bir ishorati-la xizmatchini chorlab, kelganlarni kuzatib qo'yishni buyurdi. Ular chiqib ketganidan keyin:

– Ana, ishlar mundoq bo'пти, Qizg'in bobo! – deya mamnun jilmaydi.

– Men bosib olgan yerlarimni qaytib olish uchun hech nedan qaytmayman! Hech ne, hech kim bunga mone bo'lolmas! Agarda kuyoving Temur ham menga qarshi zarracha osiylik qilsa, bosh ko'tarsa, boshi ketadir, eh!..

So'ngra yana xizmatchini chorladi. Unga:

– Eng chaqqon choparlarimdan birini tezda bunga yubor! – deya amr etdi.

Birozdan so'ng ichkariga chopar kirib keldi. Tug'luq Temur huzurida arzi ehtirom ayladi. Tug'luq Temur suyanib o'tirgan yostig'i ostidan bir hamyonni olib, unga uzatdi va shunday dedi:

– Hoziroq otga min! Uchganingcha qo'shinga yetib bor! Temurga uchrash. Qaynotasining o'ldirilishi munosabati bilan unga va xotini O'ljay Turkanga ta'ziamni bildir. Movarounnahr o'lkasi boshqaruvini unga topshirganimni yetkaz! Turgan yeridan hech yoqqa jilmasin. Men urush boshlayapman, undan anchagina xizmatlar talab qilurman. Tez yo'lga tush!..

– Bosh ustiga! Bu so'zlarni faqat Temurga aytaymi?

– Ha, faqat Temurga ayt!

Chopar sulton Tug'luq Temurning etaklarini o'pib, tushqariga chiqdi. Sulton derazadan uning otiga minib, oshiqich yo'lga tushganini ko'rdi.

* * *

Mo'g'ul sarkardasi sulton Tug'luq eski mo'g'ul otalaridan o'tgan qonidagi o'jarlik, shahd-u shiddat bilan Olmaliqdan Samarqand ustiga yurdi.

Tug‘luq Temur, barcha rejalarini unutib qo‘ygan ras-somday ish tutgancha, yo‘lida uchragan har narsani yoqib, yiqitib, tevarakka dahshat sochib borardi.

Uning askarlari shu yerlik turklardan tashkil topgandi. Oralarida musulmonlikka uncha ahamiyat bermaydigan-lari, talonchilar ham uchrab turardi. Biroq bari Tug‘luq Temurga sadoqatli, uning bir amriga qonini, jonini fido qi-ladigan, unga hayoti bilan bog‘langan jangovarlar edi.

Temur amridagi vazir Qizg‘inning askarlari, sulton Tug‘luq qo‘shinining bu muvaffaqiyatli, o‘ljaga boy yuri-shini ko‘rar-ko‘rmas og‘izlarining suvi qochib, darhol isti-lochilar yoniga ot qo‘ydilar.

Ular orasida Temurning amakisi hoji Sayfiddin Barlos bilan Boyazid Jaloyiriy ham bor edi. Temur ularning bu ishidan judayam xafa bo‘ldi. Bu rejasiz harakat, har yerni bosish va talashga yo‘naltirilgan g‘addorona yurish nati-jasida Tug‘luq Temur, bir payt kelib o‘z tig‘ini yosh Te-murga qaratishi ham mumkin edi...

Shularni o‘ylarkan, Temur mashvaratchilaridan qut-bulaqtoq Zayniddin Abu Bakr va naqshbandiy tariqati mansubi Said Shariflar maslahatiga kirib, vaqtincha qay-notasining qotillariga qarshi urushdan voz kechdi, sulton Tug‘luq Temur bilan esa iloji boricha yaxshi munosabat o‘rnatishni munosib ko‘rdi. Bu ikki usta maslahatchi vosi-tasida o‘zini Tug‘luq Temurga sodiq ko‘rsatishga, paytdan foydalanib, o‘z ahvolini tartibga keltirishga intilib, sul-tonning yaqinlari bilan aloqa bog‘ladi va ancha-muncha muvaffaqiyatga ham erishdi. Sulton ayg‘oqchilari orqali aniqlangan sirlarni Temurga ham bildirib turardi. Temur beriladigan aqcha va tortiqlarni orttira-orttira sultonning odamlarini qo‘lga kiritgani kabi bora-bora Tug‘luq Temur-ni ham o‘ziga og‘dirib oldi...

Bular, tortiqlar uchun sarflangan aqcha-yu oltinlar tariqat kishilaridan, vaqflardan yig'ilib kelardi. Temurni dindor aholi yaxshi ko'rardi va uni doimo qo'llab-quvvatlardi. Temur ham ularning husni nazarini jalb etishga, ko'nglini olishga intilardi. Shu tariqa u kirishgan har ishida yutuqlarga erisha boshladi.

Bir kuni, Temur xos maslahatchilari bilan kengash qilarkan, so'z aylanib shu gaplarga taqalgach, bir maslahatchisi o'ta ishonch bilan shunday dedi:

— Sultonning ahvoli qanaqaligini bilish uchun ularning vaziyatini ko'z o'ngimizga keltirish kifoyadir deb o'ylayman.

— Bu xususda men ham ayni fikrdaman, — dedi Temur. — Har holda Tug'luq aldandi.

— Qanaqasiga aldanadi?

— E, shunaqayam aldandiki, hatto qaynotamning qotillarini himoyatida tuta kelgani ham menga ma'lum emasligiga ishonadir deb o'ylayman.

— Menimcha, sultonning bunaqa aldanishi mumkin emas, bu ehtimoldan uzoq narsa. Tug'luqning bunchalar ahmoqlikka borishini xayolimga ham keltirolmayman. Ammo siz bunga muvaffaq bo'la bildingizmi, agarda shu ishni bajargan ersangiz, amalga oshishini imkonsiz ko'rganim va qoyil qolganim bu muvaffaqiyatga qanday noyil bo'ldingiz?

— Qanday bo'lardi, bu jarayon o'z-o'zidan yuzaga keldi. Sultonning odamlari nufuzimni juda yuksak tasavvur etishardi va ustunligim-u boyligimdan ko'zlari qamashardi. Oltin-u tortiqlarim yurak-yuraklariga kirib borgandi. Xonam ham hadiyalarni hech ayamasdan yubordim. Mana endi kim yaxshi, Temur yaxshi, har xususda fikrimni so'raydi, ma'yimga qaraydi, ko'pincha men aytganday ish tutish-

ni maqbul ko'radi. Muvaffaqiyat qozonish uchun amalga oshirgan o'sha hiylalarni menga siz o'rgatgandingiz-ku axir. Har ishda, doimo dindorlardan, ularning ta'siridan va ko'zni qamashtiruvchi siym-u zardan, hadiyalardan foydalan, deya siz maslahat bergandingiz-ku!

– Bo'ldi, qo'lga tushdik, biz taslim! Faqat bu qadar oz vaqt ichida bunchalar katta muvaffaqiyatga erisha olishingiz xayolimizga ham kelmagandi.

– Siz u yo'l-yo'riqni, dushmanga qarshi hiylani bilar-dingiz. Faqat qanday amalga oshirishni aniq bilmasdingiz. Mabodo siz mening o'rnimda bo'lsaydingiz, bu ishni yuzaga chiqarish uchun fursat topolmay boshingiz qotardi. Bunga ikki baravar ko'p fursat berilgandayam muvaffaqiyat qozonmoq osonmas. Bir siyosiy hiylani amalga oshirish uchun kunlar emas, balki yillar ham oz. O'ychi o'yini o'ylaguncha tavakkalchi ishini bitiradi. Bunaqa ishda har doim jasorat, tavakkalchilik, oldin hujum uyushtirish katta ahamiyatga molik. Men xuddi shunday qildim. O'lgunimcha mana shunday yo'l tutishga qaror qilganman va o'lgunimcha muvaffaqiyat qozonishdan umidvorman. Ruhim, fikrim ham urushni boshqaradigan qo'llarim kabi kuchli va metin bo'lishi kerakligini bilaman!

– Juda soz! Qutlaymiz! Sizning bu yutuqlaringiz biz uchun ham sharafdir!

– Yana shunisiyam borki, sulton Tug'luq har neki xususda mening qarashimni yo maslahatimni so'ragan bo'lsa, unga aytgan so'zlarim bilan uning hukumati va manfaatini emas, o'z muvaffaqiyatlarimni ko'zladim.

– O'h-o'! Bunga qanday erishdingiz?

– Masalan, har doim menga bergan amrlarini bajarganimni bildirarkan, fikr-u zikrimni uning vatanimdan, Movarounnahrndan chiqib ketishiga qaratardim. Hech o'ylab

ko'rdingizmi, Mahmudshoh bu yerlarga o'z-o'zicha kelib qoldimi, Tug'luq uni o'z tashabbusi bilan bunga jo'natdimi?

– Ne bilaylik, qani, o'zingizdan eshitaylik...

– Bu ishni oldindan pishirdim. Yurtimizda yetishgan, bu o'lkaning sharoitini yaxshi biladigan, o'z urug'imdan bo'lgan Mahmudshoh Barlosni sultonga tavsiya etdim. Uning qo'mondonlikka ko'tarilishiga rosa harakat qildim va niyatimga yetdim. Uning bu martabaga erishuviga bu o'lkadagi ahvolni yaxshi bilishi omil bo'ldi.

– Sizning timsolingizda shu vatanni qutqarish uchun yuborilgan ulug' xaloskor shaxsni ko'rmoqdaman va qaraman ichamanki, shu ondan o'lgungacha siz va sizning muvaffaqiyatlaringiz uchun xizmat qilaman!

– Rahmat! – deya Temur dono maslahatchilariga ehtiromini izhor etdi.

Shunday qilib, Temur urug'doshi Mahmudshohni qo'mondonlikka tayinlagan kunlarda sultonga ba'zi xijo'rlarini to'lay olmagan mulk egalari sarosimaga berilib, bor-budlaridan ayrilib qolish qo'rquviga tushgan, yotib qolguncha, otib qol qabilida ish tutib, qipchoq bosqinchilari ustiga hujum uyushtirishgan va qipchoqlar orasida taloto'p-u isyon chiqarishgan edi.

Sulton bu qo'zg'olonni bostirish uchun Movarounnahrdan keladigan daromadga ko'z tutayotgandi. Holbuki Tug'luq istasa-yu istamasa, bu o'lkani idora eta oladigan eng maqbul shaxs Temur edi.

Temur ham ulamoning hurmatini, ham aholining muhabbatini qozongandi. Jasorati, mahorati tufayli hukumat amaldorlari va sulton nazdida katta mavqega ega edi.

Sultonning buyrug'iga ko'ra Temur Movarounnahrga voliy etib tayinlandi va qo'liga hokimlik muhri, amriga o'n ming kishilik qo'shin topshirildi.

IX. FALOKAT

Yer-u ko'kni qalin tuman va ko'z ko'rmas bir zulmat qoplagan mudhish, qo'rqinchli kecha... Zamin-u samovotni to'ldirgan bu bo'g'iq havodan qandaydir falokatning sassiq qo'lansasi anqiydi, shamollar o'lim badbo'yini keltirayotganday, atrofda bir jahannamiy qorong'ilik hukmfarmo...

Mana shunday vahimali, zim-ziyo tunning qorong'i zindonida, uning qoraqumlarida vishillab sudralgan ilonlar kabi ikki-uch kishining izg'ib borayotgan sharpasi seziladi...

Bu yerlar Temur hokimlik qilayotgan Movarounnahr o'lkasi chegarasiga yaqin bir makon. Bu qum vohasida kichik-kichik tepaliklar ko'zga tashlanadi. Tepaliklar panasida pisib yotadigan qaroqchilar bundan ahyon-ahyonda o'tadigan yo'lovchilarni tunab, qashqirlarday kun kechirishadi. Haligi qorong'ilikda timirskilanib yurganlar itlarnikiday o'tkir ko'zlari bilan tuman ichida bir otliq kelayotganini ilg'ashdi. Darhol oldindan tayyorlangan pistirmaga yashirinib uni kuta boshlashdi. Otliq esa hech narsadan xabarsiz yo'lida davom etardi...

Haligi pistirma yonidan o'tayotganida bo'yniga allanarsa kelib tushganini sezdi...

Qaroqchi uning bo'yniga kamand otgandi. Otliq bechora gupullab yerga yiqildi, nima bo'layotganini bilolmay ham qoldi, o'zini u yoqqa-bu yoqqa urdi, tipirchiladi, biroq ko'ksiga va bo'yniga urilgan ikki-uch xanjar zarbasidan keyin manguga tinchidi-qoldi.

Yo'lto'sarlar sho'rlik o'likning ust-boshini tintib ko'rishdi, qo'ynidan biroz pul va maktub chiqdi. Xat arab yozuvida, bu o'lkada ishlab chiqarilgan ipak qog'ozga bitilgan

edi. Qotillar yo'lovchining jasadini sudragancha oldindan tayyorlab qo'yilgan chuqurga olib kelib tashlashdi va bir-pasda uni ko'mib, jinoyat izini berkitishdi. So'ngra jasad ko'milgan yerni har ehtimolga qarshi yana bir bor ko'zdan kechirib, o'ljasini tinchitgan qashqirlarday qorong'ilikda, tuman orasida g'oyib bo'lishdi. Biroz yurishgach, qurbon ketgan odamning otini yetaklab olgan qaroqchi:

– Yana qancha yuramiz, tong otib qoldi-ku, – dedi.

– To'xtash yo'q! – dedi boshqasi. – Temurning yerlaridan chiqib ketguncha yurishga majburmiz.

– Ha, shunday qilganimiz tuzuk. Shunday ish tutishimiz ancha xavfsizroq va qutulishning yo'li ham shu.

Yo'lda davom etishdi. Bir muddat o'tgach, uchinchi kimsa shunday dedi:

– Bu kechani shu atrofda, eronlik Xizrning uyida o'tkazsak nima deysizlar? Uning joyi Temurning yerlaridan tashqarida. Menga qolsa shunday qilish kerak.

– Juda yaxshi. O'ziyam itday charchadik. Manavi jonivorning ham bizga foydasidan ko'ra zarari tegdi, hech yo'limiz unmasi.

– Kelishdik. Qani, o'sha yoqqa jo'nadik!

Qaroqchilar g'ayrat bilan yo'l bosib, o'n daqiqadan so'ngra eronlik Xizrning uyiga yetib borishdi.

Darvozani taqillatib ochtirishdi va ichkariga kirishdi. Eronlik Xizr ham yo'lto'sarlarga o'xshagan, qorong'ida kun o'tkazadigan zaharli ilonlardan edi. Faqat u qaroqchilardan aqlliyoq edi, o'qish-yozishni bilardi. Bu xilvat, gadoytopmas makonga hiylagarlikda yanada yetuklikka erishish va ziyrak ko'zlardan uzoqroqda turish niyatida kelib qolgandi. U bunaqa ahmoq qaroqchilardan bir nechasi-ni har barmog'ida o'ynatardi-yu, biroq bu nayrangini yonidagi biror kimsaga sezdirmasdi.

Eronlik Xizr yo'lto'sarlarni qani-qani qilib kutib oldi va xonaga olib kirib o'tqazarkan:

– Shu kechasi ov baroridan kelibdi-yov, ko'zimga juda boyiganday ko'rinyapsizlar, – dedi sinchiklab.

– E, go'r bo'larmidi, – dedi qirriq qaroqchi. – Qanchalik boyiganimiz ma'lummas, hali o'ljaga tuzuk-quruq qaramadik ham. Ko'raylik-chi, kishi boshiga qanchadan tegarkin?

– E, oling unda, men taqsim qila qolay! – dedi Xizr.

Yo'lto'sarlar o'ljalarini cholning oldiga to'kishdi. Yig'ilgan narsalar orasida haligi maktub ham bor edi. Qariya xatga ziyraklarcha ko'z tashlab, o'g'rilarga bildirmasdan darhol uni bir yoqqa ajratib qo'ydi. O'rtadagi o'ljani, pullarni taqsimladi, so'ngra maktubni qo'lga olib:

– Shuyam meniki bo'lsin! – dedi. – Bilasizki, men shunaqa narsalarga qiziqaman. O'zi bundayin eski-tuski qog'ozning sizlarga hech keragi yo'q deb o'ylayman.

– E otaxon, olaver! – dedi bir qaroqchi.

– Zotan, biz uni tashlab yubormoqchidik, – dedi boshqasi.

– Bizga foydasi yo'q qog'ozning nima keragi bor, ortiqcha yuk! – dedi uchinchisi.

– To'g'ri! – dedi chol. – Sizlar uchun bu tashlab yuboriladigan keraksiz narsa, ortiqcha yuk! Ammo men uni Eronga yuborsam, biror qimmatga ega bo'lishi mumkin. Shu boisdan, uni menga berganingiz uchun sizlarga tashakkur bildiraman.

– E otaxon, shu seniki, olaver!

– Gapirishgayam arzimaydi-ku bu! E, ezvordilaring-da...

– Hoy, quloqni yeding-ku, nega baqirasan?!

– O'chir! Nega tomog'ingni yirtasan. Bo'g'ib qo'yaymi yo!..

Qaroqchilar o'rtada taqsim qilingan o'ljaga qanoat qilmasdan, bir-birovinikidan ko'z uzolmay, fe'llari aynib turgandi, darhol dahanaki jangga kirishdilar. Sal bo'lmasa yoqalashib ketishardi-yu, Xizr:

– E, qo'yinglar, o'zlaring jo'mard odamlarsiz, arzimas narsaga jiqillashmanglar, – deya ularning shashtini qaytardi. – Bilaman, menga jonlaringniyam fido qilaszlar. Bo'pti, men endi chiqayin, sizlar ham dam olinglar.

Xizr qaroqchilarni o'z holiga tashlab, xonasiga kirdi-da, qo'ynidan maktubni olib, indamasdan ko'z yugurtirdi. So'ngra birdan:

– Ey-voh, Temur! Boshingga falokat tushibdi-ku!.. – deya hayqirib yubordi.

X. MAKTUBNING SIRI

Temurning favqulodda iqtidor egasi ekanligini anglagan va uning kelajagi uchun xizmatini ayamaslikni va'da qilgan ikki zot bor edi: ularning biri naqshbandiylar tariqatiga mansub Said Sharif, ikkinchisi Temurning bosh maslahatchisi, qutbulaqtoq Zayniddin Abu Bakr edi...

Bu ikki zot barcha odamlari bilan birgalikda Temurning istiqboli uchun xizmat qilishardi va uning iqboli uchun kuyunishib, jonbozlik ko'rsatishardi.

Bir oycha oldin bu ikki zot Temur hayotidagi muhim masalalar mavzusida maslahatlashib o'tirib, tortishib ham qolishgandi. O'shanda Said Sharif:

– Temurning bunchalar qisqa vaqtda hokim bo'lishi taqdirdan. Uning toleyi shunaqa, menimcha. Ammo har narsaga tayyor turish ham kerak. Zotan, har qanaqa odam taqdiridagi saodatdan yuz o'gira olmaganidek, peshonasiga yozilgan falokatdan ham qutulolmaydi va yo'q toleni

bor qilish qiyin... – dedi. – Mening fikrim shu: agar taqdir loyiq ko'rsa, Temur buyuk bir sulton bo'lsa bo'laveradir. Mabodo taqdiri boshqacha ersa, biz qancha xizmat qil-maylik, qancha urinmaylik, hech ish chiqmaydir...

– To'g'ri, juda to'g'ri! Faqat tadbirda qusurga yo'l qo'ymaslik darkor! Ehtimolki, taqdir o'sha saodatga eri-shish uchun tadbirni shart etib qo'ygandir. U holda Temur-ning muvaffaqiyati uchun nechun harakat qilmasligimiz kerak? Nechun falokatga yo'liqsa-yo'liqaversin, deya in-damay o'tirishimiz lozim? Temurning podshoh bo'lishi taqdirda yozilmagan ersa, unda kichik bir muvaffaqiyat tufayli shundayin hokimlikka tayinlanishiga ne deyilur?..

– Voqean, bu hokimlik uning kelajakka otgan ilk odi-midir! Faqat toleyining porloq nurlaridan ko'zi qamashsa, Chingizona qahramonlik xayolotiga berilib ketsa, u vaqtda mag'lub bo'lur. Zotan, uning kurashi endi boshlanmoqda, u endigina maydonga tushdi...

– O'ylashimcha, Temur butun umrini xalqning hukm-dori bo'lib o'tkazadir. U butun tashabbusoti, ijrooti – qiladi-gan ishlarining hisobini berishni, xalq oldidagi mas'uliyatini doimo nazari e'tiborga olmishdir. Yana shulkim, uning g'oyasi va vatan istiqboli uchun tasavvur aylagan loyihasi borkim, albatta, unda Buxoro va Naxshab tomonlarning birlashuvi ham mavjud...

– Juda yaxshi-da! Faqat maqbul vaziyat hanuz pishib yetilmagan, u loyihadagi ishlarni amalga oshirish uchun Temur hali ko'p sabr etmog'i kerak!

– E, bo'lmasa-chi... Tabiiyki, sabr etmoq yaxshidir. Temur ham shu yo'l tarafdori.

– Bu ishlar amalga oshishi bilanoq, mana ko'rasiz, tur-kiylar va mo'g'ullar bilan Chingizxon o'rtasida tuzilgan bitim hukmlari o'z kuchini yo'qotadir. Chingizxon qo'l

ostidagi muqaddas Chin saltanati ham avvalgi quvvati va e'tiboridan ayriladir, parchalanadir, ana undan keyin Osiyoda bir necha kichik davlatlarning paydo bo'lishiga hech kimsa monelik qila olmaydir!

– Buni ko'p yaxshi aytdingiz. Fikr-u qarashlarimizda o'xshashlik, birlik borligi kabi Temurning mulohazalari va tushunchalari ham biznikiga monand va ittifoqdir, u ham ko'p narsani bizdek o'ylaydir. Zotan, hech bir zamon, o'zingizga ham yaxshi ayonkim, Temur ulamoning nasihatidan qochmadi, doimo bizlarni o'ziga maslahatchi deb bildi.

– To'ppa-to'g'ri. Bu xususda Temurdan ko'nglim to'q. Har bir ishga oqilona tadbir ila yondashayotgani ham buning dalili emasmi axir? Men uning o'ziga ham iqboli ballandligidan, kelajagi porloqligidan so'ylagandim. Ammo oldindagi yuksak maqsad shoshqaloqlikni ko'tarmaydi, buni unutmaylik.

– To'g'ri, bu azim maqsadga vosil bo'lmoq uchun birgina jasoratning o'zi yetmas. Biroz diqqat bilan harakat qilinsa, sabrni yo'lboshlovchi va yo'ldosh etsa, har holda, Temur ko'zlagan g'oyasiga erishgay, inshoolloh.

– To'g'ri, Xudo xohlasa shundoq bo'lgay. Xususan, yana bir masala bor. U ham bo'lsa aholining e'tiborini qozonmoq, uning mehr-u hurmatiga erishmoq. Muhimi, buyuk g'oyalar yo'liga tushgan zot eng avval egallashi shart bo'lgan yana bir narsa borki, bu o'yin atalur! Qachon, kim bilan, qanday o'yin qilishni o'rganib olgach, boshqa ishlar yengil ko'chgay. Chunki u qayerga bormasin, yo'ldoshlar va yordamchilar bo'lgay. Qayerdaki biror xatar yo falokat yopishsa, uni qutqaradigan hech qursa bitta odam topilgay. Ana endi shu narsaga diqqat qiling: yuqoridagi holatlarda vaziyat, chegara aniq. Ammo buni urush bilan

muqoyasa etmoq mumkin emas. Urushda juda ko'p odam qatnashadi. Ko'pchilikning e'tiborini qozonmoq – shu jihatdan muhim.

– Afkori umumiyni, el e'tiborini qozonmoq uchun Temur imkon qadar fidokorlik ko'rsatmoqda. Biroq uning bizdan kutayotgan fidokorliklari boshqachadir...

– Ya'ni, qanaqa?..

– Ayni shu xususda unga yordam qilishimizni istaydir...

– Qandayin ko'mak bera olurmiz?

– Qo'ldan kelgancha-da...

– Ishoningki, bu borada hech narsadan xabarim yo'q...

– Unchalik emas, loqaysiz, xolos.

– Yo'g'-e! Temur hazratlari mafkurada, odamlar orasi-da yuksak mavqega qay tariqa erishgaylar – men buni qaydan bilayin? Bu o'rinda mening qanday xizmatim bo'lishi mumkin...

– Taqsirim! Kamina qulingiz ikki-uch kundirki, ko'cha aylanib, el tiliga quloq tutdim, bu yurtida ancha-muncha do'stlarim, tanish-bilishlarim bor, ular bilan suhbatlashdim. Bariga Temurning fazilatlaridan so'yladim. Endi eng ishonchli do'stlarimga butun o'lkada shu ish bilan shug'ullanishlarini tavsiya qilgaymen. Boshqa tanish-bilishlarga ham Temurni shunday maqtayinki, ularning tilidan ham Temur tushmay qolsin.

– Juda soz! Men ham siz bilan birga ishga kirishave-raman-da?

– Hay-hay-hay, taqsirim, o'zingizni urintirib nima qilasiz? Men yillarcha yelib-yugurib, kuyib-pishib yuzaga chiqaradigan ish sizning shunchaki bir og'iz so'zingiz bilan bitadi. Hozirgi vaziyatda sizning birgina so'zingiz kifoya.

– Qanaqa so'z?

— Ha-ha, birgina so‘zingiz yetarli. Biz oldin Temurga siyosatda dinning ta’sir kuchidan foydalanishni uqtirgandik, to‘g‘rimi?

— To‘g‘ri.

— Temurning siyosiy nufuzga erishmog‘i uchun qilindigan ishlar xususida mening pishgan fikrlarim bor. Diniy tomondan e’tibor topishi uchun esa mamlakatimizda din-u diyonatda, ulamolar orasida oliy mavqe va maqom sohibi bo‘lgan, avom omma-yu butun xalq etagini o‘padigan sizday zotning oliyjanoblarcha himmati kifoyat etar!

— Astag‘furulloh... Men siz aytgan gaplarni uddalashim uchun nimalar qilishim kerak, shuni bilmayroq turibmanda... Axir men siz kabi siyosat maydonida ulg‘aymadimki, bunaqa ishlarni osongina bajaraversam...

— Taqsim, buning hech oson-qiyini yo‘q. Zoti oliylari, ozingina himmat bilan bu ishni qila olasiz.

— Qanaqasiga?

— Ya’ni, lutf etsangiz-da, muridlaringizning har biriga Temurning fazilatlaridan va din-u diyonat yo‘lida jonfidoliklari-yu kuyib-pishganidan so‘ylasangiz va ularning ko‘z o‘ngida uni yuksaltsangiz — ana shu bilan, ishoninki, Temur hazratlari uchun qilinadigan eng katta xizmatni himmat-la bajargan bo‘lasiz.

— Agarki bunchalik ekan, unda ikkovimizning ma’naviy farzandimizga aylangan Temur uchun bundayin arizas xizmatni hech paysalga solmasdan bajargaymen...

— Rahmat, taqsim, inshoolloh, bu ishni oxiriga yetkazgaymiz...

— Inshoolloh...

Shunday deya Temurning ikki ustozlari o‘zaro kelishib oldilar.

Zayniddin Abu Bakr Temurga bu gaplarni yetkazgach, u o'z istiqboli uchun ilk urug'lar ekilganini anglab, ustozidan:

– Endi kimning oldiga borursiz? – deya so'radi.

– Olmaliqda mening bir ustozim bor, g'oyatda muhtaram, obro'li zot. Uning huzuriga boraman, etagini o'paman, duo olaman. So'ngra qaytib, kerakli odamlar bilan birma-bir ko'rishish uchun safarga chiqqanim yaxshi, deb o'ylayman. Bu mevali daraxtni kim ekanini kimsa bilmas...

– Ishqilib, o'zingizni ehtiyot qiling. Borgan yeringizda uzoq qolib ketmang...

– Siz unaqa shoshilmang. Peshonaga yozilganini ko'ramiz, hechdan ko'ra kech avlo.

– Yaxshi. Shu vatanni qutqarish uchun harakatni bir kun bo'lsayam oldinroq boshlaganim durust.

– Ma'qul. Endi men boray...

Zayniddin Abu Bakr o'sha kundanoq ishga kirishdi.

Said Sharif ham muridlariga g'oyatda ahamiyatli, ta'sirli va'z-u nasihatlar qildi. Ikkalasining urinishlari ham bir xilda yaxshi natijalar berdi.

Zayniddin Abu Bakr safarga ketgandan keyin Temurga undan bir necha maktub keldi. Doimo Temurning kelajagi uchun qayg'urgan ustozning xatlari aql-u o'gitga to'la edi, ularda Temurning qanday xatti-harakat qilishi kerakligi ochiq-oydin ko'rsatilgandi. Shuning uchun ham Temur maktublardan ayri yasholmay qoldi.

Bir kuni ikki-uch kishi vodiya ketarkan, qon izlariga ko'zlari tushdi. Ular izdan borib, qabrni ochishdi va o'ldirilgan odam jasadini Temurga olib kelishdi.

Temur marhumni tanidi: u Zayniddin Abu Bakr bilan o'zi orasida xat tashib yurgan xabarchi edi. Darhol qo-

ullarni topish borasida buyruq berdi. Ma'lum bo'lishicha, qotil qaroqchilar chegarada yashaydigan eroniyning uyida qo'noq bo'lishgan, so'ngra o'zaro janjallashib qolishgan, hatto bir-birlarini o'ldirishgacha borib yetgan. Faqat bittasi yaralangan holda qutilib qolganmish, biroq qayerga ketgani mavhum.

Temur Zayniddin Abu Bakrning xati Tug'luq tarafdorlari qo'liga tushsa qanday falokatlar yuz berishini o'ylarkan, buni sir tutishga qaror qildi. Eronlik kishini qidirtirib toptirolmagach, ustoziga xabarchi yo'llab, vaziyatning nozikligini tushuntirdi va so'nggi xatini qaytadan yuborishini so'radi. Ertasiga maktubni oldi, o'qidi va unchalar tahlika yo'qligini anglab, ko'ngli tinchidi, bu masalalaga ortiq e'tibor qilmaslikni ep ko'rdi...

Xullas, eroniy Xizrning qo'liga tushgan maktub shu edi...

Bu voqeadan uch kun o'tib, Tug'luq Temur o'z saroyida Qizg'in vazirning qotillari bilan suhbatlashdi. Bu fitnachil iblislarning har biri unga Temurni rosa yomonladi, turli yolg'on-yashiqnlarni so'ylab, hatto uni xoinga, qo'lidan ish kelmas landavurga chiqarib, sulton ko'z o'ngida Temurni yerga urdilar;

– Sultonim, siz bizga ishonib, shu ketishda Temur taxt-u hukmronligingiz uchun balo-qazoga aylanadi! Biz qullaringizni bolaligidan beri bilamiz, u yaramas, sotqin, ipirisqi odam! Temurning saltanatga, sizga sadoqat ko'rsatishi puch gap! Sultonimizning eng ojiz qullaridan biri sifatida shuni arz etayki, unga qanchalar lutf-u marhamat ko'rsatsangiz ham, uni qanchalar suysangiz va qanchalar yaxshilik qilsangiz ham, bularning barchasiga javob berg'addortlik va nonko'rlik bo'lishini ko'rursiz...

– Men Temurni siz aytganchalik odam deb o'ylamasmen, – dedi sulton Tug'luq.

– Ana, attang-u afsus deydigan joyi shunda-da, sultonim! Biz-ku mayli, otning qashqasimiz: ishimiz yashirin, qonli va tahlikali. Sultonim, agar u haqda yaxshi fikringiz bor bo‘lsa, hech shubhasiz, bu o‘rinsiz fikr tezda yo‘qqa chiqajak! Agarda unga zarracha ishonchingiz bor ekan, bilingizki, bu judayam achinarli holdir. Chunki u badkirdor hech qanaqa yaxshi fikrga loyiq emas, u g‘irt xoin, sadoqatsiz bir manfaatparast!..

Shunda Tug‘luq Temur suhbatga aralashmay jim turgan Qoya Alpga qarab:

– Siz nima deysiz? – deb so‘radi.

– Menimcha, har gap ochiq aytildi. Ammo men ularning Temur kuchli emas, degan so‘ziga qo‘shilolmayman.

– Shunday deng? Temur qanday odam, deb mendan so‘ralsa, Temur favqulodda kuchli odam degan bo‘lardim. Aytish mumkinki, Movarounnahr o‘lkasini idora eta oladigan amirlar orasida eng nodiri u, undan yaxshisi yo‘q...

Shu payt xizmatchi kirib, bir eroniyning sulton huzuri-ga kirish uchun izn so‘rayotganini bildirdi. Bu yerdagi bar-cha amirlar tashqariga chiqib ketgach, sulton eroniyning o‘z huzuriga keltirilishini amr etdi.

Eroniy kirishi bilan sulton undan:

– Mendan nima tilaging bor? – deya so‘radi.

– Janobi oliylari bilan bir xususda maslahatlashmoqchi edim. Atoqli kishilaringizdan bittasining sizga xiyonatini isbotlaydigan bir maktub qo‘limga tushib qoldi. Shu xatni sizga sotmoqchiman...

– Juda soz! Qanaqa maktub ekan?

– Janobi oliylari, maktub mana, ichida yozilgan gap-lar juda muhim. Faqat pulini bermaguningizcha ularni bilolmaysiz...

- Tilagingni ayt!
- Janobi oliylari, ozgina...
- Bo'larini ayt!
- Sardorlikka tayinlasangiz devdim...
- Bo'ldi, sen bugundan boshlab sardorsan!
- Xudo umringizni uzun qilsin, sultonim...
- E, gapni cho'zma, maktubni ber! Nega yana to'nka-day qimirlamay turibsan?
- Sultonim, yana bir talabim bor edi-da...
- So'yla, nima deysan?
- Janobi oliylari, oilamni Erondan bu yoqqa ko'chirib kelish va ularning bunda yashashini ta'minlash uchun ming oltinga ehtiyojim bor-da...
- Ming oltin seniki, qani, maktubni ber endi!
- Ulug' sultonim, yana kichkinagina bir tilagim bor edi...
- E, lo'liday tilanding-da, yana nima kerak senga o'zi?
- Anavi kuni yarador bo'lib qo'lga tushgan qaroqchi-ning gunohidan kechsangiz...
- Tushunarli...
- Ming rahmat, janobi oliylari!..
- Tug'luq sulton xizmatchini chaqirdi. Unga:
- Bu odamga ming oltin ehson etilsin, sardorlikka tayinlansin, kechagi kuni qo'lga olingan qaroqchi ozod qilinsin va unga topshirilsin, – deya buyurdi.
- Bosh ustiga, zoti oliylari! – dedi xizmatchi.
- Eroniy maktubni ikki qo'llab Tug'luq Temurga uzatarkan:
- Sultonim, mana maktub, – deya ta'zim qildi.
- Xizmatchi va eroniy tashqariga chiqishdi.
- Tug'luq Temur maktubni o'qib, o'ylanib qoldi. Unda shu so'zlar bitilgandi:

„Temur, o‘g‘lim!

Sabr qil, bolam, hukmdorlik fani shartlaridan biri sabr va sabotdir. Boshqa bir sharti esa ko‘rganingni ko‘rmayotganday qilib tutmoqdir. Yanayam to‘g‘rиси, bilganingni bilmaganday bo‘lib ko‘rinmoqdir.

Zayniddin“.

Xatning ma‘nosi ayon. Sulton Tug‘luq bu satrlarda o‘ziga qarshi biror xiyonat yo yomonlik belgisini ilg‘amadi.

Bir muddat o‘tgach, u sal avval chiqib ketgan fitnachilarning huzuriga chaqirtirdi va maktub bilan ularni tanishtirdi. Bu xatda o‘ziga zarar keltiruvchi hech nima sezmagani aytarkan, Temurdan shubhasi borligini sha‘ma qilishni ham unutmadi.

Yonidagi fitnachilar fursatni boy bermaslikka tirishib, shosha-pisha Temurni yomonlay boshlashdi.

– Zoti oliylari, biz sizga aytuvdik-ku axir, uning chayonligini...

– Uning basharasini ochib tashlaganimizga qaramay, Temurning xoinligini isbotlab bersak ham, siz uni himoya qilayotgan edingiz-a, sultonim!..

– Undoq esa men ham Movarounnahr hokimligini o‘g‘lim Ilyosxo‘jaga berdim! – deya fikrini tamoman o‘zgartirdi sulton. – Amrim shu, bugunoq hukmdorlik yuritish uchun yo‘lga chiqsin!

Har biri o‘z manfaati uchun yelib-yugurgan, har ishdan o‘ziga biror narsa undirib o‘rgangan fitnachilar bu buyruqdan hayron bo‘lib qolishdi. Tug‘luq Temurning xayolida esa „hovuchi qon to‘la tug‘ilgan“ degan ibora charx urardi va ichida bu so‘zni takrorlard, ammo buni atrofidagi odamlar eshitmayotgandi, albatta.

Sulton huzuridagi fitnachilarga qattiq qarab:

— Hovuchi to‘la qon tug‘ilgan kim o‘zi? Kim bo‘lishi mumkin? — deya so‘radi.

Sultonning vazohatidan, bu kutilmagan so‘roqdan barcha vahimaga tushib, zir-zir titradi va bari bir og‘izdan:

— Temur, zoti oliylari! — deya javob berishdi.

Bu javobda yashirin bir ma‘no bor edi, ammo buni sulton ham, fitnachi beklar ham bilishmasdi.

XI. SULTON TUG‘LUQNING BUYRUG‘I

Chig‘atoy mamlakati hukmdori sulton Tug‘luqning o‘g‘li Ilyosxo‘janing boshiga ham birdan baxt qushi qo‘nib, Movarounnahrğa hokim etib tayinlandi.

Temur o‘zining sulton nazaridan qolganini anglar-anglamas, darhol hushyor tortdi va ustozı Zayniddin Abu Bakrğa yanada qattiqroq bog‘lanib, faqat uning o‘gitlari va maslahatlari bo‘yicha ish tutmoqqa kirishdi.

Masalan, ustozı yozgan va Tug‘luq sulton qo‘liga tushib qolgan o‘sha maktubning takroriy nusxasidagi ikkinchi o‘g‘itni, ya‘ni hukmdorlik shartlaridan yana biri „o‘zingni ko‘rganingni ko‘rmayotganday qilib tutmoqdir. Yanayam to‘g‘risi, bilganingni bilmaganday bo‘lib ko‘rinmoqdir“ — deyilgan maslahatga amal qildi.

Temur shuning uchun ham hokimlik va hukumat ishlarini loqaydgina tark etdi va o‘zini faqat harbiy sohaga bag‘ishladi.

Holbuki, Ilyosxo‘ja Movarounnahrğa yo‘nalarkan, fitnachi beklar guruhini ham birga olib keldi. Talonchilik qilib yashashga o‘rgangan bu odamlar vahshiyona g‘ayrat bilan mamlakatni o‘marishga kirishib ketishdi.

Qiyinlgan aholi arz-u shikoyatlarini aytib, har qancha taryod-u fig‘on ko‘tarmasin, bu zolim o‘g‘rilar zulmidan qutulish mumkin bo‘lmayotgandi.

Ilyosxo'ja esa qo'li bog'liq qo'g'irchoqday, har qanday hokimiyat va nufuzdan mahrum edi.

Fitnachi va yag'mochi beklar guruhi xuddi qo'y posdasiga yopirilgan och qashqirlarday, tinmasdan xalqni qiy-ratardi, ular kirmagan eshik, talamagan uy qolmagandi. Ilyosxo'ja bu bo'ri galasi xalq qonini to'kayotgan may-donda qo'lidan hech ish kelmaydigan jonsiz qo'riqchiga aylangandi...

Agarda harbiy hokimiyat Ilyosxo'ja qo'liga o'tgan taqdirda ham, baribir u o'zi yonida olib kelgan tarafdorlariga qarshi qilich ko'tara olmasdi.

Ilyosxo'ja o'lkani to'ldirgan buncha faryod-u shiko-yatlarni eshitgani, ilg'agani bilan yig'layotgan chorasiz-larga, yer-u yurtsiz qolganlarga, vatani talangan va vayron etilgan bu zavolli xalqqa ko'mak ko'rsatishga imkonsiz edi... Yo'lidan adashgan yo'lovchiday nima qilishini bilol-may garang edi.

Bir tarafda – yordam beradi, degan umidda o'zi bilan birga olib kelgan anavi boshibuzuq, talonchi beklar; ular endi uning so'ziga kirmay qo'yishgan, itoatsiz va isyonchi to'daga aylangan edilar.

Bir tomonda esa – aynigan, chirigan boshqaruvchi – umaro; ular Ilyosxo'janing so'zini eshitishadi-yu, eshitma-ganga olishadi, hokimiyatni idora etishda Temurdan o'tib ketay, deya bergan buyruqlarini bajarishmaydi, faqat o'z foydalarini ko'zlab ish tutadilar...

Bechora Ilyosxo'ja ikki masjid o'rtasida tahoratsiz, ovora-yu sarson yugurayotgan, ammo birortasiga ham ki-rolmayotgan benamozga o'xshardi.

Biroq Temurni yordamga chaqirishni o'ylasa ham cha-qira olmas, bunga g'ururi yo'l qo'ymasdi. Fitnachi beklar guruhining o'g'irlig-u talonchiliklariga esa qarshilik ko'r-satolmas, kuchi yetmasdi.

Ustiga-ustak, qachondir otasining huzurida xijolat bo'lishini o'ylarkan, qo'rquvdan asabi buzilib, vujudi isitmada yonganday o'rtanib, dir-dir titrardi...

Nihoyat, bir hiyla o'ylab topdi: butun bu yomonliklar, talonchiliklar va o'g'irliklarni Temurning ustiga ag'daradi qo'yadi!..

Ilyosxo'ja Temurning nomidan bir maktub tayyorlatdi-da, maslahatchilarini huzuriga chaqirtirdi.

— Ana endi barcha muammo hal bo'ladi!.. — dedi.

— Qanday tarzda, zoti oliylari?

— Biroz avval huzurimga bir darvesh kirdi, juda muhim hujjat keltiribdi, yolg'on emasligi ko'rinib turibdi...

— Qanaqa hujjat ekan, oliy hazrat?

— O'lkamizda isyon va g'avg'o chiqargan boshibuzuqlarga doir hujjat!

— Siz zoti oliylarining bir kuni, albatta, muammolarni mana shunday hal qilishingizni oldindan sezgandik, barcha qullaringiz buni bilib yurardik...

— Ha, bu safar ham g'avg'olarni kim tashkil etganini aniqladim.

— Kim ekan?..

— Bu mamlakatda barqarorlik, tinchlik va farovonlik hukmron, xalq huzur ichida yashayotgan, kimsaning mushugini birov pisht demayotgan bir paytda...

— Haqqost rost, zoti oliylari, to'ppa-to'g'ri!

— Buni men bilgandim, bunchalar dod-voyning sababini ilg'agandim. Xalq osilyapti-kesilyapti, talanyapti, ezilib ketdi degan gaplarning hammasi yolg'on!.. Qani, qani birorta misol keltiringlar-chi? Yolg'on emasmi axir bu bo'htonlar, tuhmatlar?..

Ilyosxo'janing bu yolg'onchiligiga amirlar ichidan faqat bir kishi e'tiroz bildirdi:

– Xalqning noroziligi, shikoyat-u faryodlari bu gapning to‘g‘riligiga dalil-u isbot emasmi?

– Kim u, qaydan chiqdi bu telbanamo gap!.. Ularning u isbotlari, u dalillarining barchasi yolg‘on! Xalqning hech qanaqa dardi yo‘q axir, bundan ham yaxshi hayot bo‘ladimi, ayting, baraka topgurlar! Bunaqa ig‘vo gaplarni chiqarayotganlar – anavi alamzada Temurning odamlari...

– Yopiray!.. Rostdan-a?

– Haqqost rost! Qo‘limdagi hujjat buning isbotidir! Mana, bu Temurning xati, bu xatni men uydirdanim yo‘q...

Maslahatchilar to‘planishib, maktubni o‘qishdi. Unda shu so‘zlar bitilgandi:

„Endilikda men o‘zimni hech narsani bilmayotganday tutmoqdamen va zimdan muhim bir ishga kirishib, Ilyosxo‘janing o‘z tobelari tomonidan o‘ldirilishini kutmoqdamen“.

– Zoti oliylari, agar bu Temurning amri ersa, buni otangizga bildirishingiz kerak, yo‘qsa hayotingiz xavf ostida demakdir...

– Men ham otamga bu haqda nima deb yozsam ekan, – deya sizlarni maslahatga chaqirdim. Fikrlaringizni ayting.

– Janobi oliylari, bu masalani judayam tez otangizga bildirishingiz lozim! Uning o‘limini talab eting!..

– To‘g‘ri, sultonimiz amr etsinlar, biz bu yerda uning boshini kesaylik!

– Bag‘oyat to‘g‘ri, uning o‘limini tilash munosibdir...

Shu paytgacha bir qarorga kelolmayotganday turgan Ilyosxo‘ja nihoyat:

– Ma‘qul, men uning o‘limini talab qilaman, – dedi. – Ko‘ramiz, otam ne derkin.

Majlis tugab, yig‘ilganlar tarqalgach, Ilyosxo‘ja otasi Tug‘luq sultonga xat bitdi. Unda shu gaplarni yozdi:

Bu yerga kelar-kelmas eski hokim Temurning qarshiligiga uchrab, boshim fitna-yu g'avg'odan chiqmay qoldi. U tinmasdan xalqni isyonga tashviq etmoqda va mamlakatda qo'zg'olon ko'tarmoqqa intilmoqda. Bu falokatlarining oldini olish uchun Temurni o'limga buyurishingizni so'raymen, deb

Ilyosxo'ja".

* * *

Bu voqeadan uch kun o'tgach, Temur mavjud vaziyatni tahlil etarkan, mamlakatni ortiq bu holda boshqarib bo'lmastligini anglab, bu boshboshdoqlikka chek qo'yish kerak, degan qarorga keldi. Zotan, o'z kuchini, nufuzini ko'rsatish payti kelgandi. Yerli turkiy aholiga bosqin uyushtiraverib ularning joniga tekkan ayrim urug'larga hujum qilib, ularning adabini berib qo'ydi va mazlum ommaning zulmdan qutqarishga erishdi.

Butun xalq Temurni olqishlay boshladi, ommaning undan mamnunligi tillarda doston bo'ldi. U esa sevingan xalqning hurmat-u maqtovlariga javoban:

— Temur ham Tangrining bir quli... — deya tavoze ko'rsatar, millatga xizmat qilish burchi ekanligini ta'kidlar edi.

Bunga sari unga el mehri ortgandan ortib borardi.

Temurni haddan ziyoda yaxshi ko'rguvchi olim-u ulamo uning urushdagi zafar-u muvaffaqiyatlaridan xursandliklarini ichlariga sig'dirolmas, omma to'plangan har yig'noqda uni maqtashar, uni Abu Mansur deya ulug'laylik, deya xitob aylashardi. Said Sharif Jurjoniyning naqshbandiy muridlari ham xalq orasida uning fazl-u qahramonliklaridan so'ylashardi, natijada, Temurning obro'si oshib, shuhrati keng yoyilib bormoqda edi. Fitnachi-yu qaroqchi-

larga aralashib qolgan kimsalar ham, hatto raqiblari ichida ham Temur to'g'risida favqulodda samimiy, yaxshi fikrlar tarqala boshlagandi.

Temur Movarounnahrda o'z o'rnini mana shunday zafarli muvaffaqiyatlar bilan mustahkamlab olgan bir chog'da, sulton Tug'luq huzuridan yo'lga chiqqan bir otliq arg'umog'ini to'xtamasdan uchirib borar, tog'-u toshlardan, dara-yu vodiylardan, tepalardan oshib, qush kabi manzilga intilmoqda edi.

Otidan, o'zining badanidan ter quyilayotganiga qaramasdan, u hovliqib oshiqar, ot jonivorni yanada tezroq chopishga undab, g'addorlarcha ayovsiz qamchilardi. U ana shunday tezlik va shiddat bilan og'ir yo'llardan ham yengilgina o'tib borardi... Suvoriyning bu shavq-u shiddati go'yo barcha makonlarni hayratga solganday, ular uni quchoq ochib kutib olayotganday edi. Biroq hovliqqan otliq bir yerda qo'nim topishni istamas, makondan makonga shoshilar edi...

Bu shaxs sulton Tug'luq xizmatiga yangi kirgan, qalbi toza, yosh, kuchli va jasur, fe'li to'g'ri odam edi. U Movarounnahrda, ko'zlagan maskaniga yetgach, soqchiga amirni ko'rmoqchi ekanligini aytdi. Soqchi esa uni Temurning huzuriga yetakladi. Chunki Ilyosxo'janing oti bor-u o'zi yo'qday edi, bechora mamlakat hokimi atalsa ham, zarracha obro'si qolmagandi. Agar u oldin Temurning o'limga buyurilishini istab, otasiga maktub yozmagandaydi, yuz bergan voqealardan so'ngra, hech shubhasiz, Tangri taolodan Temurning jahannamga jo'natishini tilardi... Ilyosxo'ja Temurni shunchalar yomon ko'rib qolgandi; aslida, uning ko'nglini hasad-u nafratga to'ldirgan, esidan og'dirayozgan sabab Temur emas, uning qozongan g'alabalari, erishgan muvaffaqiyatlari edi...

Kullas, soqchi xabarchini Ilyosxo'janing emas, Temurning huzuriga olib bordi. Zotan, xabarchi Ilyosxo'jani tanimasdi, u amirni ko'rmoqchiman, der-demas, darhol Temurning oldiga kiritganlari uchun, uni hokim deya o'ylab, qo'ynidagi maktubni Temurga uzatdi.

Temur xatni ochmasdan turib undan:

- Qaydin kelursen? – deb so'radi.
- Sultonning yonidan, – dedi xabarchi.
- Bu sultonning buyrug'imi?
- Ha.
- Juda soz! Chiqaver...

Shunday deya Temur xatni ochib o'qidi. Unda shunday yozilgandi:

„O'g'lim,

*Sen istaganingday Temurning o'limiga buyruq berildi.
Hukmni bajarish esa senga havola.*

Tug'luq Temur“.

XII. TAKAL BAHODIRNING QO'SHINI

Oradan o'n-o'n besh kuncha o'tdi; Takal Bahodir qo'l ostidagi o'n ming askar bilan Turkiston janubidagi tog'lar ichidagi og'ir yo'llardan o'tib borardi...

Takal Bahodir – Sulton Tug'luqning eng atoqli umarlardan biri, ko'p janglarda zafar qozongan yosh qo'mondon, arslon kabi kuchli shaxs.

Uning qo'shinidagi askarlarning aksari urushlarda pishgan, ayrimlari qaroqchilar to'dasidan chiqqan, tanlangan, xalq ichida dong'i ketgan yag'mochi qahramonlardan iborat edi.

Tug'luq Temur bir kuni Takal Bahodirni huzuriga chaqirtirdi.

– Seni g‘oyat muhim bir jangga yuboraman, ammo al-batta g‘alaba qozonishing shart! – dedi.

– Urushda g‘alabaga erishish tole va qismatga bog‘liqdir, sultonim, – dedi u.

– Nima qilib bo‘lsayam shu jangda yutib chiqishing shart! – deya ta’kidladi sulton.

– Bizning qo‘limizdan keladigani shuki, jangda zafarga erishish uchun ehtiyotkorlik bilan harakat qilib, bor hiyla-yu jasoratimizni ishga solib, yurishni boshlashdir...

– Men senga jang deyapman! Bu urush oliy maqsad yo‘lida qilinmoqda, shuni yaxshi bil!

– Bu urush kimga qarshi o‘zi?

– Janubdagi tog‘larni makon etgan qabila va urug‘larga qarshi.

– Ularni tor-mor etgandan so‘ng ne bo‘ladi?

– Albatta, u yerlar seniki bo‘lmaydi, sening vazifang u qavmni yo asir olishing va yoxud qirib tashlashing, qisqasi, mag‘lub etishing shart! Faqat shuni bajarasan, qolgani bilan ishing bo‘lmasin, tushundingmi? – dedi Sulton Tug‘luq.

– Ha. Bu ishni bajaraman, ammo ba’zi shartlarim bor... – dedi qo‘mondon Takal Bahodir.

– Yo‘q! Menga shart-part dema! Bir amir urushda qiladigan ishini shart-sharoit demasdan bajarishga majbur! Bajarasan, tamom-vassalom!

– Albatta bajaraman, sultonim!

– Vazifangni obdan bilib olding, qani, endi ishga kirish!..

Takal Bahodir sulton huzuridan chiqqanidan keyin urushga tayyorgarlikni xayoligayam keltirmadi, bemalol ayshini surib yotaverdi. Hukmdor ikki-uch kun kutgandan keyin, uning nega jangga ketmaganini surishtirish

uchun odamlariga amr berdi. Takal Bahodir esa kimsaga ko'rinmas, berkinib olib, jo'nashi kerak bo'lgan bu ofat-ug'avg'oga borishni xohlamaganini sezdirib qo'yishni istardi. Nihoyat, bir kuni sultonning odamlari Takal Bahodirni topishdi. Tutilgan joyida uni qisti-bastiga olishdi. Ma'murlardan biri unga:

– Iye, bir qahramon qo'mondonga sultoni amr etsa, u buyruqni jon-jon deb bajarmaydirmi? Sening shu qilig'ing joizmidir? – dedi.

Yana biri:

– Haqiqatan ham, sultonning amriga itoatsizlik etib katta gunoh qildingiz! – dedi.

– Buning sizlarlarga hech bir aloqasi yo'q, ishingiz bo'lmasin. Ha, endi Tug'luq Temur hazratlari meni chaqirtirdilarini? – deya so'radi Takal Bahodir.

– Ha, taqsir!

– Yaxshi, sizlar ketavering, men o'zim boraman...

– Afsuski, bu amringizni bajara olmaymiz...

– Nechun? Mening so'zimga kirmasdan, yomon ish qilayotganingizga aqlingiz yetmayaptimi, a? Mendek bir qo'mondonning buyrug'iga itoat etmasdan, sizlarni o'ldirishga haqqi-huquqi bo'lmagan bir kattakonning amriga bo'yinsunganingiz, bilingki, mudhish bir ayb! Holbuki men, bir o'ylab ko'ring axir, meni o'ldirmoq va yo'qotmoq huquqiga va tushunchasiga ega bo'lolmagan bir odamning oldiga shu churuk askarlar bilan qanday bora olurman va bu xususda, Sulton Tug'luqni-ku qo'yaturing, hatto shu jahonning jahongiri buyurganda ham, uning uddasidan qanday chiqa olurman...

– To'g'ri aytyapsiz, taqsir, gapingizda jon bor...

Avvaliga Takal Bahodirga o'dag'aylab, uni sultonning oldiga borishga zo'rlagan kaltafahmlar endi „Juda to'g'ri

aytyapsiz, taqsir“ – degan soʻzni takrorlaganlaricha, uning fikrini tasdiqlashga oʻtishdi. Takal Bahodir fikrini davom ettirib:

– Sulton Tugʻluq nechun boshqasini yubormadi? A?.. Chunki sizdan boshqa bu ishni qiladigan biror kimsani topolmadi! Tuushundingizmi?.. Ha, faqat birgina Temur bor edi, biroq u ham... Ha mayli. Ana endi siz ham koʻrib turib-sizki, u bu gʻavgʻoni hal etish uchun munosib bir qoʻmondonni tanlashga majburdir! Xoʻsh, ahvol shunday ekan, nechun menga askar tanlashga ruxsat bermayapti?!

– Soʻzlaringiz juda toʻgʻri, taqsir... – deya chuldurashdi vakillar.

– Unda chiqing-da, keting! Men ham boraman...

– Yoʻq, taqsir, biz bu yerdan hech qayoqqa ketolmaymiz...

– Xoʻp, unda ayting, sulton meni nega chaqirtiryapti?

– Sizning nega jangga ketmaganingizni soʻramoqchi...

– Yaxshi. Modomiki masala shu arzimagan gap ustida ekan, sizlar endi bunda qolmang, joʻnang, men ham ortingizdan boraman...

– Biz sizsiz hech qayga borolmaymiz, taqsir...

– Nechun?

– Chunki sizni qayerdan topsak ham darhol sulton huzuriga olib borish bizga topshirilgan... Hech narsa bunga mone boʻlolmas, sizni kimsa qutqarolmas...

– Men sizdan qutilishni juda yaxshi bilaman...

– Bizni oʻldirgandan keyin, balki, qutularsiz...

Takal Bahodir nihoyat borishdan boshqa chora yoʻqligini anglaganday bir ohangda:

– U holda, mayli, qani, ketdik, – dedi. Uchovlon yoʻlga tushdilar va sulton huzuriga yetib bordilar. Sulton ikki vakilga bir hamyondan oltin ehson qilganidan keyin, endi bo-raveringlar, – deya amr etdi va Takal Bahodirga boshdan oyoq razm soldi. Soʻngra zardali tovushda:

– Asir va yoxud bizga sig‘inganlardan keltirmadingmi? – deya so‘radi.

– Qanaqasiga, hazratim? – deya o‘zini go‘llikka soldi Takal Bahodir.

– Yo‘qsa mag‘lub bo‘ldingmi?

– Qayerda?

– Seni jangga yuborgandim, to‘g‘rimi?

– To‘g‘ri...

– Nima qilding?

– Men jangga bormadim.

– Nechun?

– Chunki ko‘rib-bilaturib o‘zimni ajalga urmayman, u qadar aqlsiz, tentak emasman.

– Sulton senga amr etmoqda!

– Sulton menga amr etmoq haqqiga ega ekan, men ham shonli bir o‘lim topmoq, bu imkondan foydalanmoq huquqiga noilman. Sultonim, bir qoshiq qonimdan kechib, o‘ylab ko‘ring axir: yag‘mogarlikdan boshqa bir ish qo‘lidan kelmaydigan sahroyi xalqni men qay usulda idora etib, u bilan qanday jangga kiraman? Buning uchun zoti oliylariga ba‘zi shartlarim bor, degandim, afsuski, tinglamak istamadingiz; amringizni bajarishni ortga surmakdan maqsadim esa ayni daqiqalardagi suhbat bo‘luvini taxmin etib, buni kutayotganim edi...

– Shartlaringni so‘yla, – dedi sulton insofga kirib.

– Jangga boradigan askarlarni o‘zim tanlayman.

– Juda soz. Bor, qo‘shinning ichiga kirib, istaganingni tanlab olaver.

– Xo‘p bo‘ladi, sultonim.

– O‘n ming kishini amringga beraman.

– Ikki mingta askarni tanlab olsam, menga o‘sha yetarlidir, sultonim, ular bilan o‘z vazifamni bajara olurman...

– Juda yaxshi, unda boraver, Tangri yo‘lingni bersin...

Tug'luq Temur shu so'zlarni aytishi bilanoq Takal Bahodir uning etagini o'pdi. Sulton tashqaridan bir xizmatchisini chaqirdi.

– Qo'mondonga bir ot, urush anjomlari bilan o'n ming oltin berilsin! – dedi.

Shunday qilib, Takal Bahodir janubdagi tog'liklarga qarshi yurishga kirishdi. Tog'-toshlik, qiyalik tor yo'llardan qo'l ostidagi qo'shini orasidan tanlangan ikki ming askarining mahorati bilan bir amallab olib o'tdi.

Tepalardan oralab, qoyaliklarga yaqinlashib borisharkan, birdaniga guvullagan dahshatli tovush taralib, oyoqlari tagidagi yer silkinib yorildi, barcha vahima-yu chang-to'zon ichida qoldi. Zilzila falokatidan qutulib, hayajonlari bosilib, yana yo'lga tushdilar. Hujumga kirishdilar. Ammo bu safar xira chang-to'zonga emas, yarqiragan qattol qilichlarga duch keldilar. Askar tumtarqay qochdi. Shu kulfatli damlarda Takal Bahodir ko'ksidan qilich zarbasi yeb, qoni oqqanicha yerda yumalab yotardi...

Urushda tog'liklar zafar qozondi. Jang maydonida muzaffarlik nashidasi ila kezisharkan, ayrimlari yaradorlarini va qurbonlarini tashib-to'plamoqqa kirishgan edi.

Takal Bahodir ingranib, yarim hushsiz yotgan yerga bir notanish jangovar yaqinlashdi. Yovqur tovushda:

– Sen bu qaroqchilarning boshlig'imisan? Sulton Tug'luq menga qarshi seni yuborganmidi? – deya so'radi.

– Ha, – deya Takal Bahodir notanish shaxsga o'girilib qaradi.

– E, Takal, sen-a, sen menga qarshi jang maydoniga tushdingmi hali!.. Shundaymi? – deya g'azab-la so'radi.

Takal Bahodir qarshisidagi kishini tanir-tanimas, uni quchoqlab ko'rishmoqqa chog'landi, ammo boshini sal ko'tara oldi, xolos – ko'p qon yo'qotgandi, majolsizlikdan

boshi shilq etib yana yerga tushdi. Notanish jangovar yaqinlashib, egilib, uni mehr-la bag'riga oldi...

Takal Bahodir uning qulog'iga shivirlab, afsus-u pushaymonini anglatmoqqa tirishdi:

– Qondoshim, senga qarshi qurol ko'tarish... biroq men bilmagandim... kechir meni... – derkan, og'zidan qoni keldi. Hiqillab, nafasi tiqilarkan, so'nggi so'zi otilib chiqdi: – Alvido, Temur...

XIII. O'LIM HUKMIDAN SO'NG

Sulton Tug'luq tarafidan bitilgan o'lim hukmining favqulodda Temurning qo'liga tushib qolgani xalq orasida u haqdagi gap-so'zlarni ko'paytirdi, uning shuhratini oshirib yubordi. Zotan, Temur qonuniy hukmdor bo'lgan Tug'luq sultonga doimo sodiq edi, hech qachon itoatsizlik ko'rsatmagandi... Chunki Temurning o'zi to'g'ri va odil odam edi, jinoyat va pastkashlikdan judayam hazar qilardi, agarda shar'iy hukmdorga qarshi bosh ko'tarsa, el ichida obro'sizlanishini yaxshi bilardi. Shuning uchun ham u har zamon odamgarchilik yo'lida sobit edi.

Ammo endi vaziyat boshqacha tus olgandi. Agarda isyonga bosh urib darhol qochmasa, o'ldirilishi kunday ayon. Zotan, o'lim hukmi bitilmish. Ammo isyondan keyingi vijdon azoblarini ko'tarib yashash ham bor... Hech qursa bir tasalli topilar degan niyatda u ulug'lar bilan maslahatlashdi. Naqshbandiy ulamodan biri Said Sharifga murojaat qilib:

– Holatim sizga ayon, o'zimni saqlash uchun bir ayb yo isyon etsam, jazoga mustahiq bo'lurmanmi? – deya so'radi.

– Shu ahvolingda jazoga tortilmaysan, chunki jonni tahlikaga qo'yish shar'an joiz emas. Xususan, agarda sen

qochmasang, o'ldirilasan. Shu bois qochganing maqbuldir, – dedi Said Sharif.

– Qanday...

– Qanday bo'lsa bo'lsin... Qochish, isyon, ya'ni bo'ysunmaslik... qo'zg'olon...

– Hozirchalik qo'zg'olon ko'tarishga imkon yo'q. Ammo qochish... ha, qochish ham – bo'ysunmaslik-ku? Bundayin isyonga haqqimiz bormi?

– Nega bo'lmasin, bor. Barlos sulolasining nufuzi va haq-huquqini ulardan qaytib olish, barloslar urug'ini kuchaytirish sizlarning haqqingiz va vazifangiz emasmi?

– Bunga hozirda haqqim bo'lgani kabi kelajakda ham haqqim bormi?

– Oxiratgacha haqqingiz bor!

– U holda, men bu maqsad yo'lida o'zimni, butun umrimni bag'ishlayman! Biroq siz bu ishda menga yordam berasizmi? – deya so'radi Temur muhtaram ulamodan.

– Albatta. Biz bu yerda yuksalishingizning ta'mini uchun qulay vaziyat yaratishga urinamiz... – dedi Said Sharif.

Shunday qilib, sulton Tug'luq bilan aloqa uzilganidan keyin, Temur qilichidan boshqa hech nega suyanmaslikka qaror berdi. Takal Bahodirni mag'lub etganidan so'ng uch yilga yaqin umri qahramonlarcha jang maydonlarida kechdi. Ko'rsatgan harbiy jasorati va mahorati bilan Movarounnahrda va hatto Eron taraflarda oliy shuhratlar qozondi. Nomi tildan tilga o'tib, mashhuri zamon qahramonga aylandi. Shu bilan birga, avvalgi qadrdonlaridan ayrilmadi, bergan so'zlariga sodiq qoldi, ulamolar va Movarounnahr xalqi bilan ham aloqa-yu munosabatini yanada jipslashtirdi. Bular tufayli uning shavkati ortgandan ortdi.

Shu paytlarda Temur Samarqanddagi ulamo Alishohdan maktub oldi. Bu xat Temurning istiqboli nazarda tutilib yozilgandi. Temurning ko'zlari istiqbol nash'asidan charaqlab, o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Azbaroyi hayajonlanganidan, ko'ngli kelajak xayollari bilan qaynab-toshib, ehtiyotkorlikni ham unutib, rafiqasini otining orqasiga mindirdi-da, Samarqand yo'liga tushdi.

Tumanli havo atrofga rutubat va nam yoyar, ko'kda oq bulutlar u yoqqa-bu yoqqa yengil-yengil uchar, oftob esa rutubatli hovurga o'ralgancha, ba'zan kulib yuz ochar, ba'zan paxtaday bulutlar orasiga kirib ketar edi...

Kecha yog'gan yomg'ir yerlarni, xususan, Turkistonning serhosil, qizg'ish tuprog'ini loy daryosiga aylantirgan, yurish o'ta qiyinlashgan, oyoqqa yopishayotgan palaxsa-palaxsa loy odim otishga monelik qilar edi.

Otining orqasiga xotinini mindirib olgan Temur shundayin rasvo kunda, loyga botib bo'lsa-da kerakli manzilga yetib borish uchun oshiqmoqda.

Ot ham charchadi. Rafiqasida istirohat istagi paydo bo'lganini sezgan Temur otidan tushdi. Xotinini ham yerga indirib, otni o'tlasin uchun ozod qo'yib yubordi. So'ngra qarshidagi daraxtzor sari yo'naldi.

Ot yomg'irdan so'ng tirilgan, yarqirab yashnagan o'tloqda yayrab o'tlab yurarkan, Temur va xotini oyoqlarining chigilini yozib, dam ola boshlashdi. Biroz suhbatdan so'ngra cho'zilishdi va ko'zlari ilindi.

Yarim soat o'tmay noxushlanib uyg'onishdi; atrofda sharpalar kezib yurganini, otning olib ketilganini sezishdi. Birdan allakimlarning shundoqqina boshlariga kelib, tikka turganligini ko'rishdi. Bir kimsa sovuq tovushda:

– O'ringdan tur! – deya buyurdi.

Temur va rafiqasi oyoqqa turmoqqa intilishdi, biroq tipirchilab-tipirchilab holdan toyishdi. Zotan, oyoq-qo'llari bog'langan, qimirlashga majollari ham qolmagandi. Shunda Temur ularga qarata:

– Bizdan nima istaysizlar o'zi? – deya so'radi.

Ammo unga hech kim javob bermadi. Vujudiga chirmalgan kamand iplari bo'ynini tobora siqib bormoqda edi. Notanish bosqinchilar to'satdan Temur bilan xotini ni yelkalariga olib, biroz yurishdi; asirlarni xurjun misoli osiltirib otlarga ortdilar-da, ulovlariga minib yo'lga tushdilar.

Hech bir gap-so'z, churq etgan tovush eshitilmasdi. Azob-uqubatli yo'ldan so'ng boshliqlarining huzuriga olib kirishdi. Burchakda kekkayib o'tirgan qaroqchilar boshlig'i bir mulkdor boy edi. Uning baqraygan va alang-jalang ko'ziga qaraganda, shahvatparast, xotinboz kimsa ekanligi ko'rinib turardi. Boy Temurga tepadan qarab, kamoli g'urur bilan:

– Bu kiming bo'ladi? – deya so'radi.

– Rafiqam, – dedi Temur.

– Qaydan kelyapsan-u qayga borasanlar?

– Biz samarqandlikmiz. Biroz sayohat qilmoqchi bo'lib, aylanib chiqqan edik...

– Hozir qayga boryapsanlar?

– Samarqandga qaytyapmiz.

– Unda, xo'sh, bizning otlarimiz o'tlab yurgan dalada nima uchun to'xtab, otlaringizni bebosh qo'yib yubordingiz?

– Bu mulk sizniki ekanligini bilmovdik...

– Nega bilmaysizlar?..

Boy shu so'zlarni ayta turib, imlab, o'z odamini chagirdi, unga O'ljayni ko'rsatib, qulog'iga nelardir deya pichirladi.

– Xo‘p, bo‘ladi, – dedi xizmatchi.

Boy nariroqdagi odamlariga qarab:

– Buni tashqariga olib chiqing! – deya buyurdi.

Temur jon-jahdi bilan qarshilik ko‘rsatishga urinsada, eplay olmadi. Atrofdagi temir panjali yovuzlar uning bog‘liq qo‘llaridan tutib, sudray-sudray chodir tashqarisiga olib chiqishdi.

Bir muddat tashqarida kutib turishgach, ichkaridan eshitilgan buyruqqa ko‘ra, Temurni boshqa bir chodirga olib kirishdi va yuztuban yotqizib qo‘yishdi.

Temur xotining yolg‘iz qolganini o‘ylarkan, yuragi sanchdi va zo‘rg‘a o‘rnidan turib, chodir eshigigacha bordi. Tashqarida, bir necha ayol qurshovida rafiqasining o‘tib ketayotganini ko‘rdi. Bir zum ko‘z ko‘zga tushdi, O‘ljay imo bilan biroz sabr qilishi lozimligini anglatdi. Shunda birdan Temurning boshi aylanib, chodir ichida yiqilayozdi...

Bundan salgina avval, boyning chodirida u bilan yolg‘iz qolgan O‘ljay Turkan esa hech narsa yuz bermaganday, qarshisidagi kimsaga loqayd, irodasiga hokim, viqor bilan jim turar edi. Bundan ozorlangan boy g‘azabini xizmatkorlariga sochib:

– Bu xotinning qo‘llarini nega yechmaysanlar? – deya o‘shqirdi.

– Taqsir, bu eridan ham yomon, ehtiyot bo‘lish kerak! – dedi bir xizmatchi.

– Yech, eshshaklar! – deya bo‘kirdi boy. – Shunday chiroyli vujud, oppoq qo‘llar kamand iplari orasida ezilishi to‘g‘rimi?

– Xo‘p, taqsir, mana, hozir yechamiz...

Xizmatdagilar ayolning qo‘llarini bo‘shatisharkan, qattiq vahimada bir-birlariga alanglab qo‘yishardi. Ular-

ning ko'zlaridagi qo'rquv mash'alasi juda katta gunohlarga botganliklarini, qotilliklar qilganliklarini ko'rsatib turardi. Ular titrab-titrab kamand iplarini yechishdi va xudparast, o'zicha mag'rur boshliqlarining amrini kuta boshlashdi. Bari tilanchiday bo'yni bukik, mute edi. Nihoyat:

– Sizlar endi jo'nang! – deya buyurdi boy.

Hamma chiqib ketdi. Qaroqchilar boshlig'i va O'ljay yolg'iz qolishdi. Boy unga hurmatini bildirayotganday iltifot ko'rsata boshladi. Bu Temurning rafiqasiga umid berdi, nimalar qilish mumkin, deya o'yg'a toldi. O'zi va umr yo'ldoshi bu bedavolar qo'lidan qutulishi kerak. Manavi ahmoq vositasida bu ish osonlasharmikin? Turkan odobsiz kimsaning och qarashlari va behayo ko'zlarini nazardan qochirmasdan o'ylanarkan, bosiq tovushda, sirli qilib:

– Kechasini kut... – dedi. – Hammasi yaxshi bo'ladi. Sen aysh-ishrat tayyorgarligini ko'raver...

Bu so'zlarni eshitgan boy birdan tentaksirab, jinni bo'layozdi. So'ngra es-hushini yig'ib, darhol xizmatchi ayollarni chaqirdi.

– Bu xotinni olib borib, nima desa aytganini qiling! – deya ularga buyurdi.

– Xo'p, taqsir...

– Hurmatini joyiga qo'yinglar, bo'lmasa ko'rsanlar, a!..

– Bosh ustiga, taqsir! Bosh ustiga...

So'ngra ichlaridan bittasini chaqirib:

– Qani, menga qara-chi sen... – dedi pastroq tovushda.

– Buyuring, boy ota, – dedi xizmatchi ayol.

– Sen kechqurunga uzum sharobi tayyorla! Yonida kerakli ichkiliklarni ham unutma. Jo'na endi!..

Barcha chiqib ketdi.

...Xuddi ana shu paytda, ana shu holatda O'ljay Turkan va Temur bir-birini ko'rib qolishdi va xotin eriga ishora bilan kerakli gapni anglatdi.

Ichkilik va boshqa kerakli yeguliklarni tayyorlash buyurilgan xizmatchi qiz boyning xotini tomon oshiqdi.

– Boy ota janoblari bu kecha judayam chiroyli bir xotin bilan ishrat qilmoqchilar, – dedi hovliqib.

– Nima?! Nima deding?

– Judayam chiroyli xotin...

– O'sha xotin o'lgur hozir qayda?

– Xizmatkor ayollar bilan birga, sayrda...

– Tez borib ayollarga ayt, uni olib kelishsin!

– Bosh ustiga!..

Bechora qiz yugurib borib ularni topdi va bu amrni arz etdi. O'ljay bu so'zlarni eshitar-eshitmas, darhol o'zicha bir reja tuzdi. Uni pishitarkan, nima qilish kerakligi haqida bir qarorga keldi. Barcha boyvuchcha oyimning chodiriga qarab yo'naldi. Ichkariga kirilganda, O'ljay beparvo yurib oldinga o'tdi. Boyning xotini unga dushmaniga qaragan-day olayib, hirs-u g'azab bilan tikilib turardi. O'ljay viqor bilan bedavo xotinga ko'z tashladi, bepisand ohangda:

– Lutfan tinglasangiz, sizga ba'zi gaplarni arz etmoqchiman, – dedi.

– Yaxshi, qani ayting-chi, – dedi boyning xotini.

– Yolg'iz bo'lishimiz kerak. Amringizni kutaman...

Boyning xotini o'ylanib qoldi, ikkilandi, ammo bir O'ljayning qaddi-qomatiga, bir o'ziga zimdan qarab, xavotirga tushdi va cho'zib o'tirmasdan, ko'nmaganini anglatiboq:

– So'zingizni yolg'iz menga aytasizmi? – deya o'smoqchiladi.

– Ha.

– Yonimga kelib, maxfiyona so‘ylashingiz mumkin.

– Yo‘q, bo‘lmaydi. Shunday gaplar borki, past ovozda aytish mumkin emas. Shu uchun lutfan iltimosimga quloq bering.

Boyning xotini xizmatkorlarga qarata:

– Chiqinglar, har kim o‘z ishiga... – dedi.

Yolg‘iz qolishgach, ikki ayol bir-biriga sinchkovona nazar soldilar. O‘ljayning qarashlari mehribon, taraddudli edi. U muloyim tovushda:

– Xonim, gaplarimni yuragingizda sir qilib saqlashga so‘z berasizmi? – deya so‘radi undan.

– Ha, men yolg‘on gapirmayman, or-nomusli, tag-tugli odamlardanmiz.

– Men kimman, bilasizmi?

– Yo‘q, bilmayman...

– Men esa sizni tanidim. Menga yaxshilab qarang...

Shu lahzagacha boyning xotini qarshisidagi ayolni tanimagandi. Ammo tikilibroq qararkan, ha-ha, endi uni es-ladi. Birdan dovdirab, o‘zini yo‘qotgancha:

– E-e... siz... siz... siz bu yerda... – deya yutinib, mul-zamlikdan qizargan boyning xotini o‘zining eski valine’-matini, Turkanni tanib qoldi. – Kechirasiz, bu yerda nima ishingiz bor edi?.. Xususan, xizmatkordan olgan xabarim-ga qaraganda boshqacharoq...

– Ha, shunday. Ering meni yoqtirib qoldi. Gap tashlab ko‘rdi. Erim Temur qarshidagi chodirda bog‘lab qo‘yilgan, yotibdi. Uni qutqarish uchun eringga kechqurungi aysh-ish-ratga va‘da berdim, cholg‘u va ichkiliklar tayyorlanishi ke-rakligini, uni xursand qilishimni bildirdim. Xullas, shuna-qa gaplar. Bir balo qilib uni uxlatib, erimni qutqaraman...

– Xonim, o‘zi bu yerga nimaga kelgandinglar? – deya so‘radi boyning xotini.

– Samarqandga ketayotgandik, – dedi O'ljay Turkan. – Yo'lda hordiq chiqaraylik deb to'xtagandik. Uxlab qolibmiz. Uyg'onganda, o'zimizni odamlaringiz oyog'i ostida, kamand tuzog'ida ko'rdik. Bizni ering huzuriga olib kelishdi. Mana, Samarqanddan, Alishoh imzosi bilan xat...

Shunday deya, O'ljay Turkan qo'ynidan olgan mak-tubni sobiq xizmatchisiga ko'rsatdi. So'ng yana qo'yniga solib qo'ydi.

– Endi rejamizni o'ylaylik. Qani ayt-chi, bu yerdan qanday qochsak bo'ladi? – so'radi Turkan.

– Ne bilay... – deya boyning xotini taraddudlandi.

– Sen bizga ikkita yaxshi chopadigan ot tayyorlay olasanmi?

– Bu oson gap-ku.

– Bo'pti. Yaxshi. Yana bir narsa kerak... Ikkita qurol topasan. Bitta yo'l ko'rsatuvchi ham.

– Xonim, ko'nglingiz to'q bo'lsin. Ikki ot, qurol tayyor deyavering. O'zim sizlarga yo'l ko'rsatuvchilik qilaman. Chunki bu borada boshqalarga ishonish xatodir, oxiri falokat bo'lishi mumkin...

– Rahmat senga. Unda oqshomni kutamiz...

– Bosh ustiga.

– Ha, bizniki qarshidagi chodirda, demak... Qanday qilib qutqarasiz? Qorovullar bormikin?

– Bu ishga kechqurun kirishmog'imizni hisobga olganda, menimcha, ikki qorovulni o'ldirish kerak bo'ladi...

– Kerak bo'lgach, shunday qilinadi-da.

– Agarda qarshilik ko'rsatishmasa, bog'laymiz, xolos...

– Ha, mayli.

– Shu, eng sodiq kanizaklarimdan bittasi bor. Uni chaqirib, bu ishda erining yordamini talab qilsam qanday bo'larkin?..

– Sening ering shuni istayotganday qilib aytilsa, u odam ot va qurollarni olib keladi, kanizak borib aytsa bas. Ammo sezib qolmasin-da ishqilib...

– Juda yaxshi.

– Xo‘p, u ish oson, ammo bu gaplarni Temurga qanday bildiramiz? – so‘radi O‘ljay Turkan.

– Uni siz bildirishingiz kerak, – dedi boyvuchcha. – Hozir borib, eringiz bilan gaplashmoqchi ekaningizni boy otaga aytib, izn istaysiz, biroz ishva bilan, albatta. O‘shanda u chiday olmaydi va ruxsat beradi.

– Juda soz! Kanizakni chaqir. Birinchidan, boy otani ko‘rmoqchi ekanimni ayt, so‘ngra meni taqsimning huzuriga olib borish kerakligini buyur. Men ketganimdan keyin esa sen bu tomondagi ishlarni bajar. Maylimi?

– Bosh ustiga, xonim.

Boyvuchcha tashqariga chiqib, turqi gezargancha, O‘ljay boy otani ko‘rmoqchi ekanini aytdi va kanizaklar chodiriga kirdi. Barcha o‘rnidan qo‘zg‘aldi. U eng sodiq kanizagiga:

– Faqat sen bunda qol, farishtam, – dedi.

– Xo‘p bo‘ladi.

Boyning xotini O‘ljay tomonga qarab:

– Sizni kutishmoqda, xonim, ketishingiz mumkin, – dedi sovuq bir ado bilan.

– Iloyo, kam bo‘lmang, – dedi O‘ljay minnatdorona tovushda va joriyalar tarafga yurdi.

O‘ljay va xizmatchi ayollar birgalikda chodirdan chiqishdi. Narigi chodirga yaqinlashganlarida, joriyalardan biri boyga xabar berdi. Boy ota darhol yonidagilarga ruxsat etib, O‘ljay xonimga:

– Buyursinlar, – dedi.

– Taqsir, sizni bezovta qildim, ma’zur tutgaysiz, – dedi O‘ljay viqor bilan.

– Yo‘g‘-e, parizoda, neni amr etmoqchilar, buyuring! – dedi boy erib ketib.

– Hech bir amrimiz yo‘q, taqsir, aksincha... – dedi muloyim ohangda O‘ljay xonim. – Aylanib yurib, rafiqangiz oldiga borgan edik. Ko‘p sovuq qarshiladilar. Shuning uchun chodirlarida o‘tirolmadik.. Yonlarida jonim siqildi...

– Ha, endi, bizning oyimcha shunaqalar, bilaman. Af-sus... Men sizni zeriktirib qo‘ymayapmanmi, xonim?

– Bilmadim... Yo‘g‘-e...

– Ko‘nglingizdagini ochiq aytavering, xonim.

– Sizdan kichik bir iltimosim bor edi...

– Nima ekan?

– Agarda ruxsat etsangiz...

– Qani-qani, aytavering..

– Mening xotirim uchun...

– E, dangal aytavering, hech tortinmang...

– Erimning yoniga qisqa fursatga olib borishsa, bir ko‘rishsam degandim...

– E-e... u bo‘lmaydi. Bo‘lmaydi!

– Sizdek ulug‘ inson uchun dunyoda bo‘lmaydigan bir ish bormiki... Men dunyoda bunday ish borligini taxmin ham qilolmayman! Shuning uchun, davlatlari soyasida, bu xususda menga bir iltifot etishlarini so‘rayman...

– Sizning iltimosingizga qanchalar bosh egسام ham, so‘rayotgan ishingizga izn berishim mumkin emas!

– E-e, shuyam sizday odam uchun bir ish bo‘ldimi, hazratim! Bir bor jahlingizdan tushsangiz, menga shafqat etsangiz va bir bechoraning ko‘nglini olishim uchun ruxsat bersangiz...

O‘g‘riboshi boy xayolga toldi. Bundayin yoqimli muomaladan keyin bosh silkib, xonimning gaplarini ma‘qulladi. O‘yga cho‘mib o‘tirarkan, birozdan so‘ng boshini

ko'tardi-da, O'ljay xonimning qaddi-qomatiga termilgan-cha, yuziga qarab mast bo'lganday:

– Xo'-o'p... – dedi.

Boy tashqaridagi qorovullardan bittasini chaqirdi.

– Xonimni tutqunning yoniga olib bor, – dedi unga. – U bilan ko'rishsin. Birov ularni bezovta qilmasin.

– Xo'p, taqsim! – dedi qorovul.

O'ljay xonim boyga:

– Rahmat, minnatdorman, – deya tashakkurini bildirdi. So'ngra qorovul bilan birga tashqariga chiqishdi.

Temur qamalgan chodirga borishdi. U yerda, bog'langan holda yumalab yotardi.

Bu makondagi xalq turkiyda qo'pol gaplashardi, shirin saroy tilidan va forsiydan voqif emasdi. Shuni ko'zda tutib, fikrimiz atrofdagilarga anglashilmasin deya, Temur va O'ljay qorovulga ham ahamiyat bermasdan, forsiyda so'zlasha boshladilar. O'ljay eriga:

– Tashvishlanmang! O'zingizni qo'lga oling, kechqurun qochamiz, men ishni yo'lga qo'ydim, – dedi. – Ammo siz ham ehtiyot bo'ling, sezdirmaslikka harakat qiling...

– Bo'pti, – dedi Temur. – Ammo... bu ishni sen qanday eplading?

– Hozircha buni uqtira olmayman, vaqtimiz ziq. Keyin bilib olarsiz...

– Shu odamni yo'qotsak-chi?.. – dedi Temur qorovulni nazarda tutib.

– Yo'qotamiz... – dedi O'ljay. So'ngra qorovulga parvosiz bir tovushda: – Siz birpasga tashqariga chiqib tur-ring, – dedi.

– Xo'p, bosh ustiga, – dedi qorovul xonimga jilmayib. So'ngra u Temurga bir ko'z olaytirib boqdi-da, tashqariga yo'naldi.

O'ljay bor gapni Temurga qisqacha qilib tushuntirdi. Cho'ntagidan uyqu dorisini chiqarib:

– Mana, buni piyolaga solib eritsam, u ablahni besh daqiqada uxlatishiga shubham yo'q! – dedi.

– Yaxshi, ammo bu yerdagi qorovulni nima qilamiz? – deya Temur xotiniga maslahatomuz boqdi.

– Boshqacha hiyla topolmasak, o'ldirishga majbur bo'lamiz, har holda. Koshki shunday qilmasak...

– Eh, odamlar, odamlar... – dedi Temur boshini saraklatib. – Ont ichamanki, bu chekilgan azob-uqubatlarning qanaqaligini boshqalarga ham ko'rsatib qo'yaman hali...

– Xayr endi, – dedi O'ljay. – Tong otar-otmas kelamiz. Tayyor turing. Oyoq tovushlariga quloq tuting.

– Yasha, xotin, – dedi Temur mamnun tovushda. – Yaxshi bor.

Ha, vazir Qizg'inning o'limidan keyin Temur va O'ljay orasida er-xotinlikdan tashqari, boshlariga tushgan ayrim fojealar tufayli boshqacha yaqinlik va samimiyat yuzaga kelgan edi. Ota-ona, qondoshlik-qarindoshlik munosabatidan ko'ra ham o'rtalarida bir uzilmas mehr ipi yaralgandiki, qisqasi, ikovlon dunyoda bir-birlari uchun hamma narsaga qodir edilar. Shuning uchun har bir masala ustida bir tan-u bir jonday harakat qilishlari tabiiy edi.

Ikkisining ham maqsadi, g'oyasi vazir Qizg'inning qotillarini ushlash, jazolash va uning nom-u shonini qayta tiklash edi.

O'ljay Turkan chodirdan chiqarkan, to'ppa-to'g'ri boyvuchchaning chodiriga qarab yurdi. Oqshom cho'ka boshlagandi. Ana endi O'ljay rejasini amalga oshirishi kerak.

O'ljay boyning xotini yoniga kirarkan:

– Qalay, hamma ish bitdimi? – deb so'radi.

– Ha, bitdi, – dedi boyvuchcha.

– Rahmat, menga eski paytlardagidek hurmatingni ko'rsatganing uchun minnatdorman, – dedi O'ljay. – Ma, manavini ol, ichkiliklarga qo'sharsan, uyqu dorisi.

– Buni ichkilikka qanday aralashtirayin?.. – dedi xavotirli tovushda boyvuchcha.

– Ikki-uch tomchi yetib-ortadi. Ko'proq qo'shilsa ham hech zarari yo'q.

– Xo'p... E-e, ana kelyapti, men borib ishni bajara-yin – dedi boyvuchcha va tashqariga yo'rg'aladi.

Ayni shu paytda chodirga boy kirib keldi. U to'g'ri O'ljayga yaqinlashmoqchi edi, u boyni g'oyatda yumshoq qiyofa va iltifot ila qarshilab, uni so'riga o'tqazib, dastur-xonga noz-u ne'matlarni keltira boshladi. Kanizaklar ularni joy-joyiga qo'yarkanlar, boy O'ljayni so'roqqa tutdi:

– Ko'rishdingizmi?

– Ha, taqsir. Sizdan juda minnatdorman. Esonlik bilan, amringizga xilof harakat qilmasdan ko'rishdik. Kamand iplari tufayli yuzaga kelgan yaralarni ko'rdim, ammo ip bog'larini yecholmadim... – deya afsuslandi O'ljay. So'ngra ichkarida suzilgan sharobdan bir piyolani qo'liga olib, boyga uzatdi: – Oling, taqsir!

Boy erib ketdi. O'rnidan turib sharobni qo'liga oldi. Shavq bilan:

– Oldin siz iching, men sizga ichiraman! – dedi.

– Yo'g'-e, siz hurmatli zotsiz, siz oldin shuni iching, xotirim uchun... – dedi O'ljay. – Sizdan keyin men ham ichaman...

– Voy dod! – xitob etdi boy. – Amr eting, ichurmiz!..

Birinchi piyolani ichirgandan keyin O'ljay chuqur nafas oldi va qadahni to'ldirib, o'zini ichayotganga solib, sharobni ko'ksidan pastga to'kib yubordi.

– Bu orada cholg‘uchilarimiz yo‘qmi? – deya o‘smoqchiladi O‘ljay.

– E-e, hammasi bor! Raqqosalarimiz ham hozir-u nozir, g‘adag‘ang! – dedi boy mamnun tovushda.

– Lutfan ularni bu go‘zal majlisga chaqirtirsangiz, – dedi O‘ljay.

– Bir og‘iz so‘zingiz, – dedi boy. So‘ngra ovozi ni ko‘tarib: – Cholg‘uchilar, raqqosalar kelishsin! – deya buyurarkan, esnay boshladi.

O‘ljay Turkan uning hozirdan uxlab qolishini istaganidan, ortiqcha tirg‘alib, bemazalik qilmasligi uchun biroz sarxush-u xumor bo‘lishini orzulab o‘tirardi. Mash-hog‘-u o‘yinchilar kelishdi, biroz o‘yin-kulgi qilishdi. Boyning ko‘zlari tobora yumilib bormoqda edi.

Shu chog‘da O‘ljayning xayoliga bir reja keldi, tajriba uchun uni sinab ko‘rishni maqbul bildi.

– Taqdir, bir narsa aytsam, shu, erim ham o‘yin-kulgin, zavqli kecha hayotini juda yoqtiradi. Uyam bir bechora banda, kun bo‘yi tortgan azob-u uqubatlari alamini pasaytirish uchun uni shu yerga chaqirsak, ne deysiz? – dedi viqor-u noz aralash.

– Nima deysan?! – dedi boyning ko‘zlari chaqchayib.

– Ha, endi... Sizning mehr-u shafqatingizdan xursand bo‘lganimdan, aytdim-qo‘ydim-da...

Boy O‘ljayning bundayin hurmatkorona so‘zlaridan mumday erib ketdi. Bepisand ohangda:

– Tutqunni olib keling! – deya buyurdi.

Tashqarida bu so‘zlarni eshitgan posbonlar chodirning eshigiga yugurib kelishdi, noto‘g‘ri eshitgan bo‘lmaylik tag‘in, degan xayolda:

– Nima dedingiz, boy ota? Ne amringiz bor?.. – deya so‘rashdi.

– E ovsarlar, nima deyapsanlar? – deya boy qahr va hiddat to‘la tovushda baqirdi. – Tutqunni darhol keltiring!!!

– Xo‘p, taqsir! – deya qorovullar chopib ketishdi.

Ular Temur asir yotgan chodirga kirishdi. Oldiniga uni bezovta qilib, biroz qiynashdi. So‘ngra boyning huzuriga olib borish uchun o‘rnidan turg‘azishdi. Shunda Temur, nima bo‘layotganini tushunmasdan, boshqa yerga ketgisi kelmasdan, biroz qarshilik ko‘rsatdi. O‘g‘rilar uning turg‘alishiga ahamiyat bermasdan, qiynab-siqtab haram chodirga olib borishdi. Bog‘log‘liq holda boyning huzuriga kiritishdi. Temur shoshib qolgandi, „Nima bo‘ldiykin? Bilib qoldimikin?“, – deya ichida o‘ylab, xavotir-la o‘rtandi.

Ichkariga kirar-kirmas, O‘ljayga ko‘zi tushdi. Qo‘llari bo‘shatildi. Qorovullar tashqariga chiqishdi. Temur das-turxonga da‘vat etildi.

Ana xolos!.. Temur nimalar bo‘layotganini bilmoq uchun O‘ljayga qaradi. Xotini uni ishora bilan tinchlantirdi. Demak, hammasi joyida...

O‘ljay sharob ichayotganday ko‘rinsa-da, aslida, ichkilikni sezdirmasdan pastga to‘kayotgandi. Boy tinimsiz ichar, shirakayf, majolsiz, uyqusiragan ko‘zlarini ochishga tirishib, pirpiratar edi. Ashulachilar-u mashshoqlar, o‘yinchilar zavq-u shavq-la o‘yin-kulgini avjga chiqarishmoqda.

Tun ham yarimladi. O‘ljay sharob to‘la piyolani boyning bo‘g‘ziga taqarkan, uning so‘ljaygan holatidan besh daqiqadan keyin o‘likday uyquga ketishini sezib, u yerdagilarni haydashga amr berdirdi. Hamma chiqib ketdi.

Chodirda boy va xotini, Temur bilan O‘ljay, ya‘ni to‘rt kishi qolishdi.

Boy og'ir uyquga cho'mdi...

Nihoyat, kechaning oyoqlagani, tong oqarayotgani sezildi. O'ljay boyvuchchadan:

– Ketishga hamma narsa tayyormi? – deya so'radi.

– Xo'p desangiz, atrofni bir tekshirib chiqay, – dedi biroz xavotirlanib boyning xotini. – Keyin sizlarni olgani kelaman.

O'ljay uning fikrini ma'qullab bosh irg'adi. Boyvuchcha sharpasiz chiqib ketdi. Temur va O'ljay boyning holi-ga boqib, sassiz kulib qo'yishdi. Besh daqiqacha o'tgach, boyvuchcha qaytdi va:

– Tinchlik, hech bir monelik yo'q, sekingina jo'nab ketaveramiz, – dedi.

– Qani, beri kel-chi, – dedi unga O'ljay mehri tovlanib. Qo'ynidan bir tizim marjon chiqardi, ammo shu chog'da nenidir yerga tushirganini sezmay qoldi. Marjonni boyvuchchaga tortiq etarkan: – Manavi mendan senga esdalik. Doim eslab yurgin. Bo'ptimi? – dedi.

Boyning xotini minnatdorlik bildirdi.

Birgalikda chodirdan chiqishdi va ehtiyotkorlik bilan orqada turgan otlarga minishdi. Boyvuchcha kunchiqar tarrufni ko'rsatib:

– Samarqand shu yoqda, – dedi.

Otlar qo'zg'aldi. Ammo endigina o'g'rilar makonidan uzoqlashishar ekan, chodirdan chiqqan bir kimsa ularni ko'rib qoldi. U sheriklarini o'shqirib uyg'otdi. Beshta o'g'ri otlariga minib, qochoqlar ortidan quvlashga tushdilar. Ana endi falokat boshlangandi.

Jangovar va jasur Temurning bir o'zi maydonda o'n kishiga, O'ljay ham kamida besh kishiga bas kela olsa ham, bu yerlarda ortiqcha vaqt yo'qotib, olishib o'tirish fursati emasdi. Ikkovlon otlarini chuh-chuhlab yanada

tezlatishdi. Orqadagilar ham quvlashdan voz kechmoqchi emasdi chogʻi, ular-da ulovlariga qamchi bosdilar...

Oʻzlari oʻgʻrilar qoʻliga tushgan yerga yaqinlasharkanlar, orqadan quvlab kelayotganlardan bittasi qochqinlarga yetib oldi. Temur qilichini yalangʻochlab, unga tashlandi. Zarbadan uning qilichi yerga otilib ketdi, oʻzi qattiq yaralanib, dumalab qoldi. Ayni chogʻda Oʻljay shartta otidan sakrab tushib, yaradorning belidagi arqonni yechib, uni bogʻladi. Bu ish muvaffaqiyatli tugagandi. Ammo ikkinchi oʻgʻrining yetib kelishi yoʻlovchilarni shoshiltirib qoʻydi.

Qochqinlarga yetishgan qaroqchi ot ustida olishmoqni ep koʻrmay, darhol yerga tushdi va qilichini sermab, hujumga oʻtdi. Temur qaroqchining zarblaridan qalqon bilan himoyalaniş jarayonida, poylab turib, uni oyogʻi bilan bir tepdi. Raqib yiqilarkan, chap qoʻli tagida qolib yumalab ketdi va qayta qoʻzgʻalmadi.

Orqadagi oʻgʻrilarning ikkitasi baravar yetib kelishdi va birlashib hujumga kirishdilar. Soʻngra biri Temurga, boshqasi Oʻljayga tashlandi. Temur kutilmaganda qaroqchining otiga qamchi soldi. Ot qochishga chogʻlanib, yulqinib qoʻzgʻalarkan, egasi chapdastlik bilan yerga tushdi va oniydan hamla etdi. Afsuski, u raqibiga yaqinlasha olmasdan boshidan qilich zarbi yedi va choʻzilib qoldi. Temur esa nariroqda qaroqchi bilan olishayotgan Oʻljayga yordamlashmoqqa oshiqdi. Holbuki, Oʻljay raqibi bilan biroz olishgach, kutilmaganda otini uning ustiga bostirib haydab, ogʻzi-burnini qonga boʻyab, abjagʻini chiqarib ulgurgan edi.

Orqadan quvalab kelayotgan boshqa qaroqchi bu vaziyatni koʻrib, taqqa toʻxtadi. Bir muddat taraddudlanib turdi-da, soʻngra otini ortga burib, uchira ketdi va

ufuqqa yoyilgan siyrak oq bulutlar orasiga singiganday ko'zdan yo'qoldi..

XIV. O'ZINGDAN BALO CHIQSA

Temur va O'ljayni quvlab, olishuvdan yolg'iz tirik qaytayotgan suvoriy choshgoh paytida o'z makoniga yetib keldi.

Boyning xotini Farishta ham tutqunlarni jo'natgandan keyin, go'yo hech narsa yuz bermaganday, o'z chodiriga kirib, uxlab qolgandi.

Ertasiga kechagi kayf-u maxmurlikdan keyin boshi og'rib uyg'ongan boy atrofga alanglab, xumor ko'zlarini yirib-yirib O'ljayni qidirdi. Topolmagach, g'azabga min-di. Xotinini, xizmatchi ayollar va raqqosalarni chaqirtirdi. Asirlarning qochganidan barchasi xabarsiz edi. Boy ularga:

– Nimani qo'riqladinglar o'zi?! Shu yerda emasmidingiz yo'?! – deya o'shqirdi.

Biri unga javoban sekingina:

– Taqsir, siz ket, deya buyruq berganingizdan keyin biz chiqib ketgandik. Chodirda mehmonlar bilan siz qolgandingiz.. – dedi.

Bu so'zlarni eshitarkan, badtar g'azabi qaynagan boy ansasi qotib, yerga boqdi. Ko'ziga bir qog'oz ilashdi. Darhol og'ilib oldi. Bu Alishoh tarafidan Temurga yozilgan maktub edi. O'qidi, unda: „*Temur, tezda Samarqandga kel. Alishoh*“ degan so'zlar bitilgandi.

– Ha-a... – deya og'ir so'lish oldi boy. So'ngra: – Bilindik, qo'limizga tushgan Temur ekan. Endi u Samarqandga ketmoqda, shundaymi? E-e, u jononni men unga berib bo'pman!.. Hali ko'radiganini ko'radi u! – deya baqirdi.

Shu asnoda bir otliq kelganini xabar qilishdi. U shitob bilan boyning huzuriga olib kirildi.

– Nima gap? – deya to‘ng‘illab so‘radi boy.

– Taqsir, shu, erta bilan endi uyg‘ongandim... – deya chaynala boshladi u.

– Tez gapir! – o‘shqirdi boy.

– Tong oqararkan, ikki otliqning chopib ketayotganini ko‘rib qoldim...

– Xo‘p, keyin?

– Biroz sinchiklab qarasam, kecha qo‘lga tushgan asirlar ekan.

– Undan keyin nima qilding?

– Chodirdagi sheriklarimni uyg‘otdim, birgalashib quvib ketdik...

– Of-farin!

– Ammo, taqsirim...

– E, odamga o‘xshab tez-tez gapirsang-chi!

– Urushdik...

– Yaxshi-ku!

– Avval birimiz, so‘ngra boshqamiz, undan keyin ikkitamiz ularga yetib borib, hujum qildik...

– Juda soz! Demak, qochoqlarni ushlab keltirdingiz, ha-a, qani, olib kiring ularni huzurimga!

– Yo‘q, taqsir, kechirasiz, keltirolmadik.

– Nima bo‘ldi?

– Ular bilan olishib, yengolmadik... rasvo bo‘ldik, yengildik, hamrohlarimdan faqat men tirik qoldim, xolos... Mana, qaytib, taqsirimga bildiray deya qarshingizda qo‘l qovushtirib turibman...

– Yaxshi qilibsan, – dedi boy o‘ylanib. So‘ngra: – Tezda otimni tayyorlang! Men ketishim kerak. Hamma ishga sen qarab turasan, – dedi xizmatkorga. – Hali shoshmay

ur sen, Temur! Agar o'sha ayol senga xotin bo'lsa, otimni boshqa qo'yaman!..

Xizmatchilar boyning otini keltirishdi. U uloviga min-di-da, yo'lga tushdi. Xat ham cho'ntagida. Zudlik bilan Samarqand tomonga yo'naldi. Oqshom payti shaharga kirib bordi.

Ertasiga sulton Tug'luq tarafdorlari bilan birga Temur-ni qidirib boshladi. Kun bo'yi so'rab-surishtirgach, Temur va xotinining Samarqandga kelmaganligiga ishonch hosil qildi.

Tong otgach, ular baribir shu yerga keladi-ku, deya o'yladi va yashirincha kutishga qaror berdi. O'sha kuni ham, undan keyingi kunlarda ham Temur bilan rafiqasini maxliyona axtarishda davom etdi. Biroq na o'sha kuni, na ertasiga, na indiniga va na undan so'nggi ayyomda Temurga oid hech bir xabar eshitmadi, hech bir iz va yo alo-matga duch kelmadi.

Temur esa bu muddatda o'zi oldinlari ham yashirinib yurgan bir g'orga xotini bilan birga berkinib olgandi. Al-laqancha tarafdorlarini bu g'orga chaqirtirib, qurol-asla-ha-yu otlarni badastur qilib, cho'ldagi arslonlar to'dasi yanglig' tevarakka dahshat socha boshlagandi. Bu vaqt ichida u yo'lida uchragan ayrim sahro turkmanlari bilan qaqshatqich jang olib bordi, ularni ham, boshqa ba'zi be-bosh to'dalarni ham olishuvlarda yer bilan yakson aylab, so'ngra mag'lublarni kechirib, ko'nglini ovlab, yengilgan quruhlarni toifalarni o'z yoniga tortib, kuch-quvvatini oshirib oldi. Bu mintaqada u shundayin dong taratarkan, Temur haqidagi vahimali mish-mishlar ortgandan ortar, uning tarafdorlari ham ko'paygandan ko'payib borar edi.

Shunday qilib, Movarounnahrda turkiylar, eronliklar va Xuroson xalqi asta-sekinlik bilan Temurga bo'yin

egayotgan, uning qudrati o'sayotgan bir davr boshlangandi. Masalan, atrofdagi tojik qaroqchilar boshlig'i Muborakxon o'z odamlari bilan birga ilk kelib qo'shilganlardan edi. O'shanda Temurning qo'li ostidagilar soni ikki yuz kishiga yetgandi.

Temur yig'ilgan jangovarlar bilan birga anchagina ishni amalga oshirish mumkinligini mo'ljallab, barcha bilan kengashmoq niyatida qurultoy tartib etdi. Bu yig'inda yaqinlaridan O'g'uz Arslon, qaynog'asi Husayn, Muborakxon, Sher Bahrom va boshqa allaqancha dono insonlar bor edi. Temur vaziyatga oid fikrini shunday ifodaladi:

– O'ylashimcha, biz hozirgi quvvatimiz bilan emas, balki kelajakda bizga qo'shiladigan tarafdor kuchlar yordamida Samarqandni egallashimiz kerak.

– Qanday tarafdor? – deya o'smoqchiladi Muborakxon. – Samarqandda bizga qancha odam qo'shilishi mumkin?

O'g'uz Arslon uning bu savoliga shunday javob berdi:

– Taxminan, xalqning yarmi.

– Unday bo'lsa, bu yerda turishimiz xato-ku? Ammo ular rejalaringizdan xabardormi?

Temur endi so'zga aralashib:

– Yo'q, ularning xabari yo'q, – dedi. – Ammo biz ishini boshqacha hal eturmiz. Birinchidan, biz Samarqandga yurarkanmiz, siz odamlaringiz bilan Buxoroga borasiz. Siz Buxoro yoqdagi qishlog'-u ovullardagi odamlar bilan, men Samarqand atrofidagi insonlar bilan uchrashamiz. Ularni fikrimizga, yo'limizga ishontirib, bir qarorga kelamiz. Keyin sizga ishorat beraman. Birgalikda butun jete xalqiga, ya'ni sulton tarafdori bo'lgan chig'atoylarga va ularning voliysi Ilyosga hujum qilamiz. Xudo xohlasa,

Movarounnahrni qo'lga kiritamiz. Qani, endi bir Qur'on o'qib, duo qilaylik.

Temurning qaynog'asi yonida turgan Sher Bahrom:

– Men bu ishlarga rozimasman, qarorga ham qo'shilmayman, – dedi. – Ammo qarshilik ham qilmayman. Modomiki qurultoy qarori shunday ekan, men endi Hindistonga jo'nay qolay, – deya chiqib ketdi.

Biroq birgina Sher Bahromning Temurdan ayrilishi uning uchun katta bir yo'qotish emasdi. Shuning uchun u qat'iy, ishonchli tovushda:

– Qani, biz ham Samarqandga qarab yuramiz! – deya hayqirdi.

Qaynog'asi Husayn esa Temurga qing'ir qarab, xoinona ohangda, ichida: „Xo'p, qani, yurib ko'raylik-chi“, – deya g'udrandi.

Ayni chog'da, O'ljay ham eri Temurning manfaatlarini o'ylab o'zicha rejalar tuzmoqda, tarafdorlarni ko'paytirish uchun tanish-bilishlarini ishga solib, tadbirlar ko'rmoqda edi. Zotan Temur, Samarqand xalqi bilan ko'rishmasdan oldin, bir necha kechani katta opasi Turkan Oqaning uyida o'tkazdi. Ana shu vaqt orasida kelajakda raqib-u yovlariga beradigan zarbalarini obdan o'ylab pishirarkan, boshqa bir yoqda O'ljay ham o'z odamlari bilan g'ayrat ko'rsatib, aholi ichida Temur xususida yaxshi fikrlar uyg'otib ulgurgan edi. Allaqancha inson Temur va xotini O'ljayning fazilat-u iqtidorini tasdiq aylab, ularning muxlisiga aylangan edi. Ular Tug'luq sultonning Temurga qilgan muomalasini insofsizlik deb bilishardi. Shunday qilib, vaziyatdan unumli foydalangan Temur Samarqandda ikki ming tarafdor to'play olgan edi...

Temur omma orasida bunchalik e'tibor qozongan holda har ishga shay turarkan, u bir yondan xotini va ulamo-

ning-da diniy isyon chiqarishlarini kuta boshladi. Ammo ochiqdan ochiq bu ishlarga berilib ketgan Temur, qarangki, orqasidan tushgan josuslarni payqamay qoldi. Bir kuni unga notanish bir kishining ko'rishmoqchi ekanini bildirishdi. Temur uni keltirishlarini buyurdi.

– Siz kimsiz? – deya so'radi undan Temur.

Notanish kimsa uning savoliga javob bermasdan:

– Sizga aytadigan ba'zi so'zlarim bor edi, shunga keldim, – dedi. – Bundayin ochiqdan ochiq bo'ysunmaslik, isyon-u ixtiloflardan voz kechmagingiz muvofiqdir.

– Nechun?

– Chunki sizni bugun sultonga chaqishadi. Yo bu yerdan chiqib ketasiz, yoxud o'lim hukmini bo'yinga olasiz, boshqa yo'l yo'q.

– Holbuki, menga tobe odamlarning barchasi sodiqdirlar...

– Ha-ha, sodiqlar, hatto qaynog'angiz ham! – deya ke-satdi notanish kimsa. – Faqat u dushmanlaringiz yonida!

– Demak, Husayn menga qarshi... – dedi Temur o'ygatilib. – Shundaymi? Unday bo'lsa...

– Ha! Ana shu holat, xiyonat va parokandalik haqidagi shum xabarlarni sulton tarafdorlari xalq orasiga yoyib bo'ldi. Shuning uchun aholi ichidan endi o'zingizga hech bir ko'makchi topolmasligingizga aminman.

– Yaxshi. Oллоh sizga salomatlik bersin! – dedi Temur uning chiqib ketishiga ishorali ohangda.

Qaynog'asi Husaynning dushmanlar tomoniga o'tib ketgani Temurning huzurini qochirib, ahvoli ruhiyasiga qattiq ta'sir qilgandi. Nahotki birorta ishonib bo'ladigan odam yo'q, deya ko'nglidan kechirdi u.

Temur o'sha oqshom zodagonlar orasidan o'ziga yaqin ellikta otliqni tanladi-da, u makondan qochdi va tash-

qaridagi kuchlarini ham bir yerga to'plab, har ehtimolga qarshi, mudofaaga shay turishni munosib ko'rdi.

XV. TEMURNING QAYNOG'ASI HUSAYN DUSHMANLAR ORASIDA

Temur qaroqchi boyga asir tushib, o'rtadan g'oyib bo'lgan kunlarda, uning odamlarini Husayn o'z taxti itoatiga olib, hokimiyat-u amriyat totini totgan edi. Ammo Temur qaytadan maydonga chiqib ish yurita boshlagach, Husayn hukmronlikni yana unga majburan berib, o'zini yakdil tutgan-da, o'shandan boshlab yurak-bag'ri kin, hasad, adovat o'tashida o'rtanib yurgandi.

Sher Bahromni urushga qo'shilmaslikka tashviq etgan Husayn Temurning porloq kelajagiga mone bo'lish uchun xilma-xil hiyla-yu rejalar tuzishga kirishdi. Shuning uchun Temur bilan bir yo'lda yurdi, uning orqasidan ergashib, Samarqandga ham yetib keldi. Bu yerda apil-tapil Temurning dushmanlari bilan uchrashdi. Ular bilan birlashdi. Dushmanlar boshlig'iga yo'liqishdan oldin Temur va O'ljayni asir etgan boyning yoniga bordi. Unga fitnali ohangda:

— Bilasanmi, Temur bu oqshom Samarqandga keldi, — dedi.

— Rostdanmi? Har kuni kutayotgandim-a, qayoqqa ketdiykin deb, — dedi boy quvonib. — Demak, hozir Samarqandda, shundaymi?

— Ha.

— Unday bo'lsa, tezda sulton Tug'luqqa xat yozish kerak!

— E, albatta-da!

— Unda men aytib turay, sen yoz!

– Bo‘pti, – dedi Husayn. So‘ngra qo‘liga qalam va qog‘oz oldi. – Qani, aytaver, men yozaman.

Shunday qilib, Husayn, ehtimolki, Temurning mahviga sabab bo‘ladigan bir maktubni bitishga kirishdi.

„Sultonimiz!

Temur bu yerda xalqni isyonga tashviq qilmoqda. Falokatning oldini olmoq uchun Samarqandga biroz askar yuborilishi munosibdir...

Bir necha imzo.“

Xat chopar orqali shoshilinch ravishda sultonga jo‘natildi va o‘sha kundan boshlab Temur maxfiyona ko‘z ostiga olindi. Hasadgo‘y raqiblarning maqsadi Temurni Samarqandda yolg‘iz, askarsiz holda bir burchakka qamab yo‘q qilish edi.

Mana, endi ular qo‘shindan yordam kutishmoqda...

Kunlarning birida, Temurga tarafdor bo‘lmasa-da, xolis bir kishi boy bilan Husayn o‘rtasidagi quyidagi suhbatni tasodifan eshitib qoldi.

– Bu oqshom xabar kelishi kerak edi, – dedi Husayn.

– Nega kech qoldiykin, a? – dedi boy.

– Bilolmadim, shu...

– Zudlik va intizom bilan yuborilishi zarur o‘sha ozgina askarning bunchalik kechikishi Temurning zafariga sabab bo‘ladi! – deya baqirdi qaroqchiboshi boy bilag‘onlarcha.

– To‘g‘ri, buni sulton hisobga olish kerak edi, – dedi Husayn uni ayyorlarcha ma‘qullab.

– Albatta-da! – dedi boy. So‘ngra o‘smoqchilab so‘radi: – Ammo siz, Temurning qaynog‘asi bo‘la turib, nima-ga undan juda xafasiz, nega unga qarshisiz?

Husayn uning savoliga javob bermasdan, o‘zini so‘roqqa tutdi:

– Siz unga nechun dushmansiz?

– Chunki men uni asir etgandim, qo‘limdan simobday qutuldi. Qochib meni ahmoq qildi. Endi kimligimni unga ko‘rsatib qo‘ymoqchiman!

– Ammo Temurni qo‘rqitish oson emas.

– Uni qo‘rqitish uchun shu kechadan boshlab ishga kirishmoq kifoyadir, – dedi qaroqchiboshi pisandsiz tovushda.

– Qanday qilib axir? – dedi shoshib qolgan Husayn.

– Qanday deysiz-a? Bu oson ish. Zotan, Temurning xalq orasidagi fitnali ishlari sultonning qulog‘iga yetib borgan. Shu bois, uning tarafdorlari jazoga tortiladi degan bir mish-mish chiqarasiz. Xalq undan soviydi va bechora Temur yolg‘iz qoladi!

– Demak, shu kechadanoq ishni boshlaymiz, shundaymi?

– Ha! Bu oqshom Temur uchun tolesizlikning boshlanishidir, zavol kechasidir!..

G‘aroyib bir tasodif tufayli bu suhbatni eshitib qolgan o‘sha turkman, qarangki, o‘sha kuni bir ulamo va‘z o‘qigan davrada ham qatnashib, uning tilidan Temurning O‘lloh tomonidan yuborilgan bir sohibqiron ekanini tuydi... Hayratga tushdi va to‘ppa-to‘g‘ri Temurning oldiga borib, bor gapni unga aytdi. Shunday qilib, Temur uchun bir shomi g‘aribon, tolesizliklarining boshlanishi, zavol kechasi bo‘ladigan tun, aksincha, bir iqbol kechasiga aylandi.

XVI. OQSOQ TEMUR

O‘g‘ri-qaroqchilar to‘dasining fitnasi va chaquvi tufayli sulton qo‘shinining Samarqandga bostirib kelayotganini borasida O‘g‘uz Arslon Temurga xabar berdi. Ikki eski qadrdon o‘rtasida shunday suhbat bo‘lib o‘tdi:

– Demak, meni Samarqandda bosib, qo‘lga olishmoqchi, shundaymi? – deya so‘radi Temur.

– Ha! – deya tasdiqladi O‘g‘uz Arslon. – Reja-yu maqsadlari shundaymish. O‘sha yerdaligimizda sulton Tug‘luqqa xabar berilganmish.

– Unday bo‘lsa, hujumni qaytarmoqqa tayyor turishimiz kerak.

– Har holda...

– Agarda eplay olsak, barcha qaroqchi to‘dalarning boshliqlarini bir amallab Chig‘atoy saltanatiga qarshi qo‘yishimiz shart! – dedi Temur shiddatli tovushda.

Ammo buni uddalay olarmikanmiz-yo‘qmi, bilmadim-da...

– Uddalaysan, bo‘tam! – dedi O‘g‘uz Arslon otalarcha komil ishonch bilan. – Chunki ulardagi miskinlikni senda hech ko‘rmadim, sen juda g‘ayratlisan! Har qanday muzaqqariyatning onasi faoliyatdir!

– Ha, zafar qozonmoq uchun tirishib ishlash kerak. Faoliyat esa intizomga bog‘liqdir. G‘ayrat va intizom bi-
langina kishi yutuqqa ega bo‘la oladi.

– To‘ppa-to‘g‘ri!

– Zafarimiz yo‘lida biror harbiy hiylani o‘yladingizmi? – deya so‘radi Temur.

– Yana biroz o‘ylab, pishitishim kerak... O‘zingda biror reja bormi? – deya o‘smoqchiladi O‘g‘uz Arslon.

– Tayyorlab qo‘yganman!

– Qani, eshitaylik...

– Avvalo boy berilgan fursatni qayta qo‘lga kiritish lozim va har qanaqa hujumni bartaraf etishga tayyor turish kerak!

– E, yasha, bu fikring juda to‘g‘ri! Buning uchun, birinchidan, Movarounnahrni egallab, u yerni barcha kurashning markaziy qarorgohiga aylantirmoq darkor...

– Yo‘q, – dedi Temur qadrdon maslahatgo‘yining so‘zi-
ni bo‘lib. – Qo‘l ostimdagi bir to‘da bebosh jangovarning
yurtimni besaranjom qilishiga yo‘l qo‘yolmayman.

– Illo bu yer bo‘lishi farz-u shart emas, boshqa bir
tarafni markaz etib tanla, ixtiyoring. Nega bu ishda tortin-
yapsan, ne bir mushkilpisand bor bunda?

– Chunki kelajakda bu o‘lka, bu xalq mening amrim-
da bo‘ladi, o‘zimga qarashli yurt-u elni qo‘riqlamoq, as-
ramoq esa mening bosh vazifamdir, shunday emasmi?

– Juda to‘g‘ri, bo‘tam, haqlisan.

– Shunday qilib, menga qo‘shilgan-u qo‘shilmagan,
taraf-taraf bo‘lib kelisholmay yurgan qavm-u urug‘larni
to‘plab, birlashtiriboq, darhol janubga – Xurosonga va
to‘ng‘ra afg‘onlar tomonga yurish uyushtiraman, u yerlarni
va Qandahorni zabt etib, o‘sha mintaqani butun harakat-
larim markaziga aylantirmoq muvofiqdir deb o‘ylayman...

– Qaror-u fikrlaring juda mantiqli, sharoitga uyg‘un-
dir, bo‘tam, – dedi O‘g‘uz Arslon uning teran rejasini
ma‘qullab.

O‘sha kundan boshlab Temur rejasiga ko‘ra harakat
etib, o‘z kelajagining binosini qurishga kirishdi. Faoliya-
ti shunchalar favqulodda va tabiiy ediki, muvaffaqiyat va
zafarlari haqidagi shov-shuvlar atrofdagi viloyat-u o‘lka-
larga keng yoyilib, dahshat-u g‘ulg‘ula soldi.

Temur Xurosonni zabt aylab, Qandahor viloyatini ham
egallab, muzaffariyat chog‘i xonchodirida o‘tirarkan, bir
otliqning u bilan ko‘rishmoqqa izn istayotgani bildirildi.
Suvoriy uning huzuriga kirib:

– Temur hazratlari sizmisiz? – deya so‘radi.

– Ha, – dedi Temur unga sinchkov boqib.

– Meni Seyiston amiri yubordi, mana bu uning sizga
yozgan maktubi, – deya chopar bosh egib, xatni uzatar-
kan, ta‘zim qildi.

Temur xatni oldi. Ochib, o'qimoqqa tutindi. Daqiqa sa-yin uning rang-tusi o'zgarar, yuzi goh oqarib, goh qizarar, jahli chiqib, intiqom hiss-u hayajonida to'lg'onar edi.

– Bo'pti, unga salomimni ayting! – dedi Temur xatni o'qib bo'larkan.

Xizmatchini chaqirib, choparni tashqariga yo'lladi.

Ular chiqib ketgach, Temur o'zicha shunday dedi:

– Buning so'zlaridan katta bir falokat-u baloning hidi kelmoqda! Ammo, ko'raylik-chi, qaysimiz kuchli: senmi yo menmi?..

Ajabo, bu maktubda nelar bitilgandi? Bu qaysi falokat jarchisi ekan? Qanday baloning qo'lansa hidi ekan?..

Seyiston hokimi o'z atrofidagi yerlarning Temurning kuchli qo'shini tarafidan bosib olinganini ko'rib, endi qanday harakat qilish lozimligini bilolmay hayron edi. Qarshi kurashsinmi yoki boshqa yo'li ham bormi? Temur kunlarning birida Seyistonga hujum qilishi tayin. Shuni ko'zda tutgan holda reja-yu tadbirlarni pishitish kerak. Hokim shularni o'ylarkan, ulamo va maslahatchilarini chaqirib, ular bilan kengashdi.

– Temurning futuhot yo'lida naqadar tez ilgarilayotganini ko'rib turibsizlar, – dedi u. – Dovul kabi esib, duch kelgan viloyatlarni bosib, xalqini bo'ysundirmoqda. Shu ketishda bu yerlarni ham ost-ust etib, o'ziga tobe aylagay... Shuning uchun sizlardan so'ramoqchiman: xo'sh, bu baloga qarshi qanday harakat qilganimiz ma'qul?

– Taqsir, biz uchun eng xayrlisi Temurni ittifoqqa da'vat etmoqdir. – dedi bir ulamo.

– Ammo unga qanday qilib biz bilan ittifoqchi bo'ling, deymiz? Axir Temur bundan, mendan qo'rqishdi, degan ma'no chiqarmaydimi? Bizga yanada qattiqroq ko'z tikmaydimi? – deya hokim o'z shubhalarini bayon etdi.

– Nega unday qilsin? Agar biz do'st bo'laylik, desak bu qo'rquvdanmas-ku. Boshqa sabablari ham bor-da...

Shunda vazir so'zga aralashib:

– Biz o'ylagan boshqa sabablarni Temur xayoliga ham keltirmasa kerak, – deya shubhasini ayon etdi.

– Nechuk? – deya so'radi hokim.

– Chunki unga ko'rsatiladigan bu yaqinlikni, ya'ni ittifoqqa da'vatni oldinroq bildirganimizda, balki, u o'ylab ko'rardi va taklifimiz shoyoni diqqat bo'la bilardi, ammo...

– Xo'sh, endi-chi?

– Endi bu ish mumkin emas. Chunki uning kuch-quvvati ortib, o'ziga ishonch hosil qilgandan so'ngra biz unga ittifoq taklif etmoqdamiz. Endi uning uchun bu taklif hech bir ma'no-yu qimmatga ega emas. Bir iltimos, xolos.

– Unda... iltimosga hozirchalik majbur emasligimizni aks ettiruvchi bir maktub yuborsak, ne deysizlar? – dedi nochor hokim.

– Ma'qul! Juda soz...

– Qanday ohangda, nimalarga urg'u berib yozsak...

– Masalan, sizni himoyamizga olamiz, degan taklifni bildirsak ham unga yoqar, balki...

– E, juda bop-ku!..

Vazir-u vuzaro, maslahatchilarning bari bu fikrga ko'nishdi, hokim shunday mazmunda xat bitilishini buyurdi.

– Darhol bir xabarchi yuborib, xat bilan Temurni da'vat qilaylik, – dedi hokim.

Qalam va qog'oz keltirildi, quyidagicha maktub bitildi:

„Temur,

Sizning Chig'atoy xoni qarshisida kuchsiz ekanligingizni ko'rib-bilib turibmiz. Shunga binoan, bizning hi-

*moyamizga kirishingizni tavsiya eturmiz va himoyachi
qo'llarimizni sizga uzatmoqdamiz.*

Seyiston hokimi."

– Chopar keldimi? – so'radi hokim. – Ha, chopar, sen bu maktubni zudlik bilan Qandahor shahriga borib, Temurga yetkaz!

Xabarchi xatni olib, yo'lga ravona bo'ldi.

Kengash davom etdi. Temurga qanday muomala qilish, qanday qarshi turish yo'llari axtarilgan bu yig'in anchaga cho'zildi. Bahs paytida bir kishi shunday dedi:

– Oldiniga biz, agar Temurni ittifoqchi bo'lishga da'vat etsak, uni xafa qilib qo'yamiz, deya tortingandik, ammo endi yanada bejo ish qilib qo'ydik, deyman-ov. Zotan, Temur ayni vaziyatda kuchli-qudratli va mag'rur, shu bois unga „himoymizga olamiz“ degan taklifimiz juda og'ir botadi, o'ylashimcha...

– To'ppa-to'g'ri! Endi uning g'azabiga duchor bo'lamiz! Biz tomonga bostirib kelishi oppa-ochiq!.. – deya vahimaga berildi bir ulamo.

– U holda nima qil deysizlar? – dedi ensasi qotgan hokim.

– Hozirdanoq urush tayyorgarligi va tadorigini boshlamoq eng muvofiq ishdur...

– Ha, bo'lar ish bo'ldi, endi buni tuzatish mumkin emas. Choramiz yo'q.

– Afsus, biz baloni o'zimiz chaqirdik...

– Shundayku-ya, ammo bu balo baribir bir kun boshimizga kelardi.

– Xullas, endi tayyorgarlikni ko'raverish kerak.

– Gaplaring to'g'ri, urushamiz! – deya og'ir so'lish oldi hokim. So'ngra buyurdi: – Qani, endi boraveringlar, harbga tayyorgarlik ko'rilsin! Temurni yarashliql qilib kutib olishimiz kerak!

Seyiston hokimi ana shu alfozda majlisini tugatdi.

Temur xatni olgandan keyin yana bir gapdan xabardor bo'ldi. Ya'ni, Chig'atoy sultoni Tug'luq Temur vafot etgan, o'rniga o'g'li Ilyosxo'ja tayinlangan edi. Temur bu voqealarni eshitib, sevindi va zavq-u shiddat bilan odamlarini to'plab, rejalar tuzishga kirishdi.

Nihoyat, butun mahoratini, harbiy hiylasini ishga solib, ko'ngli to'q holda, jangovar qo'shini bilan Seyistonga qarab yurdi.

Seyiston hokimi avvalgi so'zidan qaytgan edi. U qilgan ishining o'z-o'zicha bir hiylaga aylanishini va Temurni g'aflatda qoldirib, tuzoqqa tushirishni o'ylab, askarlari bilan shahar tashqarisidagi pistirmada kutmoqda edi.

Temur ham anoyi emas, u josuslarining ustaligi natijasida bu holdan xabar topgan va unga ko'ra tadbir o'ylagan edi. Ya'ni, qo'shinini ikkiga bo'lib, bir qismini o'z qo'mondonligi ostida saqladi. Boshqa qismini esa ikkiga ajratib, biriga Muborakxonni, unisiga esa qaynog'asi Husaynni boshliq etib tayinladi. Rejaga ko'ra, Muborakxon va askarlari shaharni orqa tarafdan o'rab, uni bosib oladi. O'zining qo'shini har ikki bo'lakka zarur paytda yordam ko'rsatadi, faqat orqa tomonda sokin harakat qiladi, xuddi xaxiradagi cherik kabi...

Shaharning orqa tarafidan yashirincha kelayotgan Muborakxon askarlarini Seyiston hokimi jangchilari payqamay qolishdi.

Harakatdagi qo'shinning oldida otliq Temur haybat to'kib borar, ammo tashqaridan qaraganda, hech qanaqa urush tayyorgarligi yo kayfiyati yo'qday ko'rinar edi.

Ikki taraf qo'shini yuzma-yuz kelgach, Seyiston askari cho'chibroq hujumga o'tdi va urush boshlandi. Temurning zo'rg'a o'zini tiyib turgan bebosh askarlari birdan raqib

ustiga yopirildi, shafqatsiz hamlalar natijasida boshlar kesildi, vujudlarga o'q-u qilich sanchildi, har yon qonga bo'yaldi. Insonlar vahshiyona junbish-la qassoblik hunarini namoyish etishardi. Ust-boshlari qonlar ichida yugurishardi, ikki tomon ham bir-birovlarini mahv etmoq qasdidan hujum qilardi...

Temurning qo'shini mag'lub bo'layotganday ko'rinardi.

Cherik sekin-sekin orqaga tisarila boshladi. Ammo Temur bir harbiy hiyla ishlatib, chekinishni to'xtatishga erishdi. U to'satdan askarlar oldiga o'tib, qilichini sermaganча hayqira-hayqira hujumga kirishdi.

Ana, zafar yaqin edi. Afsuski, bu omadsiz jangda Temur oyog'idan qattiq yaralandi. Seyiston lashkari Temurning qo'shini oldiga tushib, qochib borardi. Shu payt narigi tarafdagi Muborakxonning jangovarlari ularning yo'lini to'sdi. Dahshatli olishuvda Seyiston askarlari ikki tosh orasida qolganday ezilib, yo'q bo'ldi.

Bu muzaffariyat Temurga ancha qimmatga tushdi, umr daftariga o'chmas, achchiq bir xotira o'laroq muhrlandi. G'alaba nishoni, ya'ni oyog'idagi yara sababli oqsoq bo'lib qoldi. Shu tufayli Oqsoq Temur – Temurlang sifatida dunyoga dong taratdi, bu nishon uning uchun abadiy bir obidayi zafardir.

XVII. MOVAROUNNAHR HUKMRONLIGI VA TEMURNING TAXTGA CHIQISHI

Ma'lumki, bir o'lkaning sultoni bor ekan, boshqa bir odamning saltanatga egalik qilishga urinishi turkiylar odatiga ziddir. Shu bois Temur ham Ilyosxo'janing o'limidan so'ng chig'atoylardan Kobulshohga tobe bo'lishni qabul etgandi, inchunin uning saltanat uchun iddao qilishi

mumkin emasdi. Bir kuni u bu masalani o'rtaga qo'yish uchun maslahatchilarini, ulamoni chaqirtirdi.

– Mening saltanatni idora qilishim xususida qandayin fikr-u kengash berasizlar? – dedi ularga qarata.

– Taqdir, bu o'lkani qutqarish uchun Olloh tomonidan yaratilgan bir qahramonsiz, sohibqironi zamonsiz! Sultonlik sizning haqqingizdir! – dedi bir maslahatchi.

– Ammo bu turkiylarning qadimiy odatlariga tersda, – dedi Temur.

– U holda, Chig'atoy eli hukmdorlarining tasarrufi va idorasi ostida bo'lmagan Balx shahrida sizning taxtga chiqishingiz ayni muddaodir! – dedi bir ulamo.

– Ma'qul, rahmat sizlarga, – deya Temur kengashchilariga minnatdorlik bildirdi.

Bu maslahatga muvofiq ish tutildi. Ulamolar ra'yiga qarab, Balx shahrida turkiylar an'anasiga muvofiq bir marosim o'tkazildi va turkiylarning mo'g'ullar asoratidan qutqaruvchisi Temur Movarounnahr hukmdori deya e'lon etildi. Ulamo fatvosi amalga oshgach, hech qanday unvon, imtiyoz va na-da boshqa bir narsa istamay, yolg'iz hukmdor nomiga aqcha bostirgan Temur eski mo'g'ul odatlarini bekor qilib, o'rniga islomiy qoida va an'analarni joriy eta boshladi. Masalan, Chingizxon yasa – yosoqlari o'rniga tuzuk va shariatga ko'ra ish tutishga intildi.

Ha, Temur hukmdor deb e'lon qilindi. Biroq bu ishdan o'ziga qarashli odamlar va arkoni davlat orasida ham xursand bo'lmaganlar bor edi. Ulardan biri – qaynog'asi Husayn edi. Bu bechora odam ota merosiga ega chiqolmasligini angladi. Buning oldini olishga rosa urindi. Ammo butun hiyla-yu nayranglariga qaramasdan, Temurning ro'parasida ojiz-u nochor qoldi. Oxirida Temur

hukmdor deb e'lon ham qilindi va shunda Husayn poch-chasidan hajga ketishga ruxsat talab etdi. Temurdan izn olingach, hozirlik ko'rib, odamlari bilan birga yo'lga tushdi...

Biroq Husayn yo'lda o'ldirildi. Qotillar asli Temur tarafdorlari edi. Chunki ular, Temur Husaynni kechirgan bo'lsa-da, bu odamning qanchalik xoinlik qilganligini, uning hajga yo'nalgan harakati ham, aslida, xiyonat yo'lidagi bir urinish, hiyla ekanligini yaxshi bilishardi.

Husaynning asl niyatini Temur ham payqagandi. Shuning uchun, uning o'ldirilganini eshitgach, unchalik achinmadi va:

– Oqibatda jazosini oldi, – deb qo'ya qoldi.

* * *

Temur hukmdor bo'lmay turib asl vatani Turkistonni bosqinchilardan qutqarish uchun o'zini qo'llab-quvvatlovchi bir kuchga, bir dalil-u hujjatga ehtiyoji bor edi, buni istagan, izlagan edi. Bularga ham erishdi. Ana endi u mamlakatini qutqarish yo'lidagi muqaddas va jiddiy ishga kirishdi. Har tomondan to'p-to'p kelgan turkiy qavmlar uning safiga qo'shilishar, ularning ulug'lari Temurning yonida o'lguncha birga bo'lajaklarini, u bilan bir yo'lda ekanliklarini bildirib, bay'at etishar edi. Temur ularga lutf-u muruvvat, nazokat va mehribonlik ko'rsatardi. Qo'lidagi bor-yo'g'ini xarjlab, odamlarga tortiq aylab, ularni quvontirar, o'ziga rom etar edi. Masalan, bo'rkini Tug'luq Barlosga, kamarini Sayfiddinga sovg'a qilgandi...

Samarqand safaridan oldin aynib, undan ayrilgan Sher Bahrom degani ham oxiri pushaymon bo'lib, Temurning oyog'iga bosh urib keldi. Unga Temur yana yaxshilik va

nozik muomala ko'rsatdi, sharmandalik tamom unutildi. Xullas, Sher Bahrom ham vatanni qutqarishda Temurga madadkor bo'lishini aytib, qasamyod qildi.

Temur o'z hukmdorligini kuchaytirish uchun tobealarini ko'paytirishga va o'lkani kengaytirishga majbur edi. Uch yillik tinimsiz urinishlardan keyin bebosh to'dalarni Sirdaryoning u yog'iga surib yubordi. Turkiston va Olmaliq shahridan boshqa chig'atoylarga bog'liq hech narsa qolmadi. Buning ustiga, Temur Movarounnahr daromadini qaynog'asi Husaynga berib, Kesh va Andxo'y shaharlarini o'ziga qoldirib, Buxoro va Samarqandni vazir Qizg'inning merosxo'rlariga bog'lab, ularni o'ziga o'rinbosar tayin etib, idorasini mustaqil qilib oldi...

* * *

Ha, o'shanda Samarqandda yuz bergan voqeadan so'ng Temur shubhaga tushgandi. Uni qaynog'asi Husaynning xiyonat qilib-qilmagani o'ylantirayotgan edi. Husaynni chaqirdi, birgalikda ustod Shamsiddinning mozoriga borishdi. Temur muqaddas dargohda turib, Husaynga:

– Do'st bo'lib qolamiz, a? – dedi.

– Ha, bergan so'zimga sodiqman va hech bir zamon ahdimda qusur bo'lmagay, – dedi Husayn.

Temur baribir qaynog'asiga ishonchi yo'qligini tiliga chiqardi:

– Husayn, senga hech ishongim kelmaydi-da...

Shundan keyin Husayn Temurni azbaroyi ishontirishga tirishib, Qur'onga uch bor qo'l sunib, tavof etib, qasamyod qildi.

Mozordan qaytishdi.

Ammo Husayn baribir ahdini buzdi, fitnaga bosh urdi. Bir kuni ishonchli odami Sher Bahromni chaqirib, o'z rejaları haqida ma'lumot berib, undan yordam istadi.

– Sher Bahrom, – dedi u kin to'la tovushda, – bila-sanki, Temur egallagan amirlik, aslida, meniki bo'lishi kerak edi. Chunki bu hokimiyat otamdan meros qolgan... Ammo Temur bu kuchni qaydan oldi, bilolmayman!

– Temur bu maqomga o'zining o'tkirligi, aql-u g'ayra-ti bilan erishdi. Siz undan ota merosini ola bilasizmi? – deya sinchkov ko'zlarini unga tikdi Sher Bahrom.

– E, shu dardda yuribman-ku! Nima qilib bo'lsa ham hokimiyatni undan qaytarib olishim shart! – deya jonlandi Husayn. – Oh, nima qilish kerak, a? Sendan ayrilgandan keyin, Samarqandga borgan paytimda, u yerda o'tirib, sul-ton Tug'luqqa xatni men yozdim-ku, o'z qo'lim bilan... Eh, qaniydi qo'shin paytida yetib kelsaydi-da, Temur ku-nini ko'rsaydi!

– Ammo josuslikning jazosini ham tortishingiz mum-kin edi, – dedi kesatib Sher Bahrom.

– Buyam to'g'ri... Ha, mayli. Temur mendan shubha qilardi. O'tgan kuni qasam ichirdi, go'yo men qasam-pa-samdan qo'rqadiganday. Eshitishimcha, Shohquli unga hukmdor bo'lishingiz kerak, deganmish. Temur hukmdor bo'larmish, a! Qani, hukmdor bo'lsin-chi, unga bir o'yin ko'rsatamanki...

– Qanaqa o'yin? – ensasi qotib so'radi Sher Bahrom.

– E, bilmaysan-da, xumpar, bu yoqda ko'p ishlar bor! – dedi Husayn makkorona, mamnun ohangda. – Katta odamlardan birini o'zimga ittifoqchi qildim. Temur hukmdor bo'lgan kuni ertalab ichilgan sharbatdagi zahar ta'sirida asfalosofilinga ketadi! Qalay, Bahrom, yaxshimi?

– Juda yaxshi, taqsir, – dedi Sher Bahrom biroz o'ylanqirab. – Ammo, deylikki, o'sha og'udan Temur va-

fot qilgudek bo'lsa, o'zingizning bir qotil sifatida jazoga tortilmasligingizni qaydan bilasiz? U holda siz hokim emas, mahkum bo'lib qolasiz-ku! Menimcha, bu fikrdan voz kechganingiz ma'qul.

– Yo'q, hech qachon voz kechmayman!

– Shoyad buni Temur eshitguday bo'lsa...

– U vaqt o'lgan kunim! – dedi qat'iy tovushda Husayn.

– Menga qolsa, bu ishdan voz keching, qo'rqing... – dedi Sher Bahrom unga achinib.

– Kimdan? Sendanmi?

– Ha, mendan, – dedi kesatib Sher Bahrom. – Zotan, Temurning fazilatleri qarshisida shaytoniy amallar yo'q bo'lishga mahkumdur, bu bir haqiqat... Gapning indallosini ayting, o'zi mendan nima istaysiz?

– Arzimas bir xizmat. Temur ichadigan sharbatga zaharni aralashtirish!..

– Yo'q! Men bunday qilmayman. Aksincha, Temurga borib, nimalar bo'layotganini ochiq-oydin aytaman! – dedi Sher Bahrom gurullagan tovushda va shartta o'rni-dan turib, chiqib ketdi. Husayn jismonan undan kuchsizligi tufayli yo'lini to'sishga jur'at etolmadi.

Sher Bahrom shu ketgancha to'ppa-to'g'ri Temurning oldiga bordi. Unga uchrab, hayajon-la so'zga kirishdi:

– Taqsir, sizga o'tmishdagi isyonimning sababini aytolmagandim, mana endi aytaman. Buning sababi Husayn! Siz Samarqandda ekaningizda, sizni bostirib qo'lga olish uchun sulton Tug'luq tarafidan bir qancha lashkar yuborilgan edi, keyinroq siz bundan xabar topgandingiz, biroq sababini bilmasdingiz. Bu ish qaynog'angiz Husayn yozgan bir maktub tufayli sodir bo'lgandi. Endi, endi esa yana bir chakki voqea yuz beradiki... bu – dahshat!..

Temur Sher Bahromning bundayin holini ko'rib, darhol yoniga keldi va taskin berib:

– Nima bo‘ldi o‘zi, buncha vahima qilasan? – deya so‘radi.

– Hukmdorligingiz e‘lon qilingan kun sizni zaharlashmoqchi.

– Bilaman, – dedi Temur xotirjam tovushda.

– Bilasizmi?

– Ha. Faqat sen qo‘rqma, hech narsa bo‘lmaydi. O‘zingni xotirjam tut.

Sher Bahrom Temurning huzuridan ko‘ngli taskin topib chiqib ketdi.

Ikki kun o‘tgach, xalq orasida Husaynning Sher Bahromni o‘ldirganligi haqida gap tarqaldi. Barcha aslzodalar bu qilvir ishi uchun Husayndan nafratlandilar, Temur tarafiga o‘tib, unga tobe bo‘ldilar. Temurning ilk hukmdorlik pillapoyalari tarixi ana shu hodisalarga tutash shaklda yozila boshlangandi.

Shunday qilib, Husayn Temurni zaharlashga oid rejasini amalga oshirolmadi. Qarasa, qo‘lidan hech bir ish kelmaydi – buni anglagandan keyin, yopig‘liq qozon yopig‘lig‘icha qolsin, degan ilinjda, Temurdan hajja ketish uchun izn istagan edi...

Temur Husaynning yo‘lda o‘ldirilganini eshitgach, yuqoridagi gaplarni eslab, „Oqibatda jazosini oldi“, degan edi.

* * *

Temur hukmdor bo‘lganida, taxminan, o‘ttiz yetti, juda bo‘lsa qirq yoshlarda edi. Hokimiyatni qo‘lga olishi bilanoq, ilk faoliyati mamlakat ichki ishlarini yo‘lga qo‘yish, eski zolimligini tark etmagan katta mansabdorlarni ta’sirsiz holga keltirish, o‘z g‘addorligini tashlamagan boshibuzuqlarni mansabdan chetlatish bo‘ldi.

Zotan, Temur hech bir zamon ilonni qo'ynida saqlash niyatida emasdi.

Shundan keyin u o'lka janubidagi ommani itoatiga olib, turmushni tartibga soldi. Kayxusrav-u Iskandar qo'l urolmagan bir ishni bajarishga kirishdi: ya'ni, turkistonlik bir bekning o'g'li Yaksart daryosini kechib o'tib, bu atrofni o'z hukmiga tobe etdi.

Besh yil mobaynida u otdan tushmadi, turkiylarning qadimiy o'lkasida bir necha yurishlar uyushtirdi. Sulton Qamariddinning qizini nikohiga oldi. Shunga qaramay, O'ljay xotun unga hech bir vaqt rashk qilmadi. Chunki bu ishlar Temurning martabasini yuksaltirish uchun qilinayotgandi. Temur maqomda qanchalar yuksalsa, otasi vazir Qizg'inning o'chini olish shunchalar qulaylashadi. Zotan, Temurning bir yil ichida egallagan yurtlari bu yog'i Sirdaryodan Amudaryogacha, u yog'i chinlar chegarasidan tortib rus o'rmonlarigacha tutashib qolgandi. Galdagi eng muhim mo'ljali Xuroson edi. Jangovarlik yo'lining ilk yillarida fath etishga tirishib, ko'p zahmat chekib-da zabt etilmagan bu o'lka unga qarshi yovqurona haybatini saqlab kelayotgandi. Bu yurt juda katta boylikka, noyob gilamlar-u qurol-aslaha ustaxonalariga, qimmatli dehqonchilik mahsulotlariga ega edi. Nihoyat, endilikda ulkan quvvatga erishgan Temur Xuroson hukmdori G'iyosiddin ustiga mahobat bilan yopirilib bordi va bu sarvat o'lkasini o'ziga tobe etdi.

XVIII. TIKBOSHLI JAHONGIR NASLI

Temur Turkiston, Amudaryo va Xorazm tomonlarni zabt-u fath etib, butun bu mintaqani qilichiga bo'ysundirgach, endilikda Qipchoq o'lkalariga to'g'ridan to'g'ri yo'l ochilgan edi.

Chig'atoy turklaridan tashqari, Chingizxon sulolasi-ga mansub turkiy xonlar ichida birinchi bo'lib islomiyatni qabul etgan Jo'jixon qavmi ham Qipchoq dashtlarida yashab kelardi. Ammo musulmonlik bu tomonlarda nomigagina mavjud bo'lib, aholi orasida, turmushda islomiy odatlar ko'rinmasdi. Bu sulolaning idorasi ostida turli qavmlar bor edi. Jo'jiylar har sohada islomdan oldingi hukmdorlariga tobelik davridagi hayot tarzlarini davom ettirishardi. Bu muhitda xilma-xil qavm-urug'larning o'ziga xos an'analari, qonun-qoidolari va odatlari saqlanib qolgandi. Jo'jiylar hokimiyatlari ichida yashayotgan katta-kichik, turli elatlardan boj-u soliq undirishar va ularning tinchlig-u muhofazasini ta'min qilishar edi. Faqat shunisi ham borki, bu qorishiq el-u elatlar o'rtasidagi kichik bir ziddiyat yoki to'qnashuv juda katta kelishmovchilikka sabab bo'lishi, nifoqqa aylanishi oson edi.

Islomiyatga nisbatan loqaydlikni va avvaldan beri riya qilingan turmush tarzini davom ettirganlari uchun Jo'jixon sulolasi o'ziga tobe joylarni saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Bu sulola Edil daryosi atrofida, Saroy shahri tevaragida hukmlarini yuritishardi. Jo'jining beshinchi o'g'li Shaybon Edil daryosining orqa tarafi va Qubon tomonlarda hukmron edi.

Qrimda esa Tug'ay Temur degan zot hokim edi.

Saroyda Berdibek nomli bir valiahd voliylik qilardi.

Bulardan faqat Berdibek farzandsiz edi va 1360-yilda vafot etgandi. Uning sulolasiga mansub qarindoshi O'rus Saroyda hukumatni egallashga tashabbus etdi va bunga muvaffaq bo'ldi.

To'xtamish O'rusga hasad qilardi, uning dong'ini eshitar-eshitmas darhol arkoni davlatni to'plab, majlis o't-

kazdi. Bu yig'inda hukumat ishlariga aqli yetadigan yetuk ulamodan tashqari, To'xtamishning har amrini karomat bilib, uning nazariga tushish uchun har qanday qabih ishga tayyor manfaatparast yaloqilar, hokimiyatda zulmga yo'l ochadigan axloqsiz maddoh-u g'addorlar ham bor edi. To'xtamishning hasad va kini qaynab-toshib, so'zga kirishdi:

– Hammangiz yaxshi bilasizki, Edil o'lkasi bizga qaraydi. U bizning sulolamizga xos bir mulkdir. Bu yerlar bizga ajdodimizdan qolgan. Shuning uchun bu vatanni saqlab qolish biz uchun qutlug' burchdir. Sizlar nima deysiz? Bundayin muqaddas vazifa faqat bizning sulolamizga berilgan ekan, O'rusning bu o'lkada tajovuzkorlarcha ish tutishi munosibmi?

Anjumandagi laganbardorlardan bittasi – vakillar boshlig'i darhol uning so'zini ilib ketdi:

– To'g'ri, hazratim! Biz, barcha vakillar guruhi, bizni shu maqomga yuksaltirgan iqtidorimizga tayanib aytamizki, O'rusning kelishmasdan, bundayin tajovuzkorona ish yuritishga zarracha haqqi yo'q! Bunday noma'qul ishga qo'l urgani uchun butun Jo'ji ulusi unga qarshi turishimiz, egallagan maqomidan haydab, haddini bildirib ko'yishimiz kerak! Bu bizning haqqimiz va burchimizdir, zotan...

Shu payt yig'indagi bir vakil bu fikrlarga qarshi chiqib, shunday dedi:

– Menimcha, bunaqa yo'l tutmaganimiz bizga munosibroqdir. Jo'ji sulolasiga mansub bir xotinning eri bo'lgan kishi, ya'ni O'rus ham hokimiyatni idora etsa, buning bir ma'zuri yo'qdir, deyman.

– Iye, bunaqa ketishda jo'jilar hokimiyatdan ayrilib qoladi-ku? – dedi vakillardan yana biri.

Shu payt kuchli vazirlardan bittasi, nihoyat sabri tugaganday bir ohangda:

– Yo‘q, taqsir, unday emas, – dedi. – Xo‘sh, O‘rusning oilasida tug‘iladigan xonzoda Jo‘ji sulolasidan hisoblanmaydimi? Bu o‘lka muvaqqat bir zamon mobaynida boshqa bir sulola mansubi tomonidan idora qilinsa ham, oxirida hukmdorlik yana o‘sha jo‘jilarda qolmaydimi?

Shunda To‘xtamish vazirga tashlanib qoldi:

– Yo‘q, bu to‘g‘ri emas! Ko‘raylik-chi, boshqa bir naslga mansub O‘rus butunlay idorani qo‘lga olgach, o‘g‘lini merosxo‘r qilib tayinlaydimi, yoki boshqa xotini-dan bo‘ladurgan bolasiga munosib ko‘radimi?..

– U hokimiyatni birovga berib qo‘ymas-ov...

– Unda yanada yaxshi, taqsirim! Ana shunda muzokara va haq talab qilish uchun kelishmovchilik darvozasi keng ochiladi!

– Yo‘q! Bo‘lmaydi. Bordi-yu o‘sha paytda idoramiz va hokimiyatimiz zaiflashib qolguday bo‘lsa... – dedi bir ulamo. – O‘shanda masalani kim hal qiladi?

– Ey chol! – dedi To‘xtamish g‘azablanib haqiqatgo‘y keksa vaziriga. – Ko‘nglingda bir gap bor, qani, ochiq ayta qol.

– Men nima derdim, hukmdorim, – dedi vazir. – Hozir ham undan kuchli emasmiz-ku axir...

– Iye, nimalar deyapsan o‘zi? Bir itga haddini bildirib qo‘yishga qurbimiz yetmaydimi? – dedi g‘azablangan To‘xtamish.

Shu chog‘da maddoh mansabdorlardan bir nechasi til-yog‘lamalik bilan so‘zga aralashdi, To‘xtamishni ulug‘lab, O‘rusxonni yerga urdi. Ulardan biri:

– Gaplaringiz juda to‘g‘ri, – dedi. – Menimcha ham,

O'rusday hukumatni yangi qo'lga olgan, idoriy ishlarga begona bir odam bizdan qo'rqishi kerak-da!..

To'xtamishxon ulamosi bilan bu tarzda kengashib bo'lgach, o'zining keskin qarorini bildirdi:

– Bugundan boshlab O'rusga qarshi urush ochamiz!

– To'ppa-to'g'ri, xonim! Nihoyatda to'g'ri!.. – deya yig'indagi ko'pchilik uning qarorini quvvatladi.

– Bo'pti, endi tarqaling, – dedi To'xtamishxon. – Urush tayyorligi ko'rilsin! Bizning qarorimizga qo'shil-maganlarga aytinglar, jang boshlanganda, ular ham yonimda bo'lsin va kimning kuchli ekanini o'z ko'zlari bilan ko'rsin!..

* * *

Uzundan uzoq mojarolar va kelishmovchiliklardan keyin O'rus bilan To'xtamish orasida dahshatli urush boshlandi. Har ikki taraf ham maydonda askariy shijoat va jasorat ko'rsatishga kirishdi. O'rtada qilich va qalqonlarning darang-durung tovushidan boshqa hech narsa yo'qday go'yo. Ikki taraf ham nafrat va kin bilan bir-birlariga hujum qilar, bir-birini mahv etish uchun tirishar edi. Janggohda qon daryoday oqardi, dev sifat kishilarning jasadlari yer bilan bitta bo'lib yumalab yotardi.

To'xtamish yonidagi keksa vazirdan o'smoqchilab:

– Ha, chol, urush qalay ketyapti? – deya pisandsiz so'radi. – Sen aytganday, askarimizda O'rusni mag'lub etish uchun kuch yo'q ekanmi?

– Yo'q, taqsir, – dedi vazir pinagini buzmay.

– Nechuk?

– Taqsir, birinchi g'olibiyatga unchalik ishonmasangiz yaxshi bo'lardi, – dedi u.

Ayni shu chog'da To'xtamish huzuriga yetib kelgan chopar qo'shinning chap tarafidagi askarlar tum-taraqay qochganini bildirdi. Xon bu kuchsizlangan nuqtani jonlantirish uchun darhol buyruq berdi. So'ngra alamini choldan olmoqchiday unga o'shqirdi:

– Sen shum so'zlaring bilan qo'shinimning ruhiy jangovarligini zaiflatyapsan! Nari ket-e, falokat! Otingga mingan holda buyrug'imni kut!..

Vazir yaqinlashayotgan muvaffaqiyatsizlikni oldindan sezganday bir qiyofada:

– Taqsir, menga qolsa, ikki ot tayyorlab turaman... – dedi.

– Yo'qo-o-ol! – deya o'dag'ayladi To'xtamish. – Haddingdan oshma, o'lging kelib qoldimi yo!?

– Xudo umr bersin, xon hazratlari, – dedi muloyim tovushda kekxa vazir va o'girilib, undan uzoqlashdi. Qo'shinning orqa tarafiga o'tib, qochish uchun ikki ot tayyorlab, falokat onlarini kuta boshladi.

Urushmas, bir qiyomat qoyim bo'ldi. Ikki tomon ham hech qo'rquvsiz qilich o'ynatib, dushmanini mahv etishga jidd-u jahd etardi. Har taraf o'lik... o'lgan, o'ldirgan, ingragan, yig'lagan, zorlangan, pisgan, pistirgan, yaralangan, ezilgan, qochgan askarlar bilan to'la... Ikki tepadagi xonlar atrofida yugurgan, baqirgan beklar... Cherik esa yanada ko'proq o'ldirish uchun qonsiragan, o'chli ko'zlarini olaytirib, kimsa kimsani tanimasdan, bir-birining qonini to'kib, olishib yotibdi...

Oxiri To'xtamish odamlarining sekin-sekin mag'lubiyatga uchrayotgani ayonlashdi. To'xtamish o'z askarlarini harchand matonat va jasoratga undasa-da, bu mahshariy g'avg'oda ortga qaytishdan boshqa chora ko'rinmadi. U qo'shinini mag'lublikdan qutqaza olmadi. O'rusxon askarlari hujuma o'tib, bostirib kelmoqda edi.

Bir payt, hech kutilmaganda O'rusxon cherigidan birisi qo'lidagi qilichini o'ynatib, yildirimday To'xtamishning shundoqqina qarshisida to'xtadi va to'satdan bir zarba urdiki, xon jonsiz, yerga ag'darilib tushdi. Askar kelgan tezligida ortiga qaytib, ko'zdan g'oyib bo'ldi...

Nariroqda bu mudhish manzarani kuzatib turgan kek-sa vazir ildam kelib, jasadni bir otga ortdi va boshqa otga o'zi minib, uni yetakda tutganча sharq tomonga yo'naldi...

Bu paytda, To'xtamishning narigi yoqda qolgan vazir-u vuzarosi undan aynib, O'rusga tarafdor bo'lib qolishgandi. Keksa vazirning hol-u harakatini kuzatib turganlar esa unga achingan ohangda:

– Hayho-o-ot!.. – dedilar. – Bechora miyasi achigan chol!..

* * *

Oradan ikki kun o'tgan. Odamlar qon bilan bo'yalgan maydonni ko'zdan kechirishmoqda. Ba'zilar o'liklarni yotgan yeridan olib, chuqurlarga ko'mish bilan band. Tirik qolganlar esa marhum safdoshlarga nisbatan bu dunyodagi oxirgi vazifasini ado etib, ular bilan vidolashmoqda.

G'olib askarlar orasida yuzidan hech ishdan qaytmasligi ko'rinib turgan, o'ch olish otashida yonayotgan bir jangovar ham bor ediki, u nimanidir yo'qotganday olazarak kezib, muhim bir narsani axtarmoqda edi. U ko'p izlandi, ammo axtarganini topolmadi. Ma'yuslanib orqaga qaytar ekan, To'xtamishning sobiq vakillari va endilikda O'rus tarafdori bo'lib, yovlariga malaylik qilayotgan pastkashlarga duch keldi.

Ulardan biri undan:

– Nimani qidirypsan, Toshtug'ay? – deb so'radi.

– Hech narsani qidirganim yo‘q! – dedi u.

– Qo‘ysang-chi, sen aniq nimanidir axtarib yuribsan, – deya u yana o‘smoqchiladi.

– Yo‘q, o‘zim shunday aylanib yuribman, – dedi zarda bilan Toshtug‘ay. – E, yashirmay qo‘yaqol! Birortasini o‘ldirding shekilli, intiqom olish uchun...

– Ha, o‘ldirdim! Yana ne deysizlar?

– Biz ne derdik... kimni qidiryapsan o‘zi?

– To‘xtamishni!

– U ketdi.

– Nima-a?! Ketdimi? Qo‘limdan qutulibdi-da, shundaymi? Men ham orqasidan bormasam, otim Toshtug‘ay bo‘lmasin!

– Nima qilasan uning orqasidan borib, endi u – hech kim!

– E, sizlar nimaniyam bilardingiz. Mayli, ayta qolay: O‘rusxon uning jasadini olib kel, deb meni yuborgandi. Kecha uni bir zarb bilan o‘ldirgandim. O‘lmagan ekan-da, ablah, qochibdi! Ha, mayli, qayoqqayam qochardi. Qani, ko‘ray-chi, qo‘limdan qutularmikin? Xo‘sh, hozir To‘xtamish qayerga ketgan bo‘lishi mumkin? Yonida kim bor edi?

– Bir kekxa vaziri bor edi, xolos. Uni tanimaysan. Birgalikda ketishdi. Ammo To‘xtamish sog‘midi, o‘likmidi, buni bilmaymiz.

– Qayerga ketganligini bilolmadik-da... – deya biri ming‘irladi.

Nariroqda turgan kimdir bu so‘roqqa shunday javob berdi:

– Temurning oldiga ketdi!

So‘ngra bu odam:

– Kekxa vazirning sharqqa qarab ot chuhlaganini ko‘rdim va tong yorug‘ida shoshgancha „Menga Temur-

ni ko'rsat!" deya baqirganini eshitdim, — deya qo'shimcha qildi.

Shunda hamma vahimaga ko'mildi, qo'rquvli bir to'vush yangradi:

— Unda endigi voqealar dahshatli bo'ladi!

XIX. QOPLON HUZURIDA

O'sha voqealardan o'n yil keyinroq, Temur so'rida dabdaba va mahobat bilan o'tirarkan, bir kishi huzuriga kirmoqchi ekanligi xabar qilindi.

— Olib keling! — deya buyurdi u.

Qabuliga keltirilgan odam egilib-bukilib, suqulib Temurning etagini o'pdi va:

— Temur hazratlari! — dedi. — To'xtamishxonga askar berib, yordam etganingizni eshitib...

— Nima bo'пти, xo'sh? — dedi Temur uning so'zini kesib, — yolg'iz askargina emas, aqcha ham berganman. Bundan tashqari, Turkiston, O'tror, Jaran tomonlarning g'arbini ham unga berdim. Xo'sh, nima bo'пти?

— To'g'ri, muhtaram xoqonim! Ana shu siz askar va o'lka amirligini bergan odamingiz...

— U odamga nima qipti?

— Sizga bu xatni uning qilmishlari qanday ekanligini bildirib, yaxshi bir ish qilish niyatida olib keldim...

— To'g'risini aytsam, gaplaringdan bir ma'no chiqarolmadim. O'zing ayt, To'xtamish sultonga nima bo'ldi? Men bilmayman, bilolmayman, xo'sh, u nimalar qilyapti?

— Hazratim, yordamlaringiz va himoyangiz tufayli Qipchoq hukmdori bo'lgan To'xtamish ham sizga tobe bo'lgan edi, holbuki...

— Hozirda ham tobedir!

— Yo'q...

- Nechun?
- Chunki hozirda u isyonga tayyorlanmoqda!
- Ha-a... Shundaymi? Nima qilyapti?
- Siz bilan sadoqat bog‘larini uzib, Ozarbayjonga hujum qilmoqchi yoki qiladi!

– Yo‘g‘-e... To‘xtamishdan buni kutmagandim. Uni ikki bor tahlikalardan qutqardim. Bir marta O‘rus askarlarining quv-quvidan, bir gal esa o‘zimning qahrimdan...

– Nima, kechirib yubordingizmi?

– Ha. O‘zing kimsan?

– Kim bo‘lardim, uni o‘ldirishga ont ichgan bir odamman! Bilasizmi o‘z vaziri bo‘lgan kekxa otamni To‘xtamish nima qildi? Bilmasiz-da... O-o-o-o... bu yerga, sizning huzuringizga uni yuborgan mening otam edi! Oldinroq otam unga O‘rus bilan jangga kirishmaslikni va hirs-u ochko‘zlikka mag‘lub bo‘lmaslikni nasihat qilgandi. U so‘z tinglamadi. Urushdi. Urushda men O‘rus tomonda, otam esa uning tarafida edi. Zotan, men O‘rusga uning kallasini olib kelishga va‘da bergandim. Otamning yo‘qligida To‘xtamishga hujum qildim va bir zarbada yerga qulatdim. O‘ldi deb o‘ylagandim, joni qattiq ekan... Jangdan so‘ng otam uni bir otga ortib, sizga keltirmoq uchun yo‘lga chiqqan va bir qishloqqa olib borib, davolagan. To‘xtamish ikki oydan keyin tuzalgan. So‘ngra endi qayerga borishlarini so‘ragan. Otam sizning huzuringizga kelib, tobe bo‘lishi munosibligini uqtirgan. U esa haliyam ochko‘zligidan, alamidan qutulolmay, yana muhorabadan so‘ylagan. Otamning bu boradagi fikrini so‘ragan. Otam unga, jang qilmasayding yaxshiroq bo‘lardi, degan. Biroq shu so‘zlarni aytishi bilanoq boshiga tushgan qilich zarbidan o‘lgan...

– Keyin To‘xtamish bu ishidan pushaymon bo‘lgandir-a?

– Ha, pushaymon bo‘lgan, ammo otamning o‘limiga emas... – dedi marhum vazirning o‘g‘li. So‘ngra, biroz o‘ylanqirab turib, shunday dedi: – Otamning fikrlari to‘g‘ri ekanligiga qanoat keltirib, o‘zicha taslim bo‘lib yo‘lga chiqqan va sizning huzuringizga kelgan... Mana, To‘xtamish shunday odam!

– Biroq sen ham undan kam emassan! – dedi Temur. – Uni o‘ldirishga qasd etib, bu ishni amalga oshirmagansan.

– Yo‘q, men undayin emasman. U so‘ziga sodiq emasdi, hiylalar qilardi. O‘sha yo‘lda edi. Men esam, dinimni va o‘lkamni sevganim uchun, yurtim manfaatini o‘ylab, uni o‘ldirishga qaror berganman.

– Xo‘sh, birinchi zarbang o‘lka naf‘i uchun ekan, keyingi qilgan hujumingning ma‘nisi nedir?

– U hujum, ayonki, bir qotilni – otamning qotilini o‘ldirish, undan ilohiy intiqom olmoq uchun edi.

– Yaxshi. Oting nima edi?

– Toshtug‘ay.

– Sendan xursandman, Toshtug‘ay. To‘xtamishni qo‘yib tur. Qon hidi, intiqom otashi bilan yonayotirsan. Men bu holatning qanday ekanligini yaxshi bilaman. Chunki men ham intiqom orqasidan ko‘p chopdim... Xudo xohlasa, bir kun yana huzurimga kelasan. O‘shanda ikkalamiz undan o‘ch olish saodatiga erishamiz. Hozircha sabr et.

XX. TEMURNING MO‘SQO‘VA YURISHI

Bir necha oy o‘tgach, Temurning askarlari keng Yo‘yiq-O‘rol taraflargacha yetib bordi. Turkiston tog‘lari va janubiy Sibirni qurshagan ufq qip-qizil... Vodiya g‘urub hokim. Oftob borliq muhitni kunbotar yog‘dusiga ko‘mgan, sarg‘aytirgan... Qorong‘ilik xabarchisi

ko'rshapalaklar uchishadi, kishining ich dunyosi qora-yib-titraydi...

Qarshida – cheksizlikka uzangan osmon. Chetlari ko'kka tutash qop-qora va haybatli o'rmonlar bir zulmat sahrosini eslatadi. Daraxtlar orasidan uvullab-guvullab oqqan shamol dengiz to'liqini kabi shovullaydi...

Bugun kunduzi yuz bergan Yoyiq maydonidagi urushda Temur qo'shinlari zafar qozondi. Qocha boshlagan To'xtamish askarlarini uning cherigi Mo'sqo'vagacha quvib bordi, ammo xonning o'zini tuta olishmadi. To'xtamish janubiy Rusiyaga qochgan va u yerda berkinib olgandi.

Qo'shini huzuriga qaytgach, Temur yonida o'tirgan Toshtug'ayga yuzlandi:

– Topilmapti-ku, – dedi. – Endi ne deysan?

– Ne derdim, hazratim, – dedi Toshtug'ay. – O'zlari zafardan mast-u zavqiyob bo'laversinlar. Biz esa keyinroq, o'ljani tutganimizda, inshoolloh, qonini to'kib, bundayin baxtiyorlikka yetishurmiz.

– Rejang qanday?

– Men sizga aytsam, bir yo'lini qilib, To'xtamishni qo'lga tushirish mumkin.

– U ham bo'ladi, Xudo xohlasa. Faqat ko'raylik-chi, falak-u davron ne ko'rsatarkin? Endi men bilan Samarqandga qaytasan, – dedi Temur.

Toshtug'ay To'xtamishning isyoni xususida xabar keltirgach, Temur o'ylanib qolgandi. Zotan, isyonni bostirishga tayyorgarchiligi yo'q edi. Shu bois Toshtug'ayni yana kutishga undab:

– To'xtab turaylik-chi, bir gap bo'lar, – deya tinchlantirdi.

– Xo'p, sabr qilaylik. Siz sabr soyasida maqsadingizga yetishasiz, ammo men...

– Mening maqsadga yetishuvim sening ham maqsadging emasmi?

– Ha, to‘g‘ri, hazratim, bir tomondan shunday, ammo...

– Ammo nima?

– Hazratimning maqsadlari To‘xtamishning o‘zini yo‘q qilish, ya‘ni, uning zarar-u yomonliklaridan qutulmoq, shundaymi?

– Shunday.

– Mening vazifam uning zararlari bilan birga vujudini ham yo‘q qilishdir! Ahdimga ko‘ra, shundagina mening niyatim amalga oshadi.

– Hozircha sabr qilmog‘imiz maqbuldir.

Temur bu suhbat asnosida vaziyatni Toshtug‘ayga yaxshilab anglatdi va undan sabriga suyanib, qasos chog‘ini kutish va‘dasini oldi.

Temur og‘ir-bosiq, yetti o‘lchab bir kesadigan odam bo‘lgani uchun va shu bilan birga, Toshtug‘ayning yolg‘on so‘zlashi ehtimolini ham ko‘zda tutib, darhol falon qilamiz, demadi. O‘zini beparvo ko‘rsatib, holatni teran o‘rgandi, bu orada vaqtdan ham yutdi. To‘xtamish muvaqqat zafar kayfi bilan o‘zini yo‘qotib turgan paytda u bo‘ljak urush taraddudini ko‘rdi. So‘ngra azm-u jazm ila Turkistonga qarab yurdi...

Shunday qilib, O‘rol tog‘laridagi, Yoyiq daryosi qirg‘og‘idagi maydon jangida Temur g‘alaba qozondi. Qonli urushdan so‘ng, qo‘shinning qattiq charchagani hisobga olinib, bu makonda dam olishga qaror berildi. Oqshom tusharkan, chodirlar yangidan tikildi. Temur To‘xtamishni quvib ketganlarning qaytishini kutmoqda. Uning gap-so‘zlaridan intiqom olishni kechiktirmoqchi ekani sezilib turibdi. Xullas, bu kecha shu yerda qolishdi. Erta bilan, quyosh hali ufqning qizargan dudoqlari-

dan o'pmay turib, yurtga qaytish buyrug'i yangradi. Ulkan o'rdu qora bulutday qo'zg'olib, Samarqandga qarab yo'l oldi.

XXI. INTIQOM

Endi turkiy qavmlar ichida Temurga qarshi kurashayotgan birgina To'xtamish qolgandi, xolos. Boshqa hech bir tahlika yo'q, shunga binoan Temur bu odamni mahv etishni o'zining va saltanatining tinchligini saqlash uchun eng kerakli ish deb hisoblardi.

U Toshtug'ayni qo'yib yuborish niyatida emas. Chunki To'xtamishning tek turmasiligini bilardi, yana odam va askar to'plab, o'ziga qarashli yerlarga hujum uyushtirishi mumkinligini taxmin qilardi.

U arqonni uzun tashladi va to'rt yil kutdi. To'rtinchi yilning oxirlarida To'xtamish qaytadan bosh ko'tarib, nonko'rlik yo'lga kirganini uning oldidan kelgan xabar-chidan bilib oldi.

– Hazrat, – dedi xabarchi, – ular qishlog'imizga kelgandayoq qilmagan vahshiylik-u odobsizliklari qolmadi!..

– Nimalar bo'ldi?

– Hazrat, ular uylarni buzib, yetimlarning boshini kesdi! Hayvonlarni chavaqladilar, keksalarni bo'g'ib o'ldirdilar!

– Keksalarniyam o'ldirishdimi?

Temur xabarchidan bu gaplarni eshitarkan, g'azabdan sochlari tik bo'lib hurpaydi. Chunki turkiylar odatiga ko'ra keksalarga urushda daxl etilmas, ular doim qo'riqlanar edi. To'xtamish bu odatni buzgandi.

– Ha, hazratim! Eng dahshatlisi, xotinlar qip-yalang'och qilib ko'chalarga haydaldi!

– Nima deding?!

– Ha, hazratim, shunday. Qancha kasal, nogiron, yara-dor bo'lsa, barchasi turli qiynoqlar bilan o'ldirildi.

– Nogironlarni ham-a?

– Ha! Qanchalar ojiz-u bechoralar ot quyrug'iga bog'-lanib, tosh-u tuproqda sudratildi...

– So'ngra?

– So'ngra ne bo'lardi, hazratim, endi bu taraflarga qa-rab yurishdi.

– Qayerdan yo'lga chiqishdi?

– Darbanddan. Hozirda Ozarbayjonga hujum boshlash arafasida turishibdi.

– Ha-a, endi bu zolimga haddini bildirib qo'yish ke-rak! – dedi Temur salmoqlab. – Barcha xiyonat-u yo-monliklarining xunini endi to'laydi, men undan o'ch olaman! Hozirgacha bu ishni qilsaydim, qanchadan qan-cha keksalar-u yetimlar, nogironlar, ayollar, ojiz-u be-choralar, balki, o'limdan omon qolarmidi? Endi o'shalar uchun ham intiqom olmog'im kerak! Eh, bu odamlar, odamlar... Nechun bir zolimga qarshi birlashib, g'olibiyat chorasini qidirishmaydi? Nechun o'zlariga bechora-lik, xorlik vasfini loyiq ko'rishadi? Agarchandiyki, ular bitta-bitta holda kuchsiz-u bechora ekanlar, ha, bitta-bitta o'q yeb qirilgandan ko'ra birlashib, ezilishdan qutulish-ga intilsalar bo'lmaydimi? Ya'nikim, bir-biriga o'xshash o'qlar bitta qilib bog'lansa sinmagani kabi, ular ham bir-galikda ezilishdan qutulishadi. Ortiq ezilmaydilar. Ana shunday ezilmaslik imkoni bor ekan, nechun bunchalik miskin, jasoratsiz, takasaltang va tanbal bo'lishadi?! Nechun? Axir men ham hukmdor bo'lmay turib kim edim? Yosh bola, bechora bir yigit. Shunday mehnat qildimki, maqsadim yo'lida g'ayrat bilan shundayin ti-

rishib intildimki, bugunda bu saltanatga, hukmronlikka ega bo'ldim. Mana, men ham hatto nogiron-ojizman, oqsoqman, ammo meni ezolmaydilar! Nechun qarshimda bo'yin egadilar, qani ayt-chi, xabarchi? Ha, mayli. Mana, qara, ularni o'ldirgan To'xtamish ham mendan qanchalar qo'rqadi! Nechun? Chunki men peshona teri to'kib doim zahmat chekaman, chunki men do'stlarim bilan birlashib, dushmanlarim yengolmaydigan holga kelmoqdaman! Ha, men yovlarimni ezaman, yo'qotaman, o'ldiraman!

Xo'sh, nechun o'ldirmas ekanman? Nega ezmas ekanman? Nechun yo'q qilmas ekanman?

Men ezib-o'ldirmasam, ular meni o'ldirishadi. Mahv etmasam, ular meni mahv etadilar.

Yo'-o'q, men ular qarshisida hech qachon bo'yin egmayman! Chunki men adolat va haq yo'lidan bormoqdaman. Avval qilganimday, mana endi ham, bundan keyin ham barcha bilan, hatto dushmanlarim bilan ham birlashib, raqiblarni ezmoqqa, o'ldirmoqqa va yo'q qilmoqqa jahd etajakman! Chunki bu mening haqqim va vazifamdir! Mana, hozir ham ishonamanki, yovini o'ldirganda gunoh yo'q. Gunoh – o'lganda, ezilganda!

Ha, shunday. Bundan keyin intiqom olish uchun yashayman, birgina ishim shu bo'ladi. Hozirgacha ko'plarini afv etib, gunohlaridan o'tdim, ammo bundan so'ng kechirish yo'q! Haq doimo g'olib keladi, men bunga ishonaman. Shu davrgacha ko'plarga sovg'alar berib iltifot ko'rsatdim. Evaziga ne ko'rdim? Salgina o'zlari-ga kelib, jonlanishlari bilanoq, meni yanchib tashlash uchun quturishadi, o'zim qo'llariga bergan o'qlar bilan meni o'ldirishga intilishadi! Xo'sh, men ana shundayin nonko'r sotqinlarning nimasiga rahm etay, insof qilay,

lutf-u marhamat ko'rsatay? Nechun kechirib, gunohidan o'tayin? Qilichim ostida ezilsanlarki, minba'd haqsizlik qilishmasin! Xoinlarni, dushmanlarini ezmagan eziladi. Ha, ezishni mendan o'rganishsin!

– Hazratim, lutf-u marhamat ko'rsating.

– Xo'sh, endi askarlarimni urushga tayyorlab, jangga kirishaman! Ammo sizlar uchun emas, sizlarni qutqarish uchun emas, faqat olamga saboq va ibrat berish uchun bo'ladi bu ishlar! Lekin shu Toshtug'ay qanchalar sabrli bir inson ekan, a! He ofarin, deyman unga! Men oraga tushmasaydim, munofiq va sotqin To'xtamishni u allaqachon o'ldirardi. Menga hurmati tufayli qancha sabr etdi-ya...

– Hazrat...

– Menga Toshtug'ayni olib keling!

Xabarchi izn istamoqchi, yana „hazratim“ demoqchi edi, Temurning haybatidan larzaga tushib, so'zi og'zida, jim qoldi va u buyruq berarkan, sekingina tashqariga chiqdi.

Temur endi ichkarida bir yonartog' misoli guvullab, haybatli ovoz chiqarardi, chunki asabi buzilib, hayajon-u g'alayonda o'rtanmoqda edi. U To'xtamishning qaytib kelishini taxmin qilgandi, faqat bu o'lka xalqining u zolimdan qo'rqishini, vahimaga tushishini xayoliga ham keltirmagandi. Shu bois, vaziyatdan saboq olib, o'zicha shunday ahd-u paymon qilib, qaror berdiki, bundan so'ng insof, afv-u marhamat degan narsalarni emas, yolg'iz bir narsani – adolatni o'ylaydi.

Shu payt ichkariga Toshtug'ay kirib keldi.

– Hazratim, meni chaqirtirgan ekansiz, – dedi qo'l qovushtirib.

Temur hayajonli tovushda:

– Xabaring bormi? To‘xtamishing kelayotgan emish, men senga aytgan edim-a... – deya sekingina pichirladi.

– Ha, hazratim, yarador it bir yerda tinch turolmaydi, – dedi Toshtug‘ay. – Ammo bu gal jonimni koyitgan boshqa bir ish bor. Buni qarang-a, To‘xtamish bosib o‘tgan yerlarini yoqib, buzib, yiqitgani holda, hamma ojizlar uning qarshisida bosh egib turishadi! Xalqning bu ishiga, miskinligiga, odamzotning bu ojizligiga judayam achchig‘im keladi! Ulug‘im, menimcha, har kimning, uyg‘oq xalqning fikri sizga o‘xshab yuksak, oliyjanob bo‘lishdir. Shunga binoan, o‘zini ojiz va bechora bilgan, marhamat tilaganlar dunyoda ko‘p emas. O‘ylashimcha, bu insonlarning umumiy tabiatiga xos bir nuqsondir.

– Qanaqa umumiy tabiat, Tug‘ay? – deya hayron bo‘ldi Temur. – Bu qanday ta‘bir? Seningcha, demak, bashariyat komilan miskinmi? Agar u faqat o‘zini bilib, o‘zini o‘ylasa, mafkurasini birlik fikri bilan harakatga keltirmasa, dushmanga qarshi birlashib, uni yo‘qotish yo‘lida ittifoq tuzmasa, u o‘z kelajagini saqlab qololmaydi-ku axir? Ya‘ni, ko‘p zamonlarda bo‘lganidek, o‘z yaqinlari, aka-ukasi uning qonini so‘radi, o‘z qarindoshlari-yu safdoshlari uni mahv etib, yer bilan yakson qiladi!

– To‘ppa-to‘g‘ri, arslon xoqonim! – deya Toshtug‘ay Temurning otashin so‘zlarini hayajon bilan quvvatladi. – Faqat mana shu fikrlarni, bu eng kerakli mafkurani avom-u ommaga qanday tushuntirish lozim.

– Ishning bu tomoni ham bor – dedi o‘ylanqirab Temur. – Ha, bu ishning oson yo‘lini topgandayman...

– Qanday ekan?

– Menimcha, qay o‘lkani fath etsam, u yerda bir g‘olibiyat dostoni, mahobatli bir obida barpo etmoq

darkor. Deylikki, yovlardan ming kishi mahv etilsa, yuz ming qirildi, deya ovoza va mish-mish chiqarib, odamzotni qo'rqitmoq, ana shu yo'l bilan xalqni o'ziga keltirib, esankiratib, so'ngra esini yig'ishga majbur qilmoq.

– O'shanda, balki...

– Xo'sh, nima deysan? Yo'-o'q, bunaqasi ketmaydi. Men ana shunday yolg'on bilan jahonga qo'rquv solsam.

– Insoniyat baribir ko'zini ochmaydi, ammo tilanib-elanib kelib, gadoday bo'yin egadi!

– O'-o', juda topib aytding-da!

– Bu ishlardan maqsadingiz ne o'zi, tushunmayapman.

– Natija-da!

– Nimaning natijasi?

– Axir bir dushman menga yengilib, bo'yinsungandan keyin, uni yonimga olib, vazifa berib, istagan ishimni amalga oshirishga majbur etaman va oxirida...

– Ammo dushmanni bu tushuncha va holatga qanday qilib olib kelasiz?

– Uni hech zo'rlamayman, yonimda birga yurganidan keyin, men bilan bir ishni qila boshlagach, menga o'xshab fikr yuritadi-da. Ana shu tarzda dushmanni menday o'ylashga o'rgataman.

– Ishqilib, Olloh muvaffaq aylasin. Ammo u holda sizga qarshi chiqqan boshqa yovlarga ham indamasdan, yumshoq muomala ko'rsatish majburiyati hosil bo'ladi-ku?

– Yo'q, men yovlarga shafqat qilmayman! Men o'z ishlarim bilan dunyoga, afkori umumiyaga dars berib, bashariyat ichidan kekkayib chiqqan turli bebosh qo'mondon-u sultonlarga o'z haddini bildirib qo'ymoqchiman, xolos. Toki ular ham menday bo'lishsin!

– Agar bu ishlarga muvaffaq bo'la olsangiz...

– Yumshoqyuraklik va avf qilish hislarimni qalbmida saqlab, ichimda yig‘lab, ko‘zyoshlarimni kimsaga ko‘rsatmay yursam, g‘oya yo‘lida tinimsiz intilsam, albatta, bunga erishaman!

- Bundan bosh maqsadingiz nima, hazrat?
- El aro ittifoq va birlikni vujudga keltirish.
- Kimga qarshi?
- Din dushmanlariga qarshi.
- Bu ittifoq kimlardan iborat bo‘ladi?
- Turkiylardan, ha, barcha turkiylardan!

* * *

To‘xtamish bir zamonlar Movarounnahr xalqi orasida turkiy qavmlarning birdan bir qahramoni sifatida tanilgan edi. Temur buni yaxshi bilar, uni o‘z yo‘lidagi asosiy tahlika deb hisoblagani uchunmi, hamma narsani bir yonga yig‘ishtirib, faqat To‘xtamishga dars berib qo‘ymoqqa qaror qilgandi. Ha, u o‘ziga mone’ kuchni, yaqqol ko‘rinib turgan baloni yo‘q qilishga ahd etgandi.

Uning kelajakka bog‘liq yuksak va buyuk tasavvurlari, rejalari, bajarajak buyuk amallari bor. Ularga erishmoq, oliy orzulariga qovushmoq, askarlik sharafigini tuyish, g‘alaba zavqini totish lozimgina emas, balki shart edi. Ochko‘z va nonko‘r To‘xtamish Temurning yordam-u lutflariga javoban g‘oyat sarkashlik va kufroni ne‘mat ishlar ko‘rsatdi, buning uchun uni jazolash, haddini bildirib qo‘yish bir tomon, ammo bundan-da muhimi, o‘z amri ostidagi xalqni kelgindilar zulmidan qutqarish, ularning intiqomini olish, xususan, Toshtug‘ayning otasi, keksa vazirning ham o‘chini olib, arvohini shod etish ayni farz edi.

Shunday dahshatangiz bir baloning chorasini hozir-

danoq ko'rish, uni mahv etish – Qipchoq yurtidagi ikkiyuzli, johil dinsizlarning islomiyat va shariat oldidagi mag'lubiyati demak edi. Shuni bilaturib, unga qarshi kurashmasa, uni yo'qotmasa, bu katta nuqson Temur tiklayotgan, shariat an'analari ila mustahkamlanayotgan bir davlatning yiqilishiga ham olib borishi mumkin edi. Zotan, butun faoliyatida o'zining turkiy jangovarligiga va islomiyatga suyanan Temur buni yaxshi bilardi.

Xullas, bu galgi hujum dahshatliroq va vahshatliroq bo'lishi ko'rinib turardi.

Temur yashin tezligida chopqinga tayyorlandi. So'ng-ra amri ostidagi qo'shin bilan darhol yo'lga chiqdi. Bu cherik to'pi shundayin uchib borardiki, jangovar karvon oyoqlari ostidagi ulkan zamin go'yo kichrayib qolganday tuyulardi.

Temur taxtiravonda o'tirgancha yonidagi Toshtug'ay bilan suhbatlashib borardi.

- Bu safargi zarbimiz o'ta dahshatli va shiddatli bo'ladi!
- Inshoolloh, xoqonim!
- Qalay, endi intiqomdan umidvormisan, Tug'ay?
- Xoqonim menga doim sabr qil dedilar-ku.
- Ha-a!
- Shuning uchun sabr qilmoqdaman.
- Balli, sabr etish va natijani ko'rish lozim. Faqat oldin mening so'zlarimni diqqat bilan tingla.
- Jon qulog'im bilan eshitaman, hazrat.
- Bu gal ularni tum-taraqay qilib qochiramiz va ezib tashlaymiz!
- Xon yana qochib qolsa-ya?
- Sen quvasan.
- Xo'p bo'ladi, rahmat! – deya Toshtug'ay o'ch olishga ruxsat tekkanidan minnatdorchilik bildirdi.

- Bir bo‘lik senga quvishda yordam beradi.
- Xoqonim, izningiz bilan, u bo‘likni boshqa kishining izmiga bersangiz, men bir o‘zim quvib, otam intiqomini o‘zim olsam, degandim...
- Bo‘ladi. Ammo nechun ko‘makchi bo‘likni istamayapsan?
- Chunki qo‘l ostimdagilar biror nojo‘ya ish qilib qo‘yishi ham mumkin-da.
- Yo‘g‘-e?
- Yoki orzungizga xilofan, askarlarni boshqa tomonga jo‘natib yuborish zarurati tug‘ilib qolar...
- Balki.
- Va yoki, ixtiyorimdagi lashkar mening fikrimga teskari harakat qilib qo‘yish ehtimoli ham bor.
- Ko‘ngling to‘q bo‘lsin, Tug‘ay. Hech bir amringga mone‘lik qilishmaydi, fikringga qarshi chiqishmaydi.
- To‘g‘ri, taqsir, mone‘lik qilishmasa-da, mone‘likka sabab bo‘lib qoladilar-da.
- Bor gaping shumi?
- Ha, taqsir. Xullas, yonimdagi askarlar dushmanimdan o‘z istaganimday o‘ch olishimga xalaqit berishadi.
- Xo‘p, Toshtug‘ay, aytganingday bo‘lsin. Ammo uning kallasini menga olib kelasan.
- Bo‘pti! Kallani oldin O‘rus hazratlariga olib bormoqchi edim, ammo endi sizga olib kelishga so‘z beraman.
- So‘z va ahdingda turarsan degan umiddaman.
- Shu payt bir chopar taxtiravonga yaqinlashib, Temurga qarata:
- To‘xtamish ikki soatlik bir yerda ekan, – dedi.
- Bu xabardan so‘ng Temur amirlar va beklarni chaqirib, maslahatlashdi va shunday amr berdi:
- Qo‘shin shu yerda to‘xtab, bir muddat tin olsun. Yov

tomonga kuzatuvchilar, ko'zchilar yuborilsin. Ular atrofni tekshirib, vaziyat xususida xabar jo'natib turishsin!

Temurning to'rt tirgakli chodiridan tashqari yo'l uchun tayyorlangan bir ustunli, muhtasham qubbali chodiri ham bor edi. Barcha chodirlar qurildi. Temur beklarni o'z chodiriga da'vat etdi.

– Biroz muddatdan so'ng urushni boshlaymiz, – dedi u. – To'xtamishni taniysizlarmi?

– Yo'q, taqsir – degan ovozlari taraldi.

Darhaqiqat, umaro va yuksak mansabli beklar ham To'xtamish haqida eshitishgan bo'lsa-da, o'zini ko'rishmagan, tanishmas edi.

– Nahotki ichlaringda birorta ham uni taniydigan odam yo'q?

– Taqsir, qulingiz... – dedi beklardan birining yosh xizmatchisi, Hazar Qoya degan yigit.

Temur unga:

– Unda seni To'xtamishni quvlaydigan bo'likka qo'mondon etib tayinlayman. Uni quvib borib tutasan! Agar biror daqiqa uning ortidan ayrilsang, o'zingdan ko'r! – dedi.

Ba'zi vakillar va beklarga qo'l ishorati bilan ta'kidlab:

– Sen o'ng tomonni, sen esa so'l tarafni boshqarib borsan! – deya buyurdi.

– Men markazda bo'laman.

Shu chog' tashqaridan, bir chopar keldi, deya xabar berishdi.

– Kirsin! – dedi Temur.

Ichkariga oldingi marrani kuzatib-tekshiruvchi ko'zchilarning boshlig'i kirdi.

– Nima gap? – deya so'radi Temur undan.

– Taqsir, To'xtamish hech narsadan xabarsiz, o'rdusi bilan shu tomonga kelmoqda.

Temur shartta o'rnidan turdi.

– Qani, yuringlar! – deya barchani chorlagancha tashqariga yo'naldi.

U oqsoqlangancha, arslon kabi savlat bilan chodirdan chiqdi. Yonida turgan o'ng qo'l qo'mondoniga qarab:

– Lashkaringga buyur, darhol jangga hozirlansin! – dedi.

– Bosh ustiga! – deya qo'mondon chopib ketdi.

Temur oldinda, boshqa ulug' harbiylar uning ortidan yura boshlashdi. U atrofga ko'z tashladi. O'ng tomonda ulkan bir tepalik bor edi. Tepalik ular turgan vodiyni oy kabi o'rab olgandi. To'xtamish orqadan kelib, o'sha yerda dam olishga majbur edi. Temur shularni o'ylarkan, Tosh-tug'ayga qarata:

– Sen anavi, o'ngdagi tepa ustida quvuvchi askarlar bilan birga pistirmada kutib yot! – deya buyurdi. – Kerak paytda dovulday qo'zg'alib, o'zingni ko'rsatishga g'ayrat qil!

– Bosh ustiga! – dedi Toshtug'ay va buyruqni bajarishga shoshdi.

Temur so'l tarafdagi qo'mondonga burilib:

– Sen shu chap yonbag'irdagi daraxtlar orasiga berkin, qalqon bo'lasizlar! – dedi.

O'sha paytda o'ng qo'l qo'mondoni shoshgancha qaytib keldi.

– Lashkar urushga shay! – dedi.

– Yaxshi, – dedi Temur xotirjam tovushda. – Sen ham askaring bilan anavi o'ng yondagi daraxtzorga kirib ol! – deya buyurdi unga. – Qani, hamma o'z ishini bajarishga otlansin!

Shu ondan boshlab har kim yengil va chaqqon harakatlarni bilan o'z burchini uddalashga kirishdi.

Haybatli oqsoq arslon amir-u umarosi bilan qo'shining jang oldidagi holatini ko'zdan kechirib chiqdi. Bir soat mobaynida barcha askar buyurilgan nuqtalarga joylashdi. Ko'rinishda Temurning markazdagi lashkari ko'zga tashlanardi, xolos. Ular ham biroz oldinga siljib, oysimon tepaning o'ng uchidan burilgach, bir qismi panalikda g'oyib bo'ldi...

Shu asnoda dushmanlar ham ko'rinib qoldi.

To'xtamish eng orqada kelardi. Bir to'da qaroqchilar guruhi alohida, ildam harakat qilayotgani ko'zga tashlanmoqda...

Qipchoq lashkari yonbag'irning o'rtasiga yetib keldi. Bu paytda Temur qo'shini bilan ularni orqadan o'rab olgan edi. Birdan markaz lashkar orasidan taralgan karnay-surnayning jangovar tovushi yer-u ko'kka, yuraklarga jo'shtiruvchi larza soldi. Shu chog'da Temurning o'ng va so'ldagi askarlari yashin tezligida harakatga kirishdi.

To'xtamish vahimali ovozlarni eshitib, shoshib qoldi, tahlikaning ne qadarligini chamalay olmasdan, biroz sarosimaga tushdi. Atrofga ko'z yugurtirarkan, o'rab olinganini angladi. To'satdan piyodalar hujumga o'tdi. Temur askarlari markazdan, o'ng-u so'ldan zarba bermoqda edi.

Shu payt Toshtug'ay o'ngdagi tepadan o'z bo'ligi bilan otilib chiqdi, urushayotgan ikki qo'shin orasiga yorib kirib, To'xtamishga yaqinlashish, uni qo'lga olish taraddudiga tushdi.

Har ikki tarafdan taralayotgan urush sadolari shiddatlanib borardi. To'xtamish qo'shini pastdagi pistirma yo'ldan qochishga urinar, ammo yana Temur askarlariga duch kelib, talmovsiragan holda mahv bo'lmoqda

edi. To'xtamish ishlar orqaga ketganini fahmladi va qavatidagi yovarlari bilan birgalashib qochmoqa tutindi, o'zini ochiq yonga urdi. Yuz kishidan elliktachasini qurbon berib, keyin, uh, qutuldim, deya umidlanib qocharkan, narigi tomondagi askarlari o'lim-la panjalashib, qon to'kmoqda edi.

Toshtug'ay pistirmada yotgan joydan yarim soatlik masofadagi bir yerdan o'tib borarkan, To'xtamish orqadan kelgan bir dag'dag'ali tovushni tuydi:

– Qayerga qochsang-da, o'lim seni topadi!

To'xtamish ot jilovini sal tortib, ilkis ortiga boqdi.

Uni quvib kelayotgan Hazar Qoya guruhi bir zumda ko'rinmay qoldi. Shu asnoda Toshtug'ay ham yov iziga tushib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Ta'qib bo'linmasi hujum qilmasa-da, To'xtamish jon qo'rquvida otini qichagancha qushday uchib borar, ufqda bir nuqtaday ko'zga chalinar edi. Ammo uning orqasidan izma-iz quvlab borayotgan, nuqta misoli ko'rinayotgan yana bir kishi ham bor edi. Hazar Qoya bo'ligi-da bor kuchini ishga solib, olisdagi o'sha ikki kishini ko'zlab ot choptirishmoqda.

Berigi tarafda esa urush davom etmoqda, jon bozori qizigandan qizib yotar edi. To'xtamish lashkari qo'mon-donning qochganini sezib, umidsiz talvasada qoldi va ayrimlar qilichlarini yerga tashladi. Ana shunda orqadan bir qahrli ovoz eshitildi:

– Ur! Ur-a!

Temurning bu buyrug'i askarlarni yanada jo'shdirib yubordi va ular yovni shafqatsizlarcha mahv etishga kirishdilar. To'xtamish cherigi qochishga tutindi. Yog'iy Sibirgacha quvib-qirib borildi, oxirida bittayam askar qolmadi.

Temurning qo'shini zafar qozondi. U muzaffar lashkarni ko'zdan kechirarkan, kimlar omon qolib-qolmagani-
ni aniqlash maqsadida yo'qlama boshlatdi.

– O'ng va so'l qo'l askarlari hamda qo'mondonlari!

So'l qo'l lashkarining qo'mondoni chopib oldinga
chiqdi.

– Sog' qo'l qo'mondoni shahid bo'ldi, – dedi.

– Unda sen, so'l qo'l qo'mondoni, askarga buyur, tin
olsin!

– Bosh ustiga, xoqonim!

– Darrov chodirlar qurilsin... Xo'sh, quvguvchi guruh-
dan qanday xabar bor?

– Xoqonim, hozircha hech bir darak yo'q.

– Mayli. Chodirlar tikilsin! Quvguvchi bo'likning qay-
tishini kutamiz. Barcha lashkarning istirohati ta'minlansin!

Temur buyruq berib bo'lgach, ko'zlarini ufqqa qadadi.
Beg'ubor, o'tkir nigohi u tomondagi bir nuqtaga taqaldi
va yonidagilarga:

– Qarang, birov kelmoqda, – dedi.

Hamma o'sha tarafga qaradi.

– To'g'ri, kimdir kelyapti... – dedilar.

* * *

Shunday qilib, berigi tarafda Toshtug'ay ta'qib qo'li,
ya'ni quvuvchi askar bo'ligidan ajralib, to'satdan g'oyib
bo'lgandi. Ta'qib qo'li ufqda elas-elas ko'zga chalinayot-
gan ikki nuqta ortidan quvlab borardi. Ilgaridagi otliqlar-
dan biri To'xtamish, biri Toshtug'ay edi.

Rosa quvlashdi, rosa chopishdi. Ot kuchi qanchalik
bo'lsa, o'shanga munosib uchishdi, ammo oxiri otlari shu
holga keldiki, bechora jonivorlar goh munkib ketar, goh
majolsiz oyoq tirab, taqqa to'xtab qolardi.

Nihoyat batamom holdan toydilar. Toshtug'ay uchun To'xtamishni tutadigan vaziyat yuzaga keldi. U belidagi kamandni yechib, oldinda qochmoqqa tirishayotgan To'xtamishga otdi va uni bandi etib, o'ziga qarab tortdi. Shu holda ham ucharga shay ot uzangilari To'xtamishning oyoqlaridan chorasiz ayrildi. Orqadan kelgan Tosh-tug'ay otini qichab, raqib ulovining yolidan tutib to'xtatdi. To'xtamish tugab-bitgandi.

Toshtug'ay otidan tushib, To'xtamishni dast ko'tarib ulovidan indirdi va yerga yotqizib qo'ydi. Yonidagi teri suvdonini ochib, dushmanining og'ziga suv tomizdi. Biroz kutdi. Sal o'ziga kelgan To'xtamish sapchib o'rnidan turdi va qilichini yalang'ochlab, unga tashlandi. Tosh-tug'ay ham qilichini sug'urib, u bilan olisha ketdi. Olishuv qizigandan qizidi. Toshtug'ay bir-ikki hamladayoq To'xtamishni o'ldirishi mumkin edi, ammo o'chini sekin-sekin olib, uzoq kutilgan intiqom lazzatini simirmoq istardi. Birdan uning ko'zlari To'xtamish bo'ynidagi kamand bog'lariga qadaldi va juda ustalik bilan bir siltab, raqibini ortga tisarilishga majbur etdi. Endi maqsadga yetgandek edi. Chunki ortiga tistirilgan To'xtamish bo'ynidagi ipning bir uchi Toshtug'ayning oyoqlari ostida qolgandi. Kamand bog'ini bosib turgan Toshtug'ay qarshisidagi To'xtamish muvozanatini yo'qotib, yerga yumalab tushdi.

– Hayhot, o'ldim endi! – deya umidsiz baqirdi To'xtamish.

– E, nega o'lasan? – dedi tahqiromuz ohangda Tosh-tug'ay.

– Mag'lub bo'ldim...

– Har mag'lubiyat o'lim bilan jazolanmaydi.

– Bilmadim.

– Nega bilmaysan? Qani, bir gaplashaylik-chi, bilib olarsan.

Toshtug'ay dushmanini kamand ipi bilan chirmab bog'lagach, uning qoq ro'parasiga o'tirdi. Uzoqlarga bir ko'z otdi, ufqda haliyam hech kim ko'rinmasdi.

– Seni hozirning o'zidayoq o'ldirishim yoki tiriklayin ko'mib tashlashim mumkin, – dedi Toshtug'ay.

– Qo'lingdan kelganini qil.

– Menga aytadigan so'nggi so'zing bormi?

– Mendan ne istaysan o'zi? Qancha aqcha kerak?

– Qancha berasan?

– Xohlaganingcha.

– Xo'p, belingda qancha aqcha bo'lsa, barini menga topshirib, yana shuncha beraman, deya va'da etsang, qo'yib yuboraman.

– Xo'p, sen aytganday bo'lsin! Ammo meni qayerdan topasan-u, aqchani qanday olasan?

– Uni menga qo'yib ber, qanday bo'lmasin haqqimni olaman!

– Qanday qilib?..

– Bu juda oson. Chunki sen qayda bo'lsang, men ham o'sha yerda bo'laman-da...

– Bu mumkin emas. Chunki seni Temur qidirtiradi, qayda ekanligingni eshitib, ikkimizning bir yerda ekanligimizni bilib qolsa, ikkovimizni ham...

– Meni Temur tanimaydi-ku!

– Iye, shundaymi? Sen Temurning askari emasmisan?

– Yo'q.

– Unda... kimga tobesan? Kimning askarisan?

– To'xtamishning!

– A-a! Men To'xtamishman-ku!?

– Yo'q, men seni tanimayman. Sen To'xtamish emas-san, Temursan! To'xtamish hozir jangda... Sen Temursan, To'xtamishdan qochib yuribsan.

– Aslo unday emas!

– Ha, aytganday... Ha, sen yo O‘rus ustiga ochko‘zlar-cha yurish qilgan To‘xtamishmisan? Shundaymi?

– Ha.

– O‘sha kekxa vazirini o‘ldirgan To‘xtamish, a?

– Ammo u...

– Nima ammo?!

– Hozir u narsalarni eslashdan ne foyda bor axir?

– O‘zimcha eslab qoldim-da... Qani, rostini ayt-chi, o‘sha kekxa vazirni nega o‘ldirding?

– Bilmadim.

– Unda men ham seni o‘ldiraman!

– Nega axir?

– Negaligini bilib olasan! Sen meni aqcha bilan aldamoqchisan-da, a? Meni pastkash bir manfaatparast deb o‘yladingmi? Bilib qo‘y: men – sen o‘ldirgan o‘sha kekxa vazirning o‘g‘li Toshtug‘ayman!

– Al‘omon!.. Meni kechir...

– Kechirmoq yo‘q! Yur-chi, qani.

– Ne qilasan?

– Joningni menga taslim et!

Toshtug‘ay yonidagi to‘rvani ochib, undan bir dona non oldi, suvdonini ham ochdi.

– Yot! – dedi unga nafrat bilan. – Sen uchun bu oxirgi ziyofat: non, suv. Istagim shuki, buni yotgan yeringda yeysan! Luqmalar halqumingdan o‘tadimi, ko‘ray-chi?

– Olloh rizosi uchun...

– Tek tur, it! Tilingni tiy, sen Ollohni tanimaysan!

Toshtug‘ay Temurning huzurida islomni qabul qilgan, to‘g‘ri va odil yigit edi. To‘xtamish luqmani sekin-sekin yerkan, vaqtdan yutib, balki, qutulib ketarman, degan umidda Toshtug‘ayga boqdi. Biroq uning intiqom to‘la

ko'zida o'z ajalini ko'rdi, barcha umid foydasizligini angladi va taqdirga tan berib, jimgina cho'zildi. Shu payt Toshtug'ay bir sakrab To'xtamishning ko'ksiga mindi, to'satdan raqibining qo'lidagi xanjarni ko'rib qoldi. Bir hamlada qurolni tortib oldi va belidagi arqonni yechib, uni yaxshilab o'rab-chirmab bog'lab, o'likday qilib yana yerga yotqizib qo'ydi. Haligi xanjar bilan To'xtamishning og'zini yirib ochib, oldindan tayyorlangan non bo'lagini tiqdi. To'xtamishning og'zi nonga to'lib, yopilmay qoldi. Toshtug'ay bir qo'li bilan uning boshini bostirib, ikkinchi qo'li bilan suvdondagi suvni non ustiga to'kdi. Non To'xtamishning og'zida shisha boshlarkan, Toshtug'ay o'rnidan turdi.

Shu payt quvuvchilar qismi bu yerga yetib keldi. To'xtamish nafas ololmay jon halpida talpinar, tinimsiz hiq-hiqlar edi...

XXII. QIPCHOQ SAFARINING SO'NGI

Temurning ko'ziga ufqda ko'ringan qora quvuvchi bo'likning unga yuborilgan chopari edi. U ikki soat ot choptirib, hukmdorning huzuriga yetib keldi.

– Nima gap? – deya so'radi undan Temur.

– Xoqonim, Tuman yaqinlariga yetib borildi, To'xtamish qo'lga olinib, o'ldirildi, – dedi xabarchi.

– Ha, balodan qutulibmiz. Toshtug'ay qani?

– Lashkar bilan birga kelmoqda.

– Juda soz, – dedi Temur. So'ngra yonidagilarga qarorini bildirdi:

– Bu oqshom shu yerda qolamiz.

Kechasi ta'qib qismi bilan birga Toshtug'ay ham qaytib keldi.

Ertasiga yurtga qaytish boshlandi.

Bu urushda, aslida, unchalik katta zarar-u ziyon ko'ril-madi. So'g'ish natijasida Qipchoq mintaqasining bir tara-fi, o'sha davrda yangigina o'sayotgan ruslar o'lkasi ulkan Chin va Movarounnahr mamlakatlari o'rtasida yakkala-nib, nochor holatga tushib qoldi.

Qo'shin qaytdi.

Nog'ora va karnay-surnay ovozi avjlandi. Temur tax-tiravonida savlat to'kib o'tirardi, orqadan esa saf-saf lash-kar kelmoqda. Shu asnoda Toshtug'ay Temurning taxti-ravoniga yonashib keldi va:

– Xoqonim, sizga bir sovg'a bor, – dedi.

– Qanaqa sovg'a?

– Ko'rsatayinmi, hazrat?

– Qani.

– Mana, xoqonim. – deya Toshtug'ay qo'lidagi o'rog'-lik narsani unga peshkash etdi.

Temur sovg'ani ochib ko'rib, xotirjam jilmayib qo'ydi.

– Ko'p yaxshi! – dedi. So'ngra buyurdi: – O'rdi to'xtasin!

Xoqonning amri darhol qo'shin bo'ylab tarqaldi va barcha to'xtadi.

– Kallani nayza uchiga bog'lab, Toshtug'ayning qo'li-ga beringlar! – deya buyurdi Temur.

Buyruq bajarildi.

Qo'shin qo'nib o'tgan har yurtida xalq To'xtamishning ahvolini ko'rar, hayrat qilar va ibrat olar edi. Muzaffar cherik bir shahardan o'tib ketayotganda, olomon orasidagi bir bola onasiga:

– Onajon, qo'rqib ketyapman... – dedi.

– Qo'rqma, bolam, – dedi ona. – Qo'rqmaki, To'xta-mish kabi zolimlar qo'lidan qutulishning yo'li shu! Shun-day bo'lishi kerak.

Temurning falsafasidagi hikmat o'sha onaning ana shu bir og'iz so'zida o'z ifodasini topgandi.

Lashkar yo'lida davom etmoqda. Qipchoq safari ana shunday yakunlangan edi. Temur bu haqda o'ylarkan, chuqur nafas oldi. Zotan, u bo'lajak katta yurish oldidan birozgina tin olmoq uchun fursat kelganini anglagan edi...

MUNDARIJA

Nashriyotdan	3
So‘zboshi.....	5
I. Noma’lum otliq	10
II. Tutqunlik.....	15
III. Dahshatli hukm	27
IV. Qal’a ichidan zabt etiladi	32
V. Kunduzi urush, kechasi to‘y	40
VI. Mash’um kecha	44
VII. Mudhish intiqom.....	47
VIII. Qotillarga nima bo‘ldi	50
IX. Falokat	60
X. Maktubning siri	63
XI. Sulton Tug‘luqning buyrug‘i	73
XII. Takal Bahodirning qo‘shini.....	79
XIII. O‘lim hukmidan so‘ng.....	85
XIV. O‘zingdan balo chiqsa.....	103
XV. Temurning qaynog‘asi Husayn dushmanlar orasida	109
XVI. Oqsoq Temur	111
XVII. Movarounnahr hukmronligi va Temurning taxtga chiqishi.....	118
XVIII. Tikboshli Jahongir nasli.....	125
XIX. Qoplon huzurida	133
XX. Temurning Mo‘sqo‘va yurushi.....	135
XXI. Intiqom.....	138
XXII. Qipchoq safarining so‘ngi.....	155

Adabiy-badiiy nashr

DUNDAR ALP

SHARQNING ENG BUYUK HUKMDORI

Roman

„Ziyo nashr“ nashriyoti

Toshkent – 2020

Muharrir	<i>Abdurahmon Jo'rayev</i>
Badiiy muharrir	<i>Nasiba Ergasheva</i>
Musahhih	<i>Gulandom Umarova</i>
Sahifalovchi	<i>Umar Qodirov</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
15.05.2020 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$.
Ofset qog'oz. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 8,4. Adadi 5000. Shartnoma № 110–20.
Buyurtma raqami 447-20.

„Ziyo nashr“
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ
Kitob fabrikasida chop etildi
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.
Tel.: 71 234-44-01/05
www.credoprint.uz

DUNDAR ALP

SHARQNING ENG BUYUK HUKMDORI



Yozuvchi
Mualliflar G'uruh
Tashkiloti



ISBN 978-9943-6342-4-4



9 789943 634244